Bunday jarayonlar mintaqada geosiyosiy mavhumlik saqlanib qolishiga, davlatlarni ko‘p tomonlama siyosat yuritishiga, pirovardida hamkorlik jarayonlarining samarali kechishiga salbiy ta‘sir qiladi. Mintaqada yetakchi davlatlarning manfaatlari to‘qnashuvi davom etar ekan, mintaqaviy yaxlitlik vujudga kelmaydi. Siyosatchilar mintaqa yirik davlatlar manfaatlari to‘qnashadigan hudud ekanligi, bu ko‘plab muammoli jarayonlarga sabab bo‘lishini ta‘kidladilar. Bunday fikrlarga qo‘shilgan holda, yana shuni ham qayd qilish lozimki, biz shunday imkoniyatdan unumli foydalanishimi, bir davlatning bosimini qaytarishda ikkinchi bir davlatning muvozanatidan, foydalanish imkoni mavjud.

Mintaqa taraqqiyotida tashqi omillardan ko‘ra ichki omillar, ya‘ni mintaqa davlatlarining ichki imkoniyatlari va ulardan nechog‘lik samarali foydalanish ko‘proq ahamiyat kasb etadi. Mintaqa rivojida shu hududda joylashgan har bir davlatning ulushi bor. Jumladan, O‘zbekistonning roli va geosiyosiy pozitsiyasi nihoyatda katta.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqi. <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>.
2. Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2022. -592 б.
3. Шавкат Мирзиёев. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Тошкент: Ўзбекистон, 2029. - 400 б.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
5. <https://kun.uz/news/2023/01/28/uzbekistonning-markaziy-osiyo-davlatlari-bilan-savdo-aylanmasi-75-mlrd-dollariga-yetdi>
6. Rog‘un GESi: Tojikiston va O‘zbekiston o‘rtasidagi suv janjalini qanday bartaraf etish mumkin? <https://kun.uz/uz/news/2017/06/05/rogun-gesi-tojikiston-va-uzbekiston-urtasidagi-suv-zanzalini-kandaj-bartaraf-etis-mumkin>
7. Shavkat Mirziyoyev Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi «Global darvoza» tashabbusi haqida gapirdi <https://daryo.uz/k/2022/11/18/shavkat-mirziyoyev-yevropa-ittifoqi-va-markaziy-osiyo-ortasidagi-global-darvoza-tashabbusi-haqida-gapirdi/>
8. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2022. - 440 б.
9. “Taraqqiyot strategiyasi” markazi bo‘lim boshlig‘i Farrux Hakimovning “Markaziy Osiyoda mintaqaviy rivojlanish dinamikasi va “5+1” ko‘p tomonlama hamkorlik formati” maqolasi. <https://strategy.uz/index.php?news=1446>
10. Шавкат Мирзиёев. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳо. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. - 508 б.
11. Шавкат Мирзиёев. Миллий тикланишдан миллий юқлалиш сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. - 456 б.
12. Солнома. Ўзбекистон Президенти Шавкат Миромонич Мирзиёев. Фаолияти хроникаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2022. - 744 б.
13. Болтаев А.Х., Самандарова Н. З. (2021). Роль краеведческих кружков в воспитании молодёжи. Вестник магистратуры, (5-3 (116)), 63-64.
14. Болтаев А. (2021). ЁШЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА ЎЛКАШУНОСЛИК ТЎГАРАКЛАРИНИНГ ЎРНИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 7(7).
15. Квинт В.Л. Стратегиялаш назария ва амалиёти. – Тошкент: Тасвир, 2018. 160 б.

Oybek Iskandarovich Rajabov

Bukhara State University

Department of Archaeology and History of Bukhara

senior lecturer

Published under peer review:

Doctor of Science in History, Associate Professor

A'zam Boltaev,

Uzbekistan

Received 4th May 2024, Accepted 11th May 2024, Online 18th June 2024

IN HONOR OF KHOJA ZAFARON SHRINE IN BUKHARA

Abstract: The article covers the scientific considerations about the historical and social significance of the holy shrine of Muhammad ibn Vose' al-Bukhari (Khoja Zafaran) located in the Romitan district of the Bukhara region.

Key words: Bukhara, Romitan, Khoja Zafaran-Muhammad ibn Voseh al-Bukhari, shrine, historical complex, sacred place, mausoleum, well.

В ЧЕСТЬ ХРАМА ХОДЖИ ЗАФАРОНА В БУХАРЕ

Аннотация: В статье представлены научные соображения об историческом и социальном значении святыни Мухаммада ибн Восе аль-Бухари (Ходжа Зафаран), расположенной в Ромитанском районе Бухарской области.

Ключевые слова: Бухара, Ромитан, Ходжа Зафаран-Мухаммад ибн Восе аль-Бухари, святыня, исторический комплекс, священное место, мавзолей, колодец.

BUXORO SHAHRI XOJA ZAFARON ZIYORATGOHI SHARAFIGA

Annotatsiya: Maqolada Buxoro viloyati Romitan tumanida joylashgan Muhammad ibn Vose' al-Buxoriy (Xoja Za'faron) muqaddas qadamjosining tarixiy-ijtimoiy ahamiyati haqidagi ilmiy mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro, Romitan, Xoja Za'faron-Muhammad ibn Vose' al-Buxoriy, ziyoratgoh, tarixiy majmua, muqaddas qadamjo, maqbara, quduq.

KIRISH

Buxoro viloyati Romitan tumani hududida qadimda «Ming shahar» deb atalgan tarixiy mintaqada Varaxsha, Kaptarxona, Porsoyak, Bo'rontepa, Shohyusuf, Subbuqtepa, Shirqinquduq, Qoraqir, Qizilqir, Simichtepa, Gujumli, Qirqqiz, Tagalboz kabi ko'plab tepaliklar, shuningdek Xo'ja Ubbon hamda Xoja Za'faron muqaddas qadamjolarigina saqlanib qolgan xolos.

Muhammad ibn Vose' al-Buxoriy (Xoja Za'faron) «Ming shahar» deb atalgan aholi gavjum bo'lib yashagan hududda joylashgan Qizilqir tepaligidagi shaharchada tug'ilib, shu hududda umurguzaronlin qilgan.

Abu Komil al-Basiriyning «Al -Muzaffot» asarida keltirilishicha, Xoja Za'faron - Muhammad ibn Vose' al-Buxoriy vohada shakllanayotgan islom dini o'z mavqeini mustahkamlay boshlagan ilk davrda, VII-VIII asrlarda karomatpesha, hadis ilmi bilimdoni va targ'ibotchisi, tib ilmining qomusiy olimi, xalq tabobatining amaliy hamda nazariy rivojiga ulkan hissa qo'shgan tabib sanalgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzu doirasida adabiyotlar va rasmiy saytlardan olingan ma'lumotlar natijasi tadqiqotga turlicha yondashishga sabab bo'ldi. Kichik ilmiy tadqiqotga doir adabiyotlarni quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin. 1. Mavzuga oid tarixiy manbalar. 2. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar. 3. Mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqot tahlillari.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tarixiy manbalarining ma'lumotlarida, Muhammad ibn Vose' al-Buxoriy (Xoja Za'faron) milodiy 740 yil (hijriy 123 yil)da vafot etganlar. XX asrdagi ilmiy tadqiqotlar natijasida ko'plab ma'lumotlar o'z tarixiy isbotini topdi. Jumladan, akademik Yahyo G'ulomov boshchiligidagi arxeologik ekspedisiyaning 1957–1959 yillardagi Xoja Za'faron Ziyoratgohiga yaqin bo'lgan Qizilqir tepaligi ustida joylashgan shahar xarobalarida ilmiy izlanishlar olib borilib, Qizilqir I-II-III kabi tepaliklaridagi tadqiqotlarda eramizdan oldingi bir minginchi yillarda ushbu hududdan katta magistral kanal tarmog'i o'tganligini aniqlab, kanalga qurilgan suv taqsimlovchi to'g'on hamda ariqlarnng izlari, qoldiqlarini topib, ilmiy jihatdan asoslab berildi.

XX asrning yana bir yetakchi arxeolog-qadimshunos olimi, akademik Abdulahad Muhammadjonovning “Quyi Zarafshon vohasining sug'orilish tarixidan” nomli kitobida Xoja Za'faron (Muhammad ibn Vose' al-Buxoriy) ziyoratgohi hududi atrofida aholining o'troqlashib yashash sharoiti Zarafshon daryosining oxirgi o'zanlaridan oqib kelgan suvlar tufayli ekanligini ilmiy asoslarda yoritib berdi.

Shuningdek, arxeolog V.A.Nilsen boshchiligidagi ekspedisiya tomonidan 1955 yilda Qizilqir shahar xarobalarida arxeologik tadqiqot ishlari ham olib borilib, tadqiqot natijalari to'g'risidagi ilmiy ma'lumotlar “O'zbekiston madaniyati tarixi” asarida to'liq aks ettirilgan.

Xoja Za'faron majmuasi joylashgan hudud ham Buxoro vohasining qadimdan aholi istiqomat qilib kelgan Varaxsha, Poykent, Vardonze va shunga o'xshash boshqa ko'plab tarixiy maskanlar kabi bir necha asrlar mobaynida shahriston va aholi yashaydigan qo'rg'onlar mavjud bo'lgan.

Eng muhimi, “Ming shahar” deb atalmish ulkan tarixiy manzilgohda ming yillar davomida insonlar umrguzaronlik qilishgan bo'lsa-da, hozirda ulardan faqat Xoja Za'faron va Xoja Ubbon muqaddas ziyoratgohlarigina asrlar bo'ronlariga dosh berib, mahalliy aholining muqaddas qadamjolaridan biri sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Xoja Za'faron Alloh taolo tomonidan turli kasalliklarni davolash ilmini burgan bo'lib, bu inson xastaliklarini davolash usullarini puxta o'zlashtirgan ulug' tabib sanalgan. Jumladan, Xoja

Za'faron ziyoratgohidagi minerallarga boy bo'lgan quduq suvi asrlar mobaynida shifobaxshligi bilan xalq tabobati an'analarining davom etishiga sabab bo'lgan. Bu tarixiy maskan hududida turli xildagi giyohlarga boy o'simliklar mavjudligi, iqlimi yumshoq, parranda-darrandalarga serob bo'lib, shifobaxsh suvi va tuprog'i sarg'ayma (sariq) kasalligi, jigar, o't pufagi, oshqozon, oshqozon osti bezi, ichak kasalliklari va boshqa ko'plab xasaliklarni davolashda yordam beradi.

Qadimdan insonlarning o'troq yashashi uchun ichimlik suvi asosiy manba hisoblanib, aholi gavjum istiqomat qiluvchi manzilllarda quduqlar bunyod etilgan. Ushbu hududlarda yashab, insonlar orasida ilm-ma'rifatda obro'-e'tibor topgan ulug' shaxslar, avliyo darajasiga yetganlar va shu manzilgohlarda qo'nim topgan. Keyinchalik bu quduqlar ham shu avliyolar tufayli ilohiylashtirilgan va suvi ham muqaddas hisoblangan. Shu ma'noda Xoja Za'faronidagi tosh quduq ham shu voqelikning yana bir dalili sanaladi. Mazkur muqaddas qadamjo necha asrlar o'tishiga qaramasdan, ushbu manzilgohga ziyoratchilarning qadami uzilmaydigan, muqaddas manzil – makon sifatida o'z mavqe'ini yo'qotmagan.

Xoja Za'faron ziyoratgohida XX asrning 70-90 yillarida katta hovli, masjid, ayvon, maqbara qurilgan bo'lsa-da, bu binolar tarixiy – me'moriy ahamiyatga ega emas, maqbara qabriston ichiga qolib ketgan, ziyoratgohning o'zi esa mutlaqo tashlandiq va qarovsiz ahvolga kelib qolgan edi. Mustaqillikka erishilgandan ko'ng, milliy o'zlikni anglash, o'tmish tariximizga xolisona baho berish, tabarruk qadamjolarni qayta tiklash, obodonlashtirish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirildi.

Xoja Za'faron muqaddas ziyoratgohida ham anchagina ishlar amalga oshirildi. Jumladan, "Xoja Za'faron jamoatchilik xayriya jamg'armasi" tashkil etilib, unga shu maskan imom xatibi Amrullo Sultonov rahbarlik qiladi. Ushbu maskanda 2014 yil kuzidan boshlab, Romitan tuman hokimligi taklifi bilan Amrullo Sultonov yetakchiligidagi obodonlashtirish ishlari jadal rivojlandi. Bu maskanda amalga oshirilgan keng ko'lamli qurilish va obodonlashtirish ishlari, xalqimizning xayr-saxovati natijasida, hashar yo'li bilan ziyoratgoh obod etildi.

Maqbaraning bosh loyihasi viloyatimizning taniqli me'morlaridan biri, tajribali inson Mahmud Qosimovich Axmedov tomonidan yurtimizda uzoq asrlar davomida shakllangan milliy-tarixiy an'analarimizga mos holda barpo etildi. Ziyoratgoh majmuasining atrofi to'liq devor bilan o'rab olindi. Mavjud eski imoratlar buzib olingan, avliyoning abadiyo qo'nim topgan joylari belgilab olinib, shu joyning aynan o'zida maqbara qad rosladi. Maqbara tomonlari 9x15 metrni, balandligi 16 metrni tashkil etib, qo'shqavatli gumbazdan iborat, yonida ziyorat qiluvchilar uchun alohida gumbazli xona ham qurilgan.

Muhammad ibn Vose' al-Buxoriy-Xoja Za'faron maqbarasi viloyatimizning yirik restavratori, tarixiy obidalar bunyod etishning hadisini olgan, betakror binokor usta Tag'i Obiddinov boshchiligidagi jamoa tomonidan qurib bitkazildi. Bu muhtasham inshoot Romitan tuman xalqining, qolaversa republikamizning turli maskanlaridan ziyorat maqsadida kelgan ziyoratchilarning beminnat ko'magida hashar yo'li bilan 2014-2015 yillarda bunyod etildi. Shuningdek, ziyoratgoh yonida ikki gektar maydonda ekobog' tashkil etish maqsadida mevali va manzarali daraxtlar o'tqazilgan. Ulug' avliyo, tib ilmining bilimdoni sharafiga "Xoja Za'faron jamoatchilik xayriya jamg'armasi" tashkil etilib, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

XULOSA

Ulugʻ avliyolar abadiy qoʻnim topgan muqaddas qadamjolar, maskanlarni obod etishdan asosiy maqsad, oʻz milliy tariximizni qayta tiklash va uni teranroq anglash, yoshlarimiz maʼnaviyatini yanada yuksaltirish yoʻlidagi bir saʼy-harakat boʻlib, xalqimizning ming yillar davomida qon-qoniga singib ketgan dinu-diyonati, urf-odatlar, ezgu-amallari davrlar sinovidan oʻtganligiga, bunday qadamjolarni obod etish har birimizning muqaddas burchimiz ekanligini unutmashimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Абу Тоҳирхўжа Самарқандий “Самария”(Самарқанд мазорлари зикри). – Т.: 2009.
2. Абу Саъд Абдулкарим ибн Муҳаммад ибн Мансур ат-Тамимий ас-Самъоний. «Насабнома» (ал-Ансоб). (VIII-XII асрда яшаган Ўзбекистонлик олимлар ҳақида маълумот). Т., 2017.
3. Садриддин Салим Бухорий. Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. Т., 2015.
4. Ҳамро Асадов. Аждодлари қимматли юрт. Бухоро., 2011.
5. Истиқлол йиллари: миллий-диний қадриятларнинг халққа қайтиши (Бухоро). Т., 2001.
6. Нарзулло Йўлдошев. Бухородаги айрим авлиёлар тарихи. – Бухоро., 1993.
7. Нарзулло Йўлдошев. Бухоро авлиёларининг тарихи. – Бухоро, 1997.
8. Насиленные пункты Бухарского эмирата (XIX-нач XX в). Ответственный редактор академии АНРУз А.Р.Мухаммеджанов. – Т., 2001.
9. Халқ турадиган жойларнинг рўйхати. Самарқанд Ўзбекистон марказий районлаштириш комиссиясининг нашри, 1926 йил. Кириш сўзи, араб алифбосидан таъдил ва айрим изоҳлар муаллифи Аҳтам Аҳмедов. – Бухоро, 2017.
10. Суюндик Мустафо Нуротий. Муқаддас зиёратгоҳлар (Ўзбекистонда қабрлари бўлган паёғамбарлар, саҳобийлар, тобеъинлар ва таба тобеъинлар). 1 том. – Тошкент, 2018.
11. Ислом маълумотномаси. – Тошкент, 2022.
12. Rajabov O. (2024). SHIFOBAXSHLIK XUSUSIYATIGA EGA BOʻLGAN ZIYORATGOHLAR. Fargʻona davlat universiteti, (1), 53-53.
13. Rajabov O. (2021). BUXOROLIK OʻRTA ASR ISLOM SHUNOS OLIMLAR. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 6(6).
14. Rajabov Oybek Iskandarovich. Medieval Islamic Scientists of Bukhara (Example of Zhondor District) International Journal of Development and Public Policy. 1(7). 2021. 91-95

Haytboyeva Mehriniso Nizomaddin qizi

Doctoral student of Urgench State University

Trainee teacher of Urgench branch of Muhammad Al-Khwarizmi University of Information Technologies in Tashkent

Published under peer review:

Doctor of Philosophy in Pedagogical science, Associate Professor

Shamsiya Ismailova,

Uzbekistan

Received 4th May 2024, Accepted 11th May 2024, Online 18th June 2024

MODELS/TYPES OF ASSESSMENT OF DIGITAL LITERACY OF TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract: With the rapid development of technology, digital literacy has become a key component of teachers' professional development. A wide range of assessment tools have been developed to measure the level of digital literacy of teachers. However, there has been no prior attempt to systematically examine these tools to improve teacher assessment of this ability. For this reason, this study examines the literature on tools for assessing teachers' digital literacy.

Keywords: Digital Literacy, Digital Competence, Assessment Tools, Professional Development, DigComp, ICT-CFT model, DECK model, SAMR model.

МОДЕЛИ/ВИДЫ ОЦЕНКИ ЦИФРОВОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация: В условиях быстрого развития технологий цифровая грамотность стала ключевым компонентом профессионального развития учителей. Для измерения уровня цифровой грамотности учителей был разработан широкий спектр инструментов оценки. Однако ранее не предпринималось попыток систематического изучения этих инструментов для улучшения оценки учителями этих способностей. По этой причине в настоящем исследовании рассматривается литература по инструментам оценки цифровой грамотности учителей.

Ключевые слова: цифровая грамотность, цифровая компетентность, инструменты оценки, профессиональное развитие, DigComp, модель ICT-CFT, модель DECK, модель SAMR.

**TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHILARNING RAQAMLI SAVODXONLIGINI
BAHOLASH MODELLARI/TURLARI**

Anatatsiya: Texnologiyaning jadal rivojlanishi bilan raqamli savodxonlik o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishining asosiy tarkibiy qismiga aylandi. O'qituvchilarning raqamli savodxonligi darajasini o'lchash uchun keng ko'lamli baholash vositalari ishlab chiqilgan. Ammo o'qituvchilar o'rtasida ushbu qobiliyatni baholashni yaxshilash uchun ushbu vositalarni tizimli ravishda sinchkovlik bilan tekshirishga ilgari hech qanday urinish bo'lmagan. Shu sababli ham, bu tadqiqot o'qituvchilarning raqamli savodxonligini baholovchi vositalar bo'yicha adabiyotlarni o'rganadi.

Kalit so'zlar: Raqamli savodxonlik, Raqamli kompetentsiya, Baholash vositalari, Kasbiy rivojlanish, DigComp, ICT-CFT modeli, DECK modeli, SAMR modeli

Kirish (Introduction)

1980-yillardan boshlab, maktablarni texnologiyalar bilan ta'minlash bo'yicha katta sa'y-harakatlar amalga oshirilib kelmoqda, chunki ta'lim kompyuterlari uzoq vaqtdan beri o'quvchilarni kelajakdagi martabalarini uchun muhim raqamli ko'nikmalarga tayyorlaydi deb o'ylangan. Biroq, texnologiyani ta'lim jarayoniga integratsiyalash o'qitish va o'rgatish natijalarini yaxshilaydimi degan savol munozarali bo'lib kelgan, chunki ta'limda texnologiyadan foydalanish o'qitish samaradorligini oshirganligini isbotlovchi dalillar yo'q [1]. Ishbilarmonlar, texnologiya sanoati va siyosatchilar raqamli texnologiyadan oddiygina daromadli bozorlarga kirish uchun bahslashuvchi vosita sifatida foydalanishlari mumkin [2], talabalar, o'qituvchilar va ta'lim jarayonida esa ko'pincha bu narsa e'tibordan chetda qoladi. Xususan, so'nggi yillarda globallashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) rivojlanishi ta'lim jarayonida AKTni joriy etishning muhimligi va dolzarb masala ekanligini ko'rsatmoqda. Zamon bilan hamnafas bo'lish va ortda qolmaslik uchun ko'plab davlatlar ta'lim tizimini global axborot jamiyatiga moslashtirish uchun qayta shakllantirishga sarmoya kiritdilar, chunki ta'lim raqamli asrda milliy rivojlanishga yordam berishning eng ta'sirli strategiyalaridan biri sifatida qaraladi. Shunga ko'ra, raqamli savodxonlikni rivojlantirish ta'lim standartlarini yaxshilash, iqtisodiy muammolarni hal qilish va axborot jamiyatini qurish vositasi sifatida qaraladi[3]. Ta'lim jarayonining barcha jabhalarida texnologiyaning keng tarqalgan ishtiroki va AKT siyosatidagi o'zgarishlar ta'lim tizimida va ta'lim berish jarayonida raqamli ta'lim platformalari yoki yangicha baholash vositalarga talab oshayotganligi isbotlagan[4]. Qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, raqamli savodxonlikni rivojlantirish yuqori darajadagi AKTni jamiyatga kiritish ko'p qirrali muammolariga eng istiqbolli yechimlardan biri sifatida qaraladi, chunki jamiyatda ta'lim darajasini oshirish jamiyat taraqqiyotining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi. Raqamli savodxonlik talabalar va o'qituvchilarga kam foiz darajasida foydali bo'lishi mumkinligi havotir uyg'otmoqda, chunki gibril o'qitish tizimini qo'llab-quvvatlash uchun raqamli qurilmalar yangi texnikalarga sarmoya kiritish zarur, agar o'qituvchilar va talabalar ta'limda texnologiyadan samarali foydalanish uchun yetarli raqamli savodxonlikka ega bo'lmaslar bu texnikalar umuman foydasiz bo'ladi. Hozirgi ta'lim sharoitida o'qituvchilarning vazifasi talabalarga XXI asrda talab

qilinadigan bilim va ko'nikmalarni egallashda yordam berishdir. Bundan tashqari, raqamli savodxonlik talabalarning globallashuv talablariga javob bera olishlari uchun asosiy kompetensiyalardan biri va ta'lim olish jarayonida muhim omil hisoblanadi. Jamiyatda texnologiyaning tez rivojlanishi tufayli o'lchashlarni amalga oshirish murakkab jarayon ekanligini ta'kidlanadi[5]. Shuning uchun olimlar o'qituvchilarga o'quv amaliyoti va kasbiy mahoratini oshirish uchun doimiy ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini oshirib borishni tavsiya qiladi.

Maqola quyidagi savollarga javob berishga qaratilgan:

S1 O'qituvchilarning raqamli savodxonligini baholashning potentsial usullari bo'yicha so'nggi tadqiqotlarda raqamli savodxonlikning qanday jihatlari keltirilgan?

S2 Raqamli savodxonlikni baholash uchun qanday turdagi asbob-uskunalar qo'llaniladi va ularning ishonchliligi va haqiqiyliги qanday hisobot qilinadi?

S3 Asboblardan-uskunalarda berilgan ma'lumotlar qanday ishlab chiqiladi yoki qanday modellar qo'llaniladi?

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Bir nechta empirik tadqiqotlar xalqaro va milliy darajada raqamli savodxonlikning ko'p jihatlari tavsiflovchi bir qator tekshiruvlarni va baholash vositalarini ishlab chiqdi va sinovdan o'tkazdi. Bu tadqiqotlardan maqsad, ta'lim ehtiyojlarini oldindan bilish uchun o'qituvchilarning raqamli savodxonligini o'lchashni qo'llab-quvvatlash yoki ushbu modellar va o'lchov vositalari ta'lim kontekstida o'qituvchining malakasiga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganish edi. Xalqaro miqyosda Yevropa mamlakatlari uchun DigEu-Lit asoslari va vositalarini, shuningdek raqamli savodxonlikni boshidanoq yaxshilash uchun uchta (raqamli kompetentsiya, foydalanish va transformatsiya) darajalarini yaratdilar[6]. Ushbu tuzilma o'qituvchilar, o'quvchilar va ta'limni qo'llab-quvvatlash, o'quv rejasiga va kasbiy rivojlanishga muvofiq o'qitish, o'rgatish faoliyatida raqamli komponentlarni muhimligini tan olish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berdi. Bundan tashqari, dastur texnologiyalar bilan ishlash va o'rganishni va amaliyotda qo'llashga ko'proq urg'u berdi. Yaqin o'n yillikda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi o'qituvchilar va talabalar uchun yangi kompetensiyalarni talab qiladi. Yevropa ta'limi konteksti uchun yana bir model DigCompEdu o'qituvchilik kasbi uchun zarur bo'lgan raqamli kompetensiyalarni tavsiflash va o'qituvchilardan talab qilinadigan o'ziga xos raqamli savodxonlikni aniqlash uchun ekspertlar o'rtasidagi maslahatlashuvlarga asoslanadi. Ushbu model keng e'tirofga sazovor bo'ldi, chunki u nafaqat zarur ko'nikmalarni o'zida yaratdi, balki o'qituvchilardan talab qilinadigan yigirma birinchi asr kompetensiyalarining keng qamrovli jihatlari ham kengaytirdi. Ushbu tuzilma o'qituvchilarning kundalik kasbiy faoliyatida hal qiladigan ko'plab jihatlarga, jumladan, professional jalb qilish, raqamli resurslar, o'qitish va o'rgatish, baholash, o'quvchilarning imkoniyatlarini kengaytirish va o'quvchilar o'rtasida raqamli kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu tuzilmaning asosiy maqsadi o'qituvchilarni ta'lim jarayonida texnologiyani pedagogik jihatdan samarali tatbiq etishda qo'llab-quvvatlash hamda o'quvchilarga raqamli olamda talab qilinadigan ko'nikmalarga erishishda yordam berishdir. Shunday qilib, ushbu tadqiqot yo'nalishining natijalarini quyidagicha talqin qilish

mumkin: texnologiya, pedagogika, maqsadli bilim va ko'nikmalar raqamli ta'lim muhitida mazmunli o'qitishni rivojlantirish. Bundan tashqari, tadqiqotning asosiy elementlari alohida emas, balki texnologiya va pedagogika o'rtasidagi aloqalarni o'rnatishga qaratilgan bo'lib, ular real dunyoda muammolarni hal qilish ko'nikmalarini o'rgatish amaliyotiga qaratilgan.

Shu bilan birga YuNESKO (2013) AKT integratsiyasining uchta darajasiga (texnologik savodxonlik, bilimlarni chuqurlashtirish va bilimlarni yaratish) asoslangan o'qituvchilar uchun AKT kompetensiyalari asosini (ICT-CFT) yaratdi. Bu model o'quv dasturlarini ishlab chiquvchilar va siyosatchilar tomonidan qabul qilingan ta'lim tizimining olti jihati (siyosat, o'quv dasturi va baholash, pedagogika, AKT, tashkilotchilik va boshqaruv, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi) bo'yicha o'qituvchilarning malakasini baholashga qaratilgan. DigCompEdu va UNESCO ICT-CFT, birinchi navbatda, izchil baholash elementlarini o'z ichiga olgan holda, o'qituvchilarning o'quv faoliyatida texnologiyadan foydalanishiga e'tibor qaratadi. Biroq, YuNESKO AKT-CFT o'quv dasturlari, jihozlar kabi kontekstli masalalar bilan ham shug'ullanadi. Natijada, texnologiyani ta'limga samarali integratsiya qilish va texnologik strategiyani amalga oshirish uchun o'qituvchilardan o'zlarining sharoitlariga xos muammolarni hal qilishlarini kutadi. Bundan tashqari, bu model o'qituvchilarga texnologiyadan foydalanishda yordam berish, o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni yaxshilash, texnologiya orqali o'qitishni innovatsiya qilish va o'quvchilarning avtonomiyasini rivojlantirishga qaratilgan[7].

Pedagoglar uchun ISTE standartlari o'qituvchilar faoliyati davomida erishishlari kerak bo'lgan yetti turdagi kompetensiyalarga bo'lingan. O'qituvchilar baholash, yordam berish, tayinlash, hamkorlik qilish, yetakchilik va fuqarolik ko'nikmalarini oshirishlari, shuningdek, talabalar bilan samarali ishlash va texnologik muhitda ularga rahbarlik qilishni o'rgatishlari kerak. Biroq, standart hali ham ba'zi cheklolarga ega, chunki har bir kompetensiya uchun tasviriy misollar amaliy emas, balki umumiy va tavsiflovchidir.

SAMR modeli o'qituvchilarga texnologiyani o'qitish jarayoniga qo'llashda maqsadli nuqtalarga erishish uchun bosqichma-bosqich jarayonni taqdim etgan bo'lsa-da, u batafsil amaliy qo'llashga ega emasligi va o'qituvchilardan talab qilinadigan raqamli kompetensiyani aniqlay olmagan uchun tanqidlarga sabab bo'ldi. Skandinaviya kontekstida ishlab chiqilgan o'qituvchilar uchun raqamli kompetensiya modelini taqdim etdi. Texnologiyani ta'limga yaxshiroq integratsiya qilish va raqamlashtirish haqida xabardorlikni oshirish uchun model o'qituvchining raqamli kompetensiyasini to'rtta kichik miqyosga ajratdi: o'qitish texnologiyasi, raqamli texnologiyadan pedagogik foydalanish, asosiy texnologik foydalanish va axloqiy masalalar[8]. Ko'rinib turibdiki, model o'qituvchining texnologiyadan foydalangan holda o'qitishdagi malakasini o'qituvchi nuqtai nazaridan baholashga katta e'tibor qaratgan, ammo o'quvchilarga nisbatan emas.

O'qituvchiga qaratilgan DECK modeli Fisher va boshqalar tomonidan yaratilgan (2012) va o'qitish amaliyotida raqamli ilovalardan to'rtta asosiy nuqtai nazardan foydalanishni ta'kidlaydi: bilimlarni oshirish, jamoa va muloqot, jalb qilish va motivatsiya, taqsimlangan idrok va bilim. Amalda raqamli savodxonlikka aniq urg'u berilganligiga, ushbu model har bir soha bo'yicha to'liq ma'lumotni taqdim etmaydi. Hall va boshqalar. (2014) raqamli savodxonlikni to'rt jihatdan

o'ldashga qaratilgan o'z-o'zini baholash DigiLit Leicester tizimini taqdim etdi (kirish, asosiy, ishlab chiquvchi), ular tanqidiy ko'rib chiqildi va turli tizimlardan moslashtirildi: (1) topish, baholash va tashkil etish; (2) yaratish va almashish; (3) aloqa, hamkorlik va ishtirok etish; va (4) onlayn xavfsizlik va e-identifikatsiya.

Gent universiteti assotsiatsiyasidagi Expertise NetWork (ENW AUGent, 2013) o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlarini qo'llab-quvvatlash uchun AKT kompetentsiyalari asosini ishlab chiqdi. Ushbu asos uchta keng ko'lamli kasbiy rivojlanish, o'qitish va pedagogika, kasbiy rivojlanish va maktab bo'yicha o'qituvchilarning raqamli kompetentsiyasini yaxshilashga qaratilgan.

Buning sababi shundaki, model maktab kontekstida o'qituvchilarning asosiy raqamli kompetentsiyalarini qamrab olish uchun baholandi. Bundan tashqari, DigCompEdu o'qituvchilarga raqamli savodxonlikka erishish uchun zarur bo'lgan umumiy kompetentsiyalarni taqdim etgani uchun tanlangan. 1-jadvalda DigCompEdu-ga ko'ra modellarning turlari jamlangan.

1-jadval O'qituvchining raqamli savodxonligi modellari

Model	Tashkilot /muallif	Mamla kat	Daraja	Komponent/ aspekt	P I	R M	O' O'	B O	B K	O' RK
DigCompEdu	Yevropa komissiyasi; Redecker (2017b)	Xalqaro	Olti daraja: xabardorlik, tadqiqot, integratsiya, tajriba, yetakchilik va innovatsiya	Professional ishtirok (PI), raqamli manbalar (RM), o'qitish va o'rganish (O'O'), baholash (B), bilimlarni kuchaytirish (BK) va o'qituvchilarning raqamli kompetentsiyasini osonlashtiri	O	O	O	O	O	O

				sh (O‘RK)						
O‘qituvchilar uchun AKT kompetentsiyalari asoslari	YUNESKO		Uch daraja: bilimlarni egallash, bilimlarni chuqurlashtirish va bilim yaratish	Siyosat va qarashlar, o‘quv dasturi va baholash, pedagogika, AKT, tashkilot va boshqaruv, o‘qituvchilarning malakasini oshirish	O	O	O	O	O	O
ISTE	Crompton (2017)	USA		Baholash, yordam berish, tayinlash, hamkorlik, etakchilik, fuqarolik va o‘rganish	O	O	O	O	O	O
O‘qituvchilarga raqamli kompetentsiya uchun umumiy asos	Ispaniya Ta’lim vazirligi, Madaniyat va Sport	Ispaniya	Uch daraja: asosiy, o'rta, va rivojlangan	Axborot va ma’lumotlar savodxonligi aloqa va hamkorlik, raqamli kontent yaratish, xavfsizlik, muammolarni hal qilish	O	O	O		O	O
Britaniyaliklar tomonidan ishlab	Britaniya ta’lim va o‘qitish jamg'arm	Britaniya		Pedagogik rejalashtirish, pedagogik	O	O	O	O	O	O

chiqilgan Digital Teaching modeli	asi				yondashuv, talabalarnin g ish bilan ta'minlanish i, o'ziga xos o'qitish, baholash, foydalanish imkoniyati va inklyuziya, o'z-o'zini rivojlanti- rish				
O'qituvc hilarning AKT bo'yicha kompete nsiyalari	Ta'lim vazirligi, Chili (2011)	Chili			Pedagogik, texnik, boshqaruv, ijtimoiy, axloqiy, huquqiy va kasbiy rivojlanish	O	O	O	
DigEuLit	Martin va Grudziec ki (2006)	Kontek stual	Uch raqamli kompetentsiya, raqamli foydalanish va raqamli transformsiya	daraja:	Ko'nikma- lar/kontsept siyalar, professional dastur va innovatsiya	O	O	O	
SARM	Puentedu ra (2006)	Kontek stual	To'rt almashtirish, oshirish, o'zgartirish va qayta belgilash	daraja:	Vizualizatsi ya va simulyatsiya , ijtimoiy hisoblash, raqamli hikoyalar va ta'limga bog'liq	O	O	O	O

					o'yinlari				
TPACK	Mishra va Koehler (2006)	Kontekstual			Texnologiya , pedagogika, mazmun va bilim	O		O	O
O'qituvchilarning raqamli kompetentsiya modeli	Krumsvik (2014)	Kontekstual	To'rt qabul moslashish, o'zlashtirish va innovatsiya	daraja: qilish, va	Asosiy raqamli ko'nikmalar , elementar ko'nikmalar , didaktik AKT kompetentsiya, o'rganish strategiyalar i va raqamli qurilish	O	O	O	O
DEK	Fisher va boshqalar . (2012)	Kontekstual			Taqsimlangan idrok va bilim, faollik va motivatsiya, jamoaviy muloqot va bilimlarni shakllantirish	O	O		O
DigiLit Lester	Hall va boshqalar . (2014)	Kontekstual	To'rt kirish, ishlab chiquvchi va yuqori	daraja: asosiy, chiquvchi	Topish, baholash va tartibga solish, yaratish va almashish, aloqa, hamkorlik	O	O	O	O

va ishtirok
etish,
elektron
xavfsizlik
va onlayn
identifikatsi
ya

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSIONS AND SUGGESTIONS)

Adabiyotlarda o'qituvchilarning raqamli savodxonligini baholash uchun xalqaro, milliy va kontekstual darajalarda turli modellar ishlab chiqilgan. Garchi DigCompedu tizimi Yevropa mamlakatlaridagi ta'lim konteksti uchun ishlab chiqilgan bo'lsa-da, u boshqa davlatlarda ham qo'llanilgan. Tadqiqot vositasi keyinchalik Yevropa mamlakati (Ispaniya) va Lotin Amerikasidagi Meksika, Chili va Peru kabi mamlakatlardagi ishtirokchilardan ma'lumotlarni to'plash uchun ishlatilgan. DigCompEdu ta'limdagi raqamli kompetentsiyani baholash uchun DigComp modeli asosida ishlab chiqilgan; ba'zi tadqiqotchilar o'qituvchilarning malakasini baholash uchun so'rovnomalarni ishlab chiqishda DigComp tizimiga murojaat qilishda davom etmoqdalar. DigComp modeli [9] Rubach va Lazarides (2021) tomonidan boshqa raqamli ta'lim modellari bilan birgalikda o'qituvchilarning texnologiyani dars rejalariga integratsiya qilish malakasini baholash uchun foydalanilgan. Tanlangan hujjatlardan faqat bittasi Ekvadordagi universitet professor-o'qituvchilari o'rtasida elektron ko'nikmalarni o'lchash uchun asos sifatida foydalanilgan UNESCO ICT-CFT.

Turli darajalarda turli xil modellar mavjud bo'lsa-da, barcha kontekstlarga mos keladigan qat'iy ramkalar yoki modellar mavjud emas, holbuki o'qituvchilarning raqamli savodxonligini o'lchash uchun bir nechta tadqiqot vositalaridan foydalanilgan.

Shunday qilib, o'qituvchilardan jamiyat bilan hamnafas bo'lishlari texnologiya va ommaviy axborot vositalarining misli ko'rilmagan rivojlanishi tufayli talabalarga texnologiya davrining raqamli vakolatli fuqarolari bo'lishlariga yordam berish uchun yangilangan texnologik kompetentsiya va boshqa tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Selwyn, N. & Gorard, Stephen & Williams, S.. (2001). The role of the 'technical fix' in UK lifelong education policy. *International Journal of Lifelong Education*. 20. 255-271. 10.1080/026013701117679
2. Lindh, Maria & Nolin, Jan. (2017). GAFA speaks: metaphors in the promotion of cloud technology. *Journal of Documentation*. 73. 160-180. 10.1108/JD-03-2016-0039.

3. Hanell, Fredrik. (2018). What is the 'problem' that digital competence in Swedish teacher education is meant to solve?. *Nordic Journal of Digital Literacy*. 13. 137-151. 10.18261/issn.1891-943x-2018-03-02.
4. Porat, E., Blau, I., & Barak, A. (2018). Measuring digital literacies: Junior high-school students' perceived competencies versus actual performance. *Computers & Education*, 126, 23–36. <https://doi.org/10.1016/j.compedu.2018.06.030>
5. Pérez-Rivero, Carlos & de Obesso, Mercedes & Núñez Canal, Margarita. (2022). Digital competence among university professors: analysis of the impact of the COVID crisis. *Economic Research-Ekonomska Istraživanja*. 36. 1-20. 10.1080/1331677X.2022.2155859.
6. Allan, Martin & Grudziecki, Jan. (2006). DigEuLit: Concepts and Tools for Digital Literacy Development. *ITALICS*. 5. 10.11120/ital.2006.05040249.
7. Helen Crompton, Diane Burke (2018), The use of mobile learning in higher education: A systematic review, *Computers & Education*,
8. Krumsvik, Rune. (2014). Teacher educators' digital competence. *Scandinavian Journal of Educational Research*. 58. 10.1080/00313831.2012.726273.
9. Rubach, Charlott & Quast, Jennifer & Porsch, Raphaela & Arndt, Mona. (2024). Exploring the link between basic ICT competence beliefs and technology use for student teachers and teachers: A use of bifactor exploratory structural equation models. *Unterrichtswissenschaft*. 51. 10.1007/s42010-023-00188-9.

Urunova Firuza Khaydarovna

Assistant of the Department of "Russian Language and Literature"
of the Uzbek-Finnish Pedagogical Institute

*Published under peer review:
Doctor of Science in Philosophy, Professor
Khaydarov Komil Donaboyevich*

Received 4th May 2024, Accepted 11th May 2024, Online 18th June 2024

TEACHING RUSSIAN TO STUDENTS OF NATIONAL GROUPS THROUGH THE ANALYSIS OF TEXTS OF FICTION

Abstract: this article discusses methods of teaching students the Russian language through the analysis of literary texts using the example of the works of I.S.Turgenev. The method of teaching through the analysis of literary texts is an important and effective approach to learning the Russian language. It allows students to improve their language skills, including reading, writing, listening and speaking, as well as expand their vocabulary and understanding of grammar.

Keywords : method, teaching, analysis, text, reading, skills, fiction.

ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ НАЦИОНАЛЬНЫХ ГРУПП РУССКОМУ ЯЗЫКУ ЧЕРЕЗ АНАЛИЗ ТЕКСТОВ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.

Аннотация: в данной статье рассматриваются методы обучения студентов русскому языку через анализ художественных текстов на примере произведений И.С.Тургенева. Метод обучения через анализ текстов художественной литературы является важным и эффективным подходом к изучению русского языка. Он позволяет студентам улучшить свои языковые навыки, включая чтение, письмо, слушание и говорение, а также расширить свой словарный запас и понимание грамматики.

Ключевые слова : метод, обучение , анализ, текст, чтение, навыки, художественная литература.

BADIIY ADABIYOT MATNLARINI TAHLIL QILISH ORQALI O'ZGA TILLI GURUHLARDA RUS TILINI O'RGATISH USULLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada I. S. Turgenev asarlari misolida badiiy matnlarning tahlili orqali talabalarga rus tilini o'rgatish usullari ko'rib chiqiladi. Badiiy adabiyot matnlarini tahlil qilish usuli orqali rus tilini o'rganishda muhim va samarali yondashuvligi ko'rib chiqiladi. Bu talabalarga o'qish, yozish, tinglash va gapirishni o'z ichiga olgan bo'lib, til ko'nikmalarini oshirishga, so'z boyligini va grammatikani tushunishni kengaytirishga imkon yaratadi.

Kalit so'zlar: metod, o'rganish, tahlil qilish, matn, o'qish, ko'nikmalar, fantastika.

Вступление (Introduction)

Изучение русского языка студентами национальных групп имеет огромное значение в современном многонациональном и мультикультурном обществе. Русский язык является одним из широко используемых языков в мире, и его знание открывает доступ к богатой культуре и истории России. Для студентов национальных групп изучение русского языка может стать ключом к лучшему пониманию и принятию русской культуры. Это также может помочь им в интеграции в русскоязычное общество, улучшении общения и расширении социальных связей. Кроме того, знание русского языка может предоставить студентам дополнительные образовательные и профессиональные возможности. Многие университеты и работодатели ценят многоязычность, и знание русского языка может стать конкурентным преимуществом.

Методология (Research Methodology)

Метод обучения через анализ текстов художественной литературы предполагает активное использование произведений литературы в процессе изучения языка. Этот подход основывается на том, что художественные тексты являются богатым источником языковых структур и словарного запаса, а также отражают культурные и исторические аспекты страны изучаемого языка. В рамках этого метода студенты анализируют различные аспекты текста: сюжет, персонажи, стиль автора, использование грамматических структур и лексики. Это позволяет им не только улучшить свои языковые навыки, но и развить навыки критического мышления и анализа. Важным элементом этого метода является обсуждение текста на занятиях. Это способствует развитию устной речи и аргументации, а также позволяет студентам делиться своими мыслями и идеями. Таким образом, метод обучения через анализ текстов художественной литературы является комплексным подходом, который помогает студентам улучшить все аспекты языкового владения.

Анализ и Результаты (Analysis and Results)

Процесс анализа текстов художественной литературы включает в себя несколько этапов:

Выбор текста: Преподаватель или студент выбирает произведение для анализа. Это может быть полное произведение или его отрывок. Выбор зависит от уровня знания языка студентов, их интересов и целей обучения. Выбор произведения для анализа - это важный этап в процессе обучения. Преподаватель или студент может выбрать произведение, которое отражает определенные аспекты русской культуры или истории, или которое содержит определенные грамматические структуры или словарный запас, которые студенты хотят изучить.

Предварительное чтение: Студенты читают текст, чтобы получить общее представление о его содержании. На этом этапе они могут отметить незнакомые слова или выражения для дальнейшего изучения. На этом этапе студенты могут использовать различные

стратегии чтения, такие как сканирование или просмотр, чтобы получить общее представление о тексте. Они могут также начать формировать вопросы или предположения о тексте, которые помогут им лучше понять его при дальнейшем чтении. Отмечая незнакомые слова или выражения, студенты начинают активный процесс обучения, который включает в себя исследование и изучение нового материала.

Анализ текста: Студенты анализируют текст, обращая внимание на различные аспекты, такие как грамматические структуры, использование словарного запаса, стиль автора, сюжет, персонажи и темы. Они могут также обсуждать свои мысли и идеи о тексте. В процессе анализа студенты могут использовать различные инструменты и методы, такие как аннотирование текста, создание диаграмм и схем, написание кратких обзоров или резюме. Это помогает им глубже проникнуть в содержание текста и лучше понять его.

Обсуждение текста: На этом этапе студенты обсуждают текст с преподавателем или другими студентами. Это помогает им развить навыки устной речи, аргументации и критического мышления. Обсуждение текста является важной частью процесса обучения, поскольку оно позволяет студентам выразить свои мысли, идеи и интерпретации, а также слушать и понимать точки зрения других.

Рефлексия: После анализа и обсуждения текста студенты рефлексиируют над своим пониманием текста и тем, что они узнали. Это может включать в себя написание эссе или отчета о тексте. Рефлексия является важным этапом обучения, поскольку она позволяет студентам осмыслить полученные знания и умения. Они могут задуматься о том, как новые идеи соотносятся с их предыдущими знаниями, как они могут применить новые навыки в будущем, и какие вопросы или темы они хотели бы изучить дальше.

Применение полученных знаний: Наконец, студенты применяют полученные знания и навыки в практической деятельности, например, в написании собственных текстов или в общении на русском языке. Этот этап является кульминацией процесса обучения, поскольку он позволяет студентам применить теоретические знания на практике. Они могут создавать собственные тексты, используя новые слова и грамматические структуры, которые они изучили. Они также могут использовать свои новые навыки в реальных ситуациях общения на русском языке[3].

Примеры жанров и стилей, которые могут быть использованы в процессе обучения, на примерах литературы Тургенева.

Романы и повести: Тургенев написал множество романов и повестей, включая “Отцы и дети”, “Рудин”, “На кануне”. Эти произведения отличаются глубоким психологическим анализом персонажей и сложными сюжетами. Они отличаются глубоким психологическим анализом персонажей и сложными сюжетами, которые отражают социальные и культурные изменения того времени. Эти произведения предоставляют студентам возможность изучить русский язык в контексте реалистической литературы, а также получить ценные знания о русской истории и культуре.[4]

“Записки охотника”: Этот эпический цикл включает в себя ряд коротких рассказов, основанных на наблюдениях Тургенева за русской деревней. Они представляют собой уникальный образец реалистического искусства. Эти рассказы представляют собой уникальный образец реалистического искусства, в котором Тургенев мастерски описывает жизнь простых людей, их обычаи, традиции и мировосприятие. Он создает живые, правдивые образы, которые позволяют читателям увидеть и почувствовать реальность русской деревни XIX века. Это делает его произведения не только художественно ценными, но и важными с точки зрения изучения русской культуры и истории. [5]

Стихотворения в прозе: Тургенев также экспериментировал с формой, создавая произведения, которые сочетают в себе элементы поэзии и прозы. Эти эксперименты с формой также отражают его стремление к инновациям и его желание постоянно развиваться как писатель. В результате, его произведения остаются актуальными и привлекательными для читателей до сих пор, и они продолжают играть важную роль в обучении русскому языку.

Диалоги и философские миниатюры: В некоторых произведениях Тургенева можно найти диалоги и философские размышления, которые помогают глубже понять его мысли и идеи. Эти элементы не только обогащают текст, но и стимулируют читателя к размышлениям, вызывая интерес к философии и культуре того времени. Они также предоставляют студентам возможность изучить различные стилистические приемы и тонкости русского языка. Так, произведения Тургенева становятся не просто источником знаний, но и инструментом для развития критического мышления и аналитических навыков.[6]

Образы русской природы и крестьянского быта: Тургенев известен своими живописными описаниями русской природы и крестьянского быта, которые являются важной частью его творчества. Его умение передавать красоту природы и тонкости повседневной жизни крестьян сделало его одним из величайших мастеров русской литературы. Эти описания не только обогащают его произведения, но и предоставляют ценный контекст для изучения русского языка и культуры.

Метод обучения через анализ текстов художественной литературы имеет множество преимуществ, которые делают его эффективным подходом к обучению русскому языку. Один из основных плюсов этого метода - это его способность улучшить языковые навыки студентов. Анализируя тексты, студенты практикуют чтение, расширяют словарный запас, учатся распознавать и использовать различные грамматические структуры. Это помогает им улучшить как письменные, так и устные навыки на русском языке. Кроме того, этот метод обучения помогает студентам лучше понять русскую культуру. Художественная литература часто отражает культурные нормы, ценности, историю и образ жизни народа. Анализируя произведения русских авторов, студенты получают ценные знания о русской культуре и обществе [3].

Это может помочь им лучше понять и принять русскую культуру, что в свою очередь может облегчить их интеграцию в русскоязычное общество. Таким образом, метод обучения

через анализ текстов художественной литературы является мощным инструментом для улучшения языковых навыков студентов и расширения их понимания русской культуры.

Unfortunately, G. Maitdinova’s monograph entitled “History of Tajik Costume”, which contains a lot of valuable information does not take into account that the majority of the inhabitants of the cities between the two rivers in Central Asia are Sarts, as recorded in the literature and statistical data on the demographic situation of Tsarist Russia. The fact that it was researched without giving it, in a certain sense harmed the value of the monograph. N. Lobacheva, an ethnographer and scientist, studied the clothing in the region's early medieval and ancient wall paintings from the perspective of the ethnic foundations of the countries, assigning it to Tajiks and Uzbeks. There are no legitimate objections to this review of the research by S. Yatsenko and G. M. Maitdinova, but it is evidence that the research on our nation’s costume complex has biases.


CONCLUSIONS


Findings on the fact that traditions reflecting the “design culture” at various levels served as the foundation for the development of our nation's costumes were made using the research conducted within the framework of the research.

In these findings, the principles of dress design in our country’s ancient and early classical periods are not consistently “tunic-shaped” as it is stressed in scientific literature, but they are still followed by designers when creating a suit silhouette - oval; right quadrilateral; For the first time, the theory that three main forms of the geometric system in the trapezoidal silhouette have been decided. (1-picture).




Picture 1. Geometric patterns on the costumes of the mural characters in Panjikent Room 42 (VI/42). In this instance, the geometric structure of the garment may be seen in three different forms.





Picture 1. Reconstructions of the geometrical structure of the costumes of the mural painting characters in room 42 (VI/42) of Panjikent.



Picture 2. Images of ossuary characters from the 6th-7th centuries are in Ishtikhan. In the relief of the ossuary, traditional clothes and accessories of this period are depicted.

It can be observed that the silhouette of the dresses is tailored to the and the regularity of detailing is applied.

The costumes of the characters show that the 3 forms of the geometric structure of the costume have been implemented.

Picture 3. Reconstruction of ossuary figures of the 6th-7th centuries found in Ishtikhan.

Other forms of fine art, including sculpture, terracotta, toreutika, and some paintings' subject matter, depict clothing with a silhouette that is tailored to the shoulders, waist, and hips. (In picture 2.3)

Additionally, the research's reconstruction of historical clothes using modeling principles provided a foundation for the conclusion that the culture of costume design in our nation had advanced even further in the early Middle Ages.

REFERENCES

1. Alekseev V.P. Geography of human races. /... The Pamir peoples should be classified as another option, closer to the Trans-Caspian one. M.: Thought. 1974 p. 223.
2. Basics of ethnography. M.: Higher school. 1968, p. 312.
3. Culture of the Middle East. T., Fan, 1990. p. 18.
4. Demographic encyclopedic dictionary. M.: Sov. encyclopedia, 1985. P. 488.
5. Maitdinova G.M. Reflection of cultural relationships of the early Middle Ages in women's costumes of Tokharistan and Sogd.// IMKU. Vol. 21. Tashkent: 1987. pp. 114-132.
6. Golender B. Window to the past. /Turkestan on old postcards/ T.: Open Society Institute - Uzbekistan. 2002. P. 86 – 131.
7. Ismoilov H. Ananaviy uzbek kiimlari. – T.: Fan, 1974.
8. Lobacheva N. Costume of the peoples of Central Asia. Collection of articles/ Central Asian costumes of the early Middle Ages era./ -M.: "Science", 1979. P-19.
9. Mertsalova M.N. Poetry of folk costume, M.: Young Guard, 1975. -138 p.
10. Meshkeris V. Terracottas of the Samarkand Museum. –L.: "From. State Hermitage", 1962.
11. Pougatchenkova G. Les tresors de Dalvarzine – tepe. – L.: "Aurore", 1978.
12. Pugachenkova G.A., Rempel L.I. History of art of Uzbekistan-M.: "Art", 1965.
13. Pugachenkova G.A., Rempel L.I. Essays on the art of Central Asia. M.: "Arts", 1982.
14. Sukhareva O. Costume of the peoples of Central Asia. Collection of articles Experience in analyzing the cuts of traditional "tunic-like" Central Asian clothing in terms of their history and evolution. – M.: "Science", 1979. P. 9.
15. Yatsenko S. A. Costume of Iranian-speaking peoples of antiquity and methods of its historical and cultural reconstruction: dissertation. ...doctor of historical sciences.24.00.01. Theory and history of culture. – Moscow: 2002.

Abduhakim Abdulazizovich So‘fiyev

Researcher of Fergana State University

Published under peer review:

Doctor of Science in Philosophy, Professor

Qodirqul Ro‘zmatzoda,

Uzbekistan

Received 4th May 2024, Accepted 11th May 2024, Online 18th June 2024

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ISSUES OF STUDYING THE FORMATION OF LEGAL CULTURE OF THE ENTREPRENEUR

ANNOTATION. The article is devoted to the study of scientific, theoretical and methodological problems of the formation of the legal culture of an entrepreneur in New Uzbekistan, to scientific clarification of concepts such as “entrepreneurial activity”, “entrepreneurial personality”, “legal culture of an entrepreneur”.

Key words : entrepreneurship, entrepreneur, person, entrepreneurial personality, law, legal culture, layer of entrepreneurs, non – economic factors.

К ИССЛЕДОВАНИЮ ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ВОПРОСОВ ФОРМИРОВАНИЯ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ ЛИЧНОСТИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЯ

АННОТАЦИЯ. В статье исследованы состояния научно-теоретический и методологические вопросы формирования правовой культуры личности предпринимателя, а также дано научное определение к понятиям “предпринимательство”, “предприниматель”, “личность предпринимателя”, “правовая культура личности предпринимателя”.

Ключевые слова: предпринимательство, предприниматель, личность, право, правовая культура, личность предпринимателя, предпринимательский слой, неэкономические факторы.

ТАДБИРКОР ШАХС ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТИ ШАКЛЛАНИШИНИ ЎРГАНИШНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК МАСАЛАЛАРИГА ДОИР

АННОТАЦИЯ. Мақола Янги Ўзбекистонда тадбиркор шахс ҳуқуқий маданияти шаклланишининг илмий, назарий ва методологик муаммоларини ўрганишга, “тадбиркорлик фаолияти”, “тадбиркор шахси”, “тадбиркор шахс ҳуқуқий маданияти” каби тушунчаларга илмий аниқлик киритишга бағишланган.

Калит сўзлар: тадбиркорлик, тадбиркор, шахс, тадбиркор шахси, ҳуқук, ҳуқуқий маданият, тадбиркорлар қатлами, ноиқтисодий омиллар.

Мавзунинг ўрганилиш даражаси. Ўтган асрнинг 90-йилларида жаҳонда рўй берган оламшумул ўзгаришлар, хусусан, собиқ совет бошқарув тизимининг умуй инқирозга учраши, советлардан кейинги маконда мустақил демократик давлатларнинг пайдо бўлиши, бозор муносабатларининг шаклланиши, жамиятнинг социал структурасида тадбиркор ва мулкдорлар синфининг шаклланиш жараёни жамиятшунос, иқтисодчи олимлар, файласуфлар, ҳуқуқшунослар ва сиёсатшуносларнинг тадқиқот объектига айланди. Мустақил Ўзбекистоннинг бозор муносабатларига ўтиш жараёни жуда мураккаб ва зиддиятли кечди. Худди собиқ совет замонида бўлгани каби мустақиллик йилларида ижтимоий-иқтисодий, илмий ва ҳоказо муаммоларни ҳолис ўрганишга имкон берилмади.

Ҳолбуки, “тадбиркорлик”, “тадбиркор”, “тадбиркорлар қатлами” сингари тушунчаларнинг моҳияти ва мазмуни россиялик тадқиқотчилар А. В. Валенский, А. Ю. Чепуренко (2), В. Гимпельсон (3), В. В. Радаев (4) асарларида, жамоавий монографик тадқиқотлар (5, 6)да қизғин муҳокама қилиняпти. Жумладан, Т. И. Заславская тадбиркорликни тор (илмий) ва кенг (омма) маънода тушуниш лозимлигини таклиф қилди. Унинг фикрича, тор (илмий) маънодаги тадбиркорлик тадбиркорлик фаолиятининг барча таянч белгиларига эга бўлган ва унинг ядросини ташкил этадиган “янги ижтимоий қатлам” ни тушунишни, кенг маънодаги тадбиркорлик деганда эса барча даражадаги бизнес билан шуғулланадиган корхона, банк, фирма эгаларидан тортиб то ёлланма ишчиларгача бўлган янги қатламни тушунишни таклиф қилди ва кенг маънодаги тадбиркорликни “бизнес қатлам” деб атади (7).

Тадбиркорлик янги шаклланаётган ижтимоий қатлам сифатида тадқиқотчилар эътиборини торта бошлади. “Россия социологик энциклопедияси” да тадбиркорликка қуйидагича илмий таъриф берилди: “Тадбиркорлик – халқ хўжалигининг барча соҳалари (моддий неъматлар ишлаб чиқариш, тижоратдаги воситачилик, савдо-сотиқ билан шуғулланиш, консультациялар бериш, янгиликлар яратиш, қимматли қоғозлар операцияларини амалга ошириш ва ҳ.о.) да фаолият кўрсатишнинг қонунда таъқиқланмаган турли шакллари билан шуғулланишдир” (8, 402-403).

Тадқиқот усуллари: анализ ва синтез, қиёслаш, ҳолислик, креативлик, танқидий ёндашув, далиллаш

Тадқиқот натижалари.

Тадбиркорлик фаолияти ҳамма замонларда шахс эркинлигининг зарур шarti ва муҳим омили сифатида жамият равнақи ва фаровонлигини таъминловчи умумбашарий кадрият бўлиб келди. “Айрим шахснинг фаолияти фақат шу шахсгагина эмас, балки бошқа шахсларга ҳам фойда келтирса, ижобий баҳоланади. Айниқса, тадбиркорлик соҳасида иккала томон ҳам ўзаро манфаатдор бўлиши керак. Кўпчилик одамларнинг манфаатдор бўлиши тадбиркорликнинг ривожига ва жамиятнинг гуллаб-яшнашига олиб келади” (9, 261).

Янги Ўзбекистон номини олган мамлакатимиз тараққиётининг ҳозирги босқичида яқин хорижий мамлакатлар, хусусан, россиялик олим ва файласуфларнинг тадбиркорлик фаолияти, тадбиркор шахсини шакллантиришнинг ноиқтисодий омилларини ўрганиш борасида эришган илмий натижаларини танқидий таҳлил қилиш долзарб ва муҳимдир

Мамлакатимизда тадбиркорлик фаолияти ўзининг узоқ ва машаққатли тарихига эга. Ўрта Осиё халқлари ҳаётида тадбиркорлик фаолияти тушунчаси фақат даромад олиш, тирикчилик ўтказиш, рўзғор тебратиш воситасигина эмас, балки ўзига хос қобилият, истеъдод, билим, маҳорат ва гўзал ахлоқий фазилатлар (ҳалоллик, ростгўйлик, мардлик, олийҳимматлик, одавийлик ва ҳ.о.)ни талаб қиладиган машаққатли ва айни вақтда савобли, шарафли фаолият туридир. Буюк Ипак йўлининг Марказий Осиё минтақасидан ўтиши, Амир Темур тузукларида тадбиркорликнинг ижтимоий-иқтисодий фаровонликни таъминлашдаги аҳамиятининг таъкидланиши ва Ибн Холдун сингари жаҳонга машҳур шарқ олимлари асарларида илгари сурилган ғоялар – ана шуларнинг ҳаммаси юртимизда тадбиркорликни ривожлантиришнинг муҳим маънавий омилларидир. Тарихий манбаларда қайд этилишича, қайси давлатда тадбиркорлик ривожланган бўлса, ўша юртда марказлашган ҳокимият, муайян даражадаги фаровонлик, илм-фан ривожланган.

Ғарбий Европада шаклланган либерализм ғоялари, шахс эркинлигининг қадрланиши, хусусий мулкнинг дахлсизлиги, эркин бозор, эркин рақобат ва эркин тадбиркорлик, ҳамманинг қонун олдида тенглиги, барча граждандарга тенг имкониятлар яратилиши, ҳокимиятларнинг бўлиниши, қонун устуворлигининг таъминланиши, ҳуқуқий давлатнинг барпо этилиши, шахс ҳуқуқлари ва эркинликларининг қафолатланиши - ана шуларнинг барчаси Ғарб мамлакатларида тадбиркорликнинг ривожланиши учун қулай имконият яратди. Шу маънода буюк инглиз файласуфи Жон Локкнинг қуйидаги фикрлари эътиборга лойиқдир: “Ҳар биримиз, ўз ҳуқуқларимизни ҳимоя қилишимиз борасида..., бошқа кишиларнинг ҳуқуқларини ҳам имкон қадар ҳурмат қилишимиз даркор” (11, 8) Ўша даврда шаклланган бундай қарашлар жамиятда тадбиркорликнинг ўзига хос мақомга эга бўлишида муносиб ўринни эгаллаган. Ана шундай илғор ғоялар туфайли жамият коллективизмдан индивидуализмга ўтиш ва шахс ҳуқуқларини мустаҳкамлаш сари дадил қадам ташлаган. Демократик давлат либерализм, рационализм, плюрализм, шахс эркинлиги принциплари устига қурилар экан, бозор муносабатлари шароитида савдо-сотиқ ва саноатни бошқаришга ҳалақит бермаслиги, балки уни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаши керак. Янги замон либерализм тарафдорлари инсоннинг иқтисодий, шахсий ва интеллектуал эркинлиги, мақсад ва манфаатларини амалга ошириш йўлида тенг имконият ва ҳуқуқларга эга бўлиши учун курашдилар. Бу эса тадбиркорлик фаолияти субъектларининг қобилият ва истеъдодларининг гўлароқ намоён бўлишига олиб келди.

Бинобарин, мазкур ғоя Европага тадбиркорлик ва бизнес йўлидан ҳар қандай тўсиқларни олиб ташлашни талаб этди. Шундай қилиб, либерализм вакиллари эркинлик бўлмаган ерда тадбиркорлик фаолияти ривожланмаслигини ҳар томонлама асослаб бердилар.

Умуман олганда, либерализм догматизм, схематизмга зид тафаккур тарзидир. Унда ўзгармас, бир хил меъёр ва қоидалар йўқ. Либерализм ғоялари тобора такомиллашиб борди. У ўз вазифасини ўтаб бўлган ижтимоий-сиёсий институт, меъёр ва кадриятларни қайта кўриб чиқиш, ҳатто уларни ўзгартиришдан ҳам қўрқмади. Либерализм вакиллариининг кўпчилиги классик меросни янги шароитда такомиллаштириш билан фаол шуғулландилар. Буюк немис

файласуфи Макс Вебер “Социологизм доирасида норма сифатида неокантизм қиймат тушунчасининг тамойилларини шакллантирди, кейинчалик у ижтимоий-рационал ҳаракатлар назарияси ва тегишли билимларнинг асосига айланди” (12, 204) ҳамда либерализм ва рационализмнинг ижтимоий уйғунлашуви истиқболини очиб берди. Кейинчалик либерализм тушунчаси Толкотт Парсонснинг “таркибий ва функционал таҳлил” назарияси доирасида ижтимоий алоқаларни ва ижтимоий институтларнинг ишлашини аниқлаш воситаси сифатида умумлаштирилган услубий маънога эга бўлди” (13,157).

Бизнингча АҚШ, Европа, ҳатто баъзи Шарқ мамлакатларида мазкур ғоявий йўналишлар асосида қўлга киритилган ижобий натижалардан рационал фойдаланиш ижобий натижалар бериши мумкин. Шу ўринда Сингапурнинг собиқ бош вазири Ли Куан Юнинг “Ҳар бир инсон жамоатчилик бойлигидан адолатли улуш олиш ҳуқуқига эга бўлган социализмга ишонардик. Кейинчалик иқтисодий муваффақиятли ривожлантириш учун иш натижасидан шахсий манфаатдорлик ва меҳнатни мукофотлаш ҳам жуда муҳим эканлигини англаб етдик” (14, 56), - деган фикрларидан жаҳонда катта шов-шувга сабаб бўлган “Сингапур мўжизаси”нинг омилларини кўриш мумкин.

Собиқ Шўролар ҳукмронлиги даврида мамлакатимиз ижтимоий-иқтисодий ҳаётида мулкнинг танҳо давлат ихтиёрида бўлиши, хусусий мулкчилик ва фуқароларнинг хусусий тадбиркорлик фаолиятига йўл қўймаслик, ҳар бир одамнинг ҳаёти ва меҳнати тўлалигича давлатга қарамлиги, ҳуқуқсизлик ва эрксизлик, ягона коммунистик мафкурага асосланган сиёсий тоталитаризмнинг ҳукмронлиги, бозор механизмнинг йўқлиги оқибатида туғилган товар тақчиллиги социалистик тузумни умумий инқирозга олиб келди. Зўрликка таянган бундай муносабатлар асрлар давомида такомиллашиб келган иқтисодий ва ҳуқуқий муносабатлар ва кўникмаларни барбод қилди. Тарихий тажриба сиёсий зулм ва зўравонлик устига қурилган бошқарув тизими муқаррар равишда инқирозга учрашини тўла тасдиқлади.

Кишилиқ тарихининг турли ижтимоий тузумларида зўравонлик, тоталитаризм, авторитар бошқариш усуллариининг амал қилиши натижасида меҳнатнинг ижтимоий қадр-қимматиға путур етди. Ўз меҳнати маҳсулидан тегишли даражада манфаат кўра олмаган меҳнаткаш халқ ҳаётида бегоналашув юзага келди. Совет бошқарув тузуми хусусий мулкни зўравонлик йўли билан йўқ қилиб, инсон табиатиға зид тенглик ғоясини зўравонлик билан тарғиб этиб, эркин ва адолатли жамиятни барпо этмоқчи бўлди. Бу ғояға кўра жамиятдаги барча шахс ҳуқуқ ва мавқе жиҳатдан тенг бўлиб, мулкдор бўлишға даъво қилмаслиги зарур эди. “Умумхалқ мулки” деган тушунча шу тариқа пайдо бўлди, уни худди ўз шахсий мулки каби авайлаб-асрашға даъват этилди. Мулкдорларға, ҳатто ўрта ҳол кишиларға қарши кураш тез орада фаровон яшашға қарши курашға айланди. Натижада бирёқлама, ғайриинсоний сиёсат туфайли шахс мулкдан, ўз меҳнати маҳсулидан, ўз “Мен”лигидан, инсонийликдан маҳрум бўлди. Бошқача айтганда, мантиксиз вазият юзага келди, яъни, фуқаролар “ўз манфаати” дан воз кечиб, “умумхалқ манфаати учун” ишлашға мажбур бўлдилар. Бу мулкни сақлаш ҳамда уни янада ривожлантириш учун сунъий мусобақа ғолиблари, социалистик меҳнат қахрамонлари яратилди.

Ижтимоий тараққиётнинг бундай сунъий ривожланиши оқибатида ташаббус ва ташаббускорлик сўнди, малакали меҳнат унутилиб, унинг ўрнини ишёқмаслик, лоқайдлик,

боқимандалик психологияси эгаллай бошлади. Ишлаб чиқаришда меҳнат қиладиганларга нисбатан бошқарувчиларнинг сони ортиб кетди. Шахс ички имкониятлари, салоҳияти, ташаббусига нисбатан лоқайдлик пайдо бўлди, ҳатто ташаббускорликни бошқалардан ажралиб туриш деб талқин қилиш одатий тус олди. Оқибатда ташаббускор шахс интилишлари, хатти-ҳаракати оммага кулгили, ҳатто зарарли кўринадиган бўлиб қолди. Оқибат шунга олиб келдики, “Собиқ Иттифок даврида инсоннинг ўзида бўлган ишонч ва қобилиятларини рўёбга чиқариш даражаси унча юқори эмас эди. Мутахассисларнинг таъкидлашича, ўша даврда киши ўз ички салоҳиятининг атиги 3-4 фоизини ишга солиш имкониятига эга бўлган. Ҳолбуки, бу кўрсаткич ривожланган хорижий мамлакатларда 7-9 фоизни ташкил этар эди. Бизда эса боқимандалик кайфияти ҳукмрон эди.” (15, 5)

XX асрнинг 80-йиллари ўрталарида “Қайта куриш” шиори остида инсон омили масаласи кун тартибига чиқди, бу сиёсат орқали жамият тараққиётини жадаллаштириш ғояси илгари сурилди. Бироқ инсон омили замирида шахснинг ижтимоий-иқтисодий фаоллиги ётиши, бу фаоллик даражаси ва кўлами жамият ва шахс манфаатларининг муштарақлигига боғлиқлиги ҳисобга олинмади. Оқибатда инсон омили куруқ шиор бўлиб қолаверди ва кутилган натижани беролмади.

Тадбиркорлик масаласи бизнинг мамлакатимизда собиқ хўжалик алоқаларининг маънавий андозалари ўзилаётган, меҳнат бозоридаги вазият кескинлашаётган, ўтиш даврига хос иқтисодий танглик, пулнинг қадрсизланиши юз бериб, турмуш даражаси пасайиши содир бўлган бир пайтда кун тартибига қўйилди. “Халқ манфаати”, “давлат манфаати”, “умумхалқ мулки” каби тушунчалар таъсирида вояга етган фуқаролар тадбиркорлик ҳақидаги фикр-мулоҳазаларга, айтиб ўтиш лозимки, дастлаб ишончсизлик кўзи билан қаради, уни навбатдаги компаниябозлик шиори сифатида қабул қилганлар ҳам бўлди.

Ўзбекистоннинг янги тараққиёт босқичида бозор муносабатларини мустаҳкамлаш, соғлом рақобатчилик муҳитини таркиб топтириш, эркин тадбиркорлик фаолияти учун кенг имкониятлар яратилаётганлиги, ушбу фаолиятни тартибга солиш учун норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг мустаҳкамланиб борилаётгани, айнан шу қонунларга риоя қилган ҳолда аҳоли, айниқса тадбиркор шахс ҳуқуқий маданияти ҳам ўзгаради. Бундай жараён эса фақат рақобатга бардош беришга интилиш бор жойдагина юз беради. Рақобатга бардош бериш учун ишлаб чиқаришни доимий равишда янгиллаб боришга, зарур шарт-шароитни яратишга тадбиркорлик фаолияти субъектларининг ўзлари мажбур бўладилар.

Тадбиркор ким ва тадбиркорлик нима? У халқимиз тарихи, менталитети, ижтимоий ҳаёти, маданияти ва маънавияти, иқтисодиётида қандай ўрин тутади?

Мазкур саволларга жавоб берганда, гапни тадбиркорликнинг халқимиз табиатида хос ва мос устувор фазилатлардан бири эканини таъкидлаш мақсадга мувофиқдир.

Тадбиркор - ўз ишининг устаси, эпчил, уddaбурон шахс, ишбилармон инсон. Халқимиз ибораси билан айтганда, бундай шахс ишнинг кўзини билади, фаолиятига тўғаноқ бўлиб турган тўсиқларни енгиб ўтишнинг уддасидан чиқа олади, ақлий меҳнат қилиб, кўп фойда олишни яхши билади. У сабот-матонатли, мустаҳкам иродали, собитқадам, мард ва олийҳиммат шахс. Ушбу фазилатлардан келиб чиққан ҳолда айтиш мумкинки, тадбиркор шахс - таваккал қилиб иш кўришга мойил. Таваккалчилик, ўз навбатида, унда мардлик,

тантилик, қўли очиклик, жўмардлик, меҳр-мурувватлилик ҳис-туйғуларини тарбиялайди. Шунинг учун ҳам қадимда ишбилармон ва тадбиркор одамлар халқимиз томонидан доимо эъзозланган, ҳурмати жойига қўйилган, ҳатто халқ оғзаки ижоди намуналарида бу каби уддабурон, эпчил ва ҳозиржавоб, мардқишиларнинг жозибали бадий образлари яратилган. Мазкур масалага Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг: “Аҳолида тадбиркорликка оид зарурий кўникмаларни шакллантиришга қаратилган ўқитиш тизимини такомиллаштириш, мазкур жараёнга халқаро ташкилотлар, нодавлат нотижорат ташкилотлар ва нодавлат таълим ташкилотларини янада кенг жалб қилиш зарур”, (16, 145) - деган фикрлари муҳим методологик аҳамиятга моликдир.

Тадбиркор шахс инсоният цивилизацияси, тараққиёти даврларида, яъни адолат мамлакатни бошқаришнинг бош мезони бўлган, халқ тинчлиги, фаровонлигига катта эътибор қилинган, тадбиркорлик ва бунёдкорлик тамойиллари қўллаб-қувватланган тарихий босқичларда илғор фикрли, инсонпарвар ва раиятпарвар давлат арбоблари томонидан тадбиркорлик муносиб баҳоланиб, бундай шахсларнинг меҳнатига яраша тақдирланган. “Тадбиркорлик ва унга ҳамроҳ бўлган фаолият шакллари ва иқтисодий категориялар шахс билан бирликда кўриб чиқилди. Тадбиркор ҳар доим алоҳида шахс бўлиб, пулга, мулкка ва савдога бўлган муносабат, мутафаккирларнинг фикрига кўра, ушбу шахснинг фазилатларига боғлиқ эди,” (16, 10) – деган фикрни “тадбиркор” ва “шахс” тушунчаларини бир-бирини тўлдирувчи ва тақозо этувчи тушунчалар сифатида кўришимиз мумкин. Буюк давлат арбоби Амир Темур айтгандек: “Ишбилармон, мардлик ва шижоат соҳиби, азми қатъий, тадбиркор ва ҳушёр бир киши, минглаб тадбирсиз, лоқайд кишилардан яхшидир” (17, 10-11).

Бинобарин, Амир Темурнинг ўзи биринчи навбатда тадбиркор бўлган, давлат ишларини юритишда тадбиркорликни қатъий қарор ва ҳушёрлик билан уйғун ҳолда олиб бориш мақсадга мувофиқлигини яхши англаган, бунёдкорлик ғоялари билан яшаб, оталардан мерос қолган она тупроқни озод ва обод қилишни ўз миллатдошлари, ватандошлари, аждодлари руҳи олдидаги муқаддас бурчи деб билган. Демак, тадбиркор шахс тушунчаси тарихан таркиб топган ижтимоий тушунчалардан бўлиб, турли даврларда турлича ном ва атамалар билан атаб келинган, моҳиятига кўра, асосан бир маънони ифодалаган, яъни ишбилармон, ўз ишининг моҳир устаси бўлган соҳибкор шахсдир.

Тадбиркор фақат бозор муносабатлари шаротида қандайдир маҳсулот ёки иш кучининг етишмаслигига эмас, балки уларни ҳаддан ташқари кўплигига ҳам тезлик билан эътибор берадиган зехнли, ижтимоий воқеликка фаол ва ҳозиржавоб шахс ҳамдир.

Тадбиркорлик-чи? “Тадбиркорлик фаолияти кишиларнинг таваккал қилиб, мулккий жавобгарлик асосида қонунчилик доирасида ташаббус билан фаолият кўрсатишидир. Бу фаолият капитал ва ресурслардан оқилона фойдаланиш орқали кўзда тутилган мақсад - фойда ёки тадбиркорлик даромадини олишга қаратилади. Бозор иқтисодиёти эркин тадбиркорликка, соҳибкорликка асосланган иқтисодиётдир. Шунинг учун ҳам тадбиркорлик фаолиятининг шаклланиши ва ривожланиши учун иқтисодиётда бозор муносабатлари ҳукмрон бўлиши лозим. Бошқача қилиб айтганда, тадбиркорлик фаолиятининг ривожланиши учун иқтисодий фаолиятда эркинлик тақозо этилади”. (18,146)

Юкорида келтирилган қатор асос ва сабабларга кўра, бозор муносабатлари ва мулк дахлсизлигига асосланган, янги Ўзбекистонда эркин тадбиркорликни, соҳибкорликни ривожлантиришга катта аҳамият берилмоқда ҳамда шаклланаётган мулкдорлар синфининг муҳим бўғини бўлган тадбиркорликни ҳар жиҳатдан қўллаб-қувватлашга оид қонун ва қарорлар қабул қилинмоқда. Кейинги йилларда қабул қилинган мазкур юридик ҳужжатлар асосий Қонунимиз бўлган янги таҳрирдаги Конституциямиздаги бир қатор моддаларнинг узвий ва мантиқий давоми бўлди. Жумладан, 41-моддада: “Ҳар бир шахс мулкдор бўлишга ҳақли...” (19, 23), бундан ташқари 65-моддада қайд этилишича:

“Фуқаролар фаровонлигини оширишга қаратилган Ўзбекистон иқтисодиётининг негизини хилма-хил шакллардаги мулк ташкил этади. Давлат бозор муносабатларини ривожлантириш ва ҳалол рақобат учун шарт-шароитлар яратади, истеъмолчиларнинг ҳуқуқлари устуворлигини ҳисобга олган ҳолда иқтисодий фаолият, тадбиркорлик ва меҳнат қилиш эркинлигини кафолатлайди”.

Монопол фаолият қонун билан тартибга солинади ва чекланади”.

Бундан келиб чиқадики, тадбиркорлик мустақил ва ўзига хос ташаббус, новаторлик билан иш юритувчи шахс ёки ижтимоий гуруҳ фаолияти бўлиб, табиатан турли шакл ва усулдаги аралашувларни, маъмурий буйруқбозликни ёқтирмайди. Унинг шаклланиши ҳамда кенг кулоч ёйиши учун албатта бир қатор эркинликлар зарур бўлади. Булар - мулкчилик шакллариининг хилма-хиллиги, иқтисодий фаоллик йўналишлари, ишлаб топилган маблағдан фойдаланиш усуллари мундарижасидаги мустақиллик ҳамда эркин ҳаракатдир. Ўзбек халқи мустақилликка эришгач, бозор муносабатларига асосланган иқтисодиёт юритиш йўлини танлади. Бозор муносабатларини ташкил этиш - бу шунчалик оддий иш эмас, балки ўта мураккаб, қутилмаган натижаларни келтириб чиқарадиган, давлат раҳбаридан аниқ ҳисоб-китобни, зукколикни, шижоатни, улкан маънавий жасоратни талаб этадиган, мамлакат ҳаётида катта тарихий бурилиш ясайдиган масъулиятли ишдир.

Ана шундай масъулиятни ўз зиммасига олган Ўзбекистон ҳукумати бозор муносабатларига асосланган яшил иқтисодиётни ривожлантирар экан, бажарилиши лозим бўлган ишларнинг биринчилари қаторида мулкни давлат тасарруфидан чиқаришни кенгайтириш асосида мулкдорлар синфини қўллаб-қувватлаш масаласига диққат-эътиборни қаратди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. М. Мирзиёев “Такрор ва такрор айтаман, ишни кўзини биладиган, одамларга меҳнат қилиш ва даромад топиш учун шароит яратадиган, ватанпарвар ҳамда фидоий тадбиркорларни биз доимо бошимизга кўтарамиз...”(20,44), - деган эди. Бинобарин, тадбиркорликнинг табиати жамиятда ижтимоий, иқтисодий ва сиёсий барқарорликни таъминлашни тақозо этади.

Айни пайтда унинг ўзи барқарорликни таъминлаш ва сақлаб қолишнинг муҳим омилидир. Жамиятдаги конфликтли вазиятлар, фуқаролар ва турли ижтимоий гуруҳлар ўртасидаги ҳар қандай келишмовчиликларнинг мавжуд бўлиши унинг прогрессив, динамик ривожланишига ҳалақит беради.

Тадбиркорлик бирон-бир субъект томонидан тартибга солиниб турилса--да, лекин тасодифлардан ҳоли бўлиши мумкин эмас. Тадбиркор бу тасодифларни албатта ҳисобга олиб, иш юритиши кўп ҳолларда муваффақиятнинг гарови ҳисобланади. Дарҳақиқат,

тадбиркорликнинг қонунлари, принциплари ва қоидалари кишилар томонидан ўз вақтида қанчалик чуқур эгалланса, шунчалик хатарга кам йўлиқиши, йўлиққан тақдирда ҳам ундан кам талофатлар билан чиқиши мумкин.

Тадбиркорлик шакллари қуйидагилардан иборат:

Якка тартибдаги фаолият;

Ёлланма меҳнатни жалб этиш асосида амалга ошириладиган тадбиркорлик;

Бир гуруҳ фуқаролар, юридик шахслар томонидан амалга ошириладиган жамоа тадбиркорлиги ёки ҳамкорликдаги тадбиркорлик.

Тадбиркорлик инсон фаолиятининг ўзига хос шакли бўлиб, иқтисодий фаолият юритишда, меҳнатни якка тартибда ташкил қилишда ёлланма меҳнатни жалб этиш, ҳамкорликдаги тадбиркорлик сингари шаклларни ўз ичига қамраб олади.

Якка тартибдаги тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш деганда мулкчилик субъектларининг иқтисодий фаолиятининг у ёки бу тури бўйича мустақил тарзда тадбиркорлик билан шуғулланиш тушунилади. Бу шаклдаги тадбиркорликни амалга оширишда субъект сифатида фақат фуқаролар катнашади. Фуқароларнинг якка тартибдаги меҳнатига асосланган тадбиркорлик шаклининг кўп қўлланилиши туфайли уларга ҳар томонлама ёрдам кўрсатиш айниқса муҳимдир.

Якка тартибдаги меҳнат фаолияти хусусий тадбиркорлик шаклларида бири бўлиб, фуқаролар бундай фаолият билан юридик шахс (ўз мулкига эга бўлган, бириктириб қўйилган мол-мулкига нисбатан тўла хўжалик юритиш ёки оператив бошқариш ҳуқуқига эга бўлган, ўз ҳуқуқларига эга бўладиган, судда даъвогар ва жавобгар бўлиб қатнаша оладиган ташкилот) мақомини олмасдан шуғулланадилар. Бундай тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиши учун туман, шаҳар ҳокимиятлари томонидан рухсатнома берилади.

Хусусий тадбиркорлик бу амалдаги қонунлар доирасидаги ташаббускорлик билан хўжалик юритиш шакли бўлиб, бу фаолиятни эркин фуқаролар даромад олиш мақсадида, таваккал қилиб, мулккий жавобгарликни ўз зиммасига олиб, ёлланма ишчи кучидан фойдаланиб амалга оширади.

Хусусий тадбиркорлик юридик шахс мақомини олмасдан шуғулланадиган якка тартибдаги тадбиркорлик фаолиятини ҳам ўз ичига олади.

Ҳамкорликдаги тадбиркорлик шаклида мулкчиликнинг турли субъектлари қатнашиши мумкин. Ҳамкорликдаги тадбиркорлик асосида биринчидан, юридик ва жисмоний шахслар ўз мулкларини, иккинчидан эса мулккий ҳуқуқларини бирлаштириши зарур. Бунда мулкчилик субъектларининг турли хил бўлишига қарамадан, битта иқтисодий тадбиркорлик фаолиятини мақсад қилиб қўйган ҳолда мол-мулкни нисбатан эгаллаш, ундан фойдаланиш, тасарруф қилиш ҳуқуқларини амалга оширади.

Тадбиркорлик ишлари тижорат, ишлаб чиқариш ёки молиявий йўналишларда амалга оширилиши мумкин. Ишлаб чиқариш йўналишидаги тадбиркорлар товар яратиш, хизматини бажариш, ахборот тўплаб бериш, харидорнинг маънавий қадриятларга бўлган эҳтиёжини қондириш каби фаолият шакллари билан шуғулланадилар. Бунда ишлаб чиқариш ёки хизмат тури бевосита амалга оширилади.

Тижорат фаолиятини юритувчи тадбиркорлар товар-пул муносабатларига оид савдо-сотиқ ва битимлар тузиш билан шуғулланадилар. Асосий вазифа товар сотиш ёки истеъмолчига хизматлар кўрсатишдир.

Молиявий тадбиркорликда тадбиркорнинг ўзи қимматбаҳо қоғозларни ташкил этиши мумкин. Молиявий тадбиркорлик валюта ва қимматбаҳо қоғозларнинг истеъмолчига тўла сотиш билан яқунланади.

Тадбиркор ўз хоҳиш-иродаси ва фаолиятини эркин амалга ошириши учун ижтимоий тараққиёт қонунларини билиши ва ўз фаолиятини унга тўлиқ мувофиқлаштириши керак. Шу маънода, тадбиркор ўзи яшаётган жамиятни ривожлантириш мақсадида, ижтимоий-иқтисодий ва ҳуқуқий қонунларни билиши талаб қилинади.

Кейинги йилларда Ўзбекистонда тадбиркорликни жадал ривожлантиришга қаратилган муҳим чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Бунга мисол сифатида Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузурида махсус Иқтисодий ислоҳот, тадбиркорлик ва чет эл инвестициялари бўйича Идоралараро кенгаш тузилганлигини кўрсатиш мумкин. Зеро, кенгаш фаолиятининг асосий вазифалари ва йўналишлари ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг ягона стратегиясини ҳамда бу стратегияни рўёбга чиқаришнинг амалий чора-тадбирларини ишлаб чиқиши билан алоҳида ажралиб туради. Шунингдек, у иқтисодий ислоҳотларнинг, хусусан тадбиркорликнинг ҳуқуқий негизини такомиллаштириш юзасидан тавсиялар тайёрлайди, республикада иқтисодий ўзгаришларнинг аниқ моделлари ва дастурларини ишлаб чиқади, тадбиркорликни ривожлантиришнинг аҳволини таҳлил қилади, чет эл инвестицияларини фаол жалб этиш чоралари тизимини белгилайди.

Бизнинг фикримизча, тадбиркорлик шахснинг ишбилармонлик асосида, бирор лойиҳа ёки қарор тайёрлаши, уни қабул қилиш, тадбиркорликка оид қонун-қоидалар ва принциплар ишлаб чиқиши, бизнес ахборот алмашиш воситасида ижтимоий – иқтисодий жараёнларга мақсадли таъсир кўрсатиш фаолиятидир. Ўз навбатида тадбиркорлик тарихий зарурат туфайли доимо такомиллашиб боради. Шу ўринда таъкидлаш жоизки, Ўзбекистонда бозор муносабатларига ўтиш даврида давлат бош ислоҳотчи сифатида бутун ислоҳотлар жараёнини давлат ва жамият манфаатидан келиб чиқиб бошқарган эди. Президент Ш. Мирзиёев эса давлат эмас, балки “халқ-бош ислоҳотчи” ғоясини илгари сурмоқда. Кейинги йилларда Ўзбекистонда тадбиркорликни ривожлантириш соҳасидаги фаолият халқаро ҳамжамят томонидан ҳам эътироф этилмоқда, “Жаҳон банкининг “Бизнес юритиш” рейтингида 7 поғона кўтарилиб, бизнесни рўйхатга олиш кўрсаткичи бўйича дунёнинг 190 та давлатлари орасида Ўзбекитон 8-ўринни эгаллади ва энг яхши ислоҳотчи давлатлар қаторида жой олди” (21,8) каби кўрсаткичлар бунинг ёрқин ифодаси бўлди.

Таҳлил натижалари шуни кўрсатадики, иқтисодий муносабатларда эркин тадбиркорликнинг вужудга келиши асрлар давомида шаклланган жамоа ҳаёти ва хусусий ҳаёт тизимларининг бир-биридан ажралишига олиб келди. Кейинчалик эса “тадбиркор шахс” тушунчаси давлат миқёсидаги иқтисодий муносабатларни ривожлантиришдаги асосий субъект сифатида эътироф этила бошлади. Бизга маълумки, “Фуқаролар фаровонлигини оширишга қаратилган Ўзбекистон иқтисодиётининг негизини хилма-хил шакллардаги мулк ташкил этади. Давлат бозор муносабатларини ривожлантириш ва ҳалол рақобат учун шарт-

шароитлар яратади, истеъмолчиларнинг ҳуқуқлари устуворлигини ҳисобга олган ҳолда иқтисодий фаолият, тадбиркорлик ва меҳнат қилиш эркинлигини кафолатлайди...”(22,8). Бундай қонуний асос тадбиркорликни ривожлантиришдаги асосий ҳуқуқий норма ҳисобланади. Буларни ҳар бир тадбиркор чуқур билиши ва тез суръатда ўзлаштириши керак бўлади. Бунинг учун тадбиркордан ҳуқуқий саводхонлик билим ва маданият талаб қилинади.

Ҳуқуқий маданият-назарий билимларни амалда қўллаш, шу жараёнда тадбиркор шахснинг камол топишида яққол намоён бўлади.

ХУЛОСА

1) Ҳуқуқий маданият бошқариладиган жараён экан, тадбиркор шахс ҳуқуқий маданияти ўсиб бориши ҳамда муайян ижтимоий - иқтисодий тузум ўзгариши билан бу жараён такомиллашиб боришини назарда тутмоқ керак. Шунга кўра, 2) ушбу ижтимоий-иқтисодий масалани илмий-назарий томондан таҳлил қилиш, фалсафий умумлаштириш, табиийки, амалиёт учун дастуриламал вазифасини ўтайди. Демак, унинг пировард мақсади маънавий мақсадларга, яъни тадбиркор шахсини камол топтиришга қаратилиши керак. Шуларни назарда тутиб, “Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш миллий Дастури”дан келиб чиқиб, тадбиркор шахс ҳуқуқий маданиятининг такомиллашувида қуйидагиларга эътибор бериш зарур деб ҳисоблаймиз:

- *биринчидан*, давлат ҳуқуқий тарбия ва таълимнинг асосий ташкилотчиси сифатида таълим ва тарбиянинг усуллари ва воситаларини, бу фаолият билан бевосита шуғулланаётган муассасалар структурасини мунтазам равишда такомиллаштириб боради, ҳуқуқий тарбия ва ҳуқуқий таълимнинг муқобил тизимларини шакллантиришга ёрдам берар экан, тадбиркор шахс фаолиятида бу жараён муҳим аҳамият касб этади.

- *иккинчидан*, аҳоли, хусусан, тадбиркор шахс ҳуқуқий маданиятини ошириш борасида давлат тузилмалари ва жамоат бирлашмаларининг кенг ҳамкорлигини таъминлаш зарур. Бунинг учун, аввало, уларнинг ўзаро ҳамкорлигига оид янги лойиҳа, дастур ва шартнома талаблари ишлаб чиқирилиши зарур;

- *учинчидан*, ушбу фаолиятни мувофиқлаштириш, кечиктириб бўлмайдиган ва истикболдаги вазифаларни аниқлаш Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ва юристлар иштирокидаги нодавлат ташкилотлар, бирлашмалар фаолиятининг энг муҳим йўналишларидан бири бўлиб қолган экан, тадбиркорлик билан шуғулланувчи субъектлар фаолиятига улар ҳам жавобгардир.

- *тўртинчидан*, ҳуқуқий тарбия ва таълимнинг таълим-тарбия муассасалари томонидангина эмас, балки ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар, давлат органларининг ва корхоналарнинг, шунингдек, маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг юридик хизматлари ходимлари иштирокида ҳам амалга оширилиши назарда тутилган экан, уларнинг тадбиркор шахс билан ўзаро ҳамкорлигини кучайтириш ҳамда ўзаро ишонч туйғусини шакллантириш лозим бўлади;

- *бешинчидан*, тадбиркорларнинг ҳуқуқий тарбияси ва ҳуқуқий таълими тизимини такомиллаштиришда давлат юридик ўқув юртлари, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар,

илмий-тадқиқот институтлари, ҳуқуқшунос олимлар ва бошқаларни жалб қилиш ҳамда бу жараёнда юридик ўқув юртларининг моддий-техника негизини мустаҳкамлаш керак.

Тадбиркор шахс ҳуқуқий маданиятини юксалтириш узлуксиз жараён бўлиб, у ҳамиша илгари қўлга киритилган ютуқ, тўпланган тажрибалардан сабоқ ва андоза олади, бошқача айтганда, тадбиркор шахс ҳуқуқий маданияти доимо унинг ўзи мансуб бўлган халқ маданий мероси, ҳуқуқий қарашларига узвий боғлиқ ҳолда, диалектик уйғунликда воқе бўлади.

Таъкидлаш жоизки, ҳар қандай мамлакатда демократия қай даражада эканлигини белгиловчи камида учта мезон бор. Булар: 1) халқнинг қарорлар қабул қилиш жараёнларидан қанчалик хабардорлиги; 2) ҳукумат қарорлари халқ томонидан қанчалик назорат қилиниши; 3) фуқароларнинг давлатни бошқаришда қанчалик иштирок этишидир. Президент Ш. Мирзиёев асарларида фуқароларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, улар ҳуқуқий маданиятини юксалтириш, фуқароларнинг сиёсий жараёнларда иштирок этишини таъминлаш масалалари нақадар муҳим эканлигини алоҳида таъкидланган. Бинобарин, мазкур фикрлардан келиб чиқиб, олий ўқув юртларида ўрганилаётган “Фалсафа” фани юзасидан кенг ва атрофлича билим беришга ҳаракат қилиш, амалдаги мавжуд қонунларга ва қонунчиликка мунтазам мурожаат қилган ҳолда ҳар бир мавзу бўйича коллоквиумлар ўтказишга алоҳида аҳамият бериш айниқса муҳимдир.

Бизнингча, фуқароларнинг ҳуқуқий маданиятини юксалтириш давлат сиёсатини белгиловчи бош мезонлардан биридир, зеро “мустақиллик” тушунчаси замирида фақат давлат мустақиллигигина эмас, балки инсон ҳуқуқлари ва шахс эркинликларининг тўла рўёбга чиқиш ғояси ётади. Ҳуқуқ - жамиятни тартибга солувчи куч бўлиб, у жамиятдаги шахсларнинг ҳуқуқ-атвори, юриш-туриши, ҳаёт ва турмуш тарзи қандай бўлишини белгилайди. Ҳуқуқ - масъулият демакдир. Ҳуқуқий онг - ижтимоий онг шаклларида бири, ҳуқуқий маданиятнинг таркибий қисми, фуқароларнинг қонунга нисбатан муносабатини ифодаловчи қарашлари ва эътиқодларидан, ҳуқуқ тўғрисидаги тасаввурлари, интилишлари ва туйғулари мажмуасидир. “Тадбиркорлик маданияти – бу жамиятда амал қиладиган ҳуқуқий меъёрлар (қонунлар, низомлар), ишбилармонлик қобилияти, истеъдоди, ахлоқий қоидалар ва цивилизациялашган бизнесни юритиш стандартларига мувофиқ равишда субъектлар томонидан тадбиркорлик фаолиятининг аниқ, белгиланган принциплари ва усулларида иборат”(22) бўлса, ҳуқуқий маданият маънавий-ахлоқий, ҳуқуқий қадриятлар тизими сифатида ҳуқуқий ҳолат ривожининг эришилган даражасида, меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда ва низоот, ҳуқуқий онгда ўз ифодасини топади. Демак, ҳуқуқий маданият - бу жамият ҳуқуқий онги юксак даражасининг ўзига хос белгиси, кўрсаткичи бўлиб, ана шу жараёнда тадбиркор шахсининг муттасил ривожланиб боришида муҳим омилдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. - Тошкент, Ўзбекистон, 2019 – 315 б.
2. Валенский А. В., Чеперенко А.Ю. Малое предпринимательство в России: состояние и перспективы // Мир России. 1994, № 2.
3. Гимпельсон В. Новое российское предпринимательство: источники формирования и стратегия социального действия // Мировая экономика и международные отношения. 1993, № 6.
4. Радаев В.В. Новое российское предпринимательство в оценках экспертов // Мир России. 1993, №3.
5. Российское предпринимательство: опыт социологического анализа (под редакцией Н.И. Лапина). - Москва ИНИОН РАН, 1993).
6. Становление нового российского предпринимательства (Под редакцией В.В. Радаева). – Москва ИЭ РАН, 1993.
7. Заславская Т.И. Стратификация современного российского общества // Экономические и социальные перемены: Мониторинг общественного мнения. М., 1996, № 1.
8. Заславская Т.И. Бизнес-слой российского общества: сущность, структура, статус // Социологические исследования. 1995, № 3.
9. Российская социологическая энциклопедия (под общей редакцией академика Г.В. Осипова) – Москва, НОРМА- ИНФРА –М., 1998.
10. Ғарб фалсафаси. Тузувчи ва масъул муҳаррир: проф Қ.Назаров. –Т: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2004. – 720 б.
11. Джон Локк. Избранные философские произведения (в 2-х томах) - Москва: Соцэкгиз, 1960.
12. Вебер М. Протестантская этика и дух капитализма. Избранные произведения - Москва: Прогресс, 1990.
13. Парсонс Т. О структуре социального действия - Москва: Академ. проект, 2002. - С. 157.

14. Раҳматов М.А., Зарипов Б.З. Истеъдодли инсонлар мамлакатнинг бебаҳо бойлигидир - Тошкент: Замин Нашр, 2019.
15. Мўминов Н., Мўминова Ш., Жўрабоев А. Кичик ва ўрта бизнесда тадбиркорликнинг ҳуқуқий ўрни. - Тошкент: ЎзРФА Замонавий информацион технологиялари илмий маркази, 2001.
16. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси - Тошкент: Ўзбекистон, 2022.
17. Дудар Т. Е. Предпринимательство: культурфилософский и антропологический подход. Автореферат диссертации на соискание степени кандидата философских наук. - С-Петербург: 2005.
18. Тўхлиев Н., Ҳақбердиев Қ. ва бошқалар. Ўзбекистон иқтисодиёти асослари - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006.
19. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси - Тошкент: Адолат, 2023. - Б. 23-35.
20. Мирзиёев Ш. М. Тадбиркорликни жадал ва янада кенг ривожлантириш учун барча шароитларни яратиш – энг муҳим вазифамиздир - Тошкент: Ўқитувчи, 2021.
21. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси - Тошкент: Тасвир, 2020.
22. <https://works.doklad.ru/view/OYUp81gkbLw/all.himl>

Sattarov Inomjon Odilbay o'g'li

Uzbek-Finnish Pedagogical Institute
Assistant of the Department of Social and Humanitarian Sciences

*Published under peer review:
Doctor of Science in Philosophy, Associate Professor
Umida Nurmatova,
Uzbekistan*

Received 4th May 2024, Accepted 11th May 2024, Online 18th June 2024

SYSTEMATIC CHARACTERISTICS OF THE MODERN EDUCATIONAL PROCESS

(On the example of the Finnish education system)

Abstract. This scientific article analyzes the reforms of the education system in our country, which is the basis of the development of all developed countries today, the development strategy, the structural features of the modern education process on the example of the Finnish education system.

Key words: Modern education, Finnish education, modernization, PISA system, literacy, test, regimentation, system.

СИСТЕМАТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

(На примере финской системы образования)

Аннотация: В данной научной статье анализируются реформы системы образования в нашей стране, которая сегодня является основой развития всех развитых стран, стратегия развития, структурные особенности современного образовательного процесса на примере финской системы образования.

Ключевые слова: Современное образование, финское образование, модернизация, система PISA, грамотность, тест, регламентация, система.

ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONING TIZIMLILIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada bugungi kunda barcha rivojlangan mamlakatlar taraqqiyotining asosi bo'lgan ta'lim tizimining mamlakatimizdagi islohatlari, taraqqiyat strategiyasi, Finlandiya ta'lim tizimi misolida zamonaviy ta'lim jarayoning tizimlilik xususiyatlaridan kelib chiqib tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy ta'lim, Finlandiya ta'limi, modernizasiya, PISA tizimi, savodxonlik, test, regimentasiya, tizim.

Kirish (Introduction)

Bugungi kunga kelib, ayniqsa, insoniyat turli global muammolar qurshovida qolganda, turli tasodifiy jarayonlar kelib chiqqanda, fan va ta'limning juda ko'p imkoniyatlari, zamonaviy shakllari hamda kelajakni oldindan ko'ra olish xususiyati yanada keng namoyon bo'lganda bu masala hozirgi zamon fanida o'rganilishi lozim bo'lgan masalalar sifatida qaralmoqda. Ta'lim doimo taraqqiy etadigan, o'zgarib boradigan, davr nuqtai nazaridan yondashiladigan, bir nuqtada qotib qolmaydigan murakkab tizim bo'lganligi uchun ham Yangilanayotgan O'zbekistonda innovatsion ta'lim tizimi metodologiyasini o'rganishimiz obyekt bo'la oladi. Ta'limda bu o'zgarishlar hamisha davom etadigan jarayondir. Qachonki, ta'limda o'zgarishlar to'xtasa, jamiyatda turg'unlik holati kelib chiqadi, taraqqiyot, rivojlanish, modernizasion, innovasion jarayon ham to'xtaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review)

Mamlakatimiz ta'lim jarayonini taraqqiy ettirish borasida barqaror holatga o'tish sari intilib kelinmoqda. Vaholanki, rivojlangan mamlakatlar ham barqaror holatga kelish uchun beqaror bosqichlarni bosib o'tishgan. Masalan, Yaponiyada 1868-yillarda zamonaviy ta'limning ilk ustunlari yaratilgan bo'lsa, 1886-yillardan boshlabgina sistematik ta'lim tizimi yaratila boshladi. Bu bosqich ham 1917- yilgacha davom etgan. Zamonaviy ta'lim bosqichi esa 1945-yildan hozirga qadar davom etib kelmoqda. Demak, ta'lim tizimida toki rivojlanish bosqichiga erishishga qadar tartib va tartibsizlik orasida o'zaro o'rin almashish holatlari bo'lishi tabiiy. Hatto eng rivojlangan, taraqqiy etgan ta'lim sistemalari ham davr o'zgarishi bilan eskiradi, yangicha ko'rinish oladi, o'z-o'zini zamon talabiga muvofiq o'zgartirib boradi.

Ta'lim sohasidagi islohotlar mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning uzviy va hal qiluvchi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim sohasida mavjud bo'lgan ba'zi kamchiliklarni bartaraf etishda chet el tajribasidan foydalanishimiz zarur. Chet el tajribasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, Finlandiya ta'lim tizimi, ayniqsa boshlang'ich ta'lim sohasidagi tajribasi nihoyatda beqiyos. Dunyoning bir qator yetakchi davlatlari ta'lim tizimini isloh qilishda Finlandiya tajribasidan foydalanib kelmoqdalar.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiylik, xolislik, davriy izchillik, qiyosiy, tanqidiy, mantiqiy va xronologik, semantik va pragmatik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and result)

Hozirda mamlakatimizda ta'limga qaratilayotgan xarajatlarning ko'p qismini davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirmoqda. Finlandiya xalq ta'limi Yevropa miqyosida, umuman, dunyoda raqobatbardosh hisoblanadi. Finlyandiya ta'lim tizimining yaqin tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qiziq faktlarning guvohi bo'lamiz. XX asrning 70-yillariga qadar bir qator kamchiliklar mavjud bo'lib, ular ta'lim tizimini samarali faoliyat ko'rsatishiga to'sqinlik qilgan. Natijada ta'lim tizimida jiddiy islohotlarni amalga oshirish zarurati yuzaga kelgan. Ilg'or tajriba va ilmiy-tadqiqot ishlari natijalariga asoslangan holda islohotlar yo'nalishlari belgilab olingan va bosqichma-bosqich amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin.

Zamonaviy ta'lim tizimini xususiyatlari haqida bir qancha olimlar izlanishlar olib borganlar. Faqatgina bugungi kunga kelib, ayniqsa, ta'lim o'z tarkibiga kiruvchi bir necha qismlarning birgalikdagi faoliyati orqali dinamik rivojlanish jarayonini tushunish mumkin. Tizimli yondashuv masalasi sinergetik, nochiqli, mantiqiy va tanqidiy tafakkur tarzi bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham bugungi davrning eng dolzarb masalalari sarasiga kiradi. Zamonaviy ta'limga sinergetik xarakterdagi tizimli yondashuv masalasi xususida mulohaza yuritish ekanmiz, zamonaviy ta'limning o'zi nima ekanligiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Bizga ma'lumki, butun jahonda bugungi globallashuv davrida, taraqqiyot tezkor sur'atda davom etar ekan, fan va ta'limda ham konstruktiv jihatga ega bo'lgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa ta'limdagi sifat va miqdor jihatdan yuksalish tendensiyasini belgilab beradi.

Ko'pgina adabiyotlarda zamonaviy ta'lim tushunchasi faqatgina zamonaviy ta'lim texnologiyalari, zamonaviy o'qitish usullari, innovasion ta'lim metodlari kabi tushunchalar bilan bog'lab tushuntiriladi. To'g'ri, bu tushuntirishlar ham zamonaviy ta'limning ko'pgina tomonlarini ochib beradi, ammo zamonaviy ta'limning butunlay yaxlit bir falsafiy ta'rifini qamrab olmagan. Bizningcha, zamonaviy ta'lim bu zamon talabiga javob bera oladigan ta'limdir. "Zamonaviy ta'lim deyilganda har bir yangi davr (zamon) talabidan kelib chiqadigan, jamiyatdagi ta'lim islohotlarini nazariy va amaliy mexanizmlarini qamrab olgan, taraqqiyotga xizmat qiladigan, ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilar manfaatini uyg'unlashtiradigan, innovasion g'oyalarga nisbatan tahliliy (analitik) va tanqidiy (refleksiv) munosabatni shakllantiradigan zamonaviy, integrasion (o'zaro hamkorlikdagi), rasional (aql va tafakkurga asoslangan) ta'lim jarayonini tushunish mumkin"[1]. Bu o'rinda zamonaviy ta'limning evrestik jihatlarini ontologik-gnoseologik tafakkur orqali anglashimiz mumkin. Zamonaviy ta'lim ma'lum bir ehtiyoj va talabdan kelib chiqadi. Jamiyatda zamonaviy ta'limga bo'lgan talab va ehtiyoj oshib borgandagina, u kirib keladi hamda ta'lim taraqqiyotiga ta'sir etadi. Bugun zamonaviy ta'limsiz taraqqiyotga erishish juda mushkuldir. O'z davrida buyuk ma'rifatparvar, zamonaviy ta'lim tarafdorlaridan biri, jadidlar yo'l boshchisi Maxmudxo'ja Behbudiyning "Zamon ilm va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga paymol bo'lur"[2] hamda "Mumkin qadar ko'proq yaxshi maktablar ochish, shuningdek, maorif va xalq saodatini ta'minlash sohasida tinmay ishlash bizga eng yaxshi haykal bo'ladi"[8], degan mulohazalari bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligini anglash mumkin.

Hozirda O'zbekiston ta'limi rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimidan bir qancha farqli ekanligini tan olishimiz kerak bo'lgan achchiq haqiqatdir. "Yuksalish" umummilliy harakatini O'zbekistonning jahon reytinglaridagi o'rni haqida umumiy ma'lumotiga ko'ra mamlakatimiz jahondagi 203 davlat orasida 2019-yilgi ta'lim tizimining ta'sirini o'lchash va baholash bo'yicha xalqaro ma'lumotlar bazasida 79-o'rin, Farovonlik va barqaror iqtisodiy rivojlanish indeksi bo'yicha 101-o'rin, Inson taraqqiyoti indeksi bo'yicha 105-o'rinda qayd etiladi. **Bugungi kunda (2021) ta'lim darajasi bo'yicha 71 - o'rinda turganligi ta'lim sifati va samaradorligini oshirish uchun yanada katta kuch, mehnat, yangicha yondashuvlar zarurat ekanligini anglatadi[10].** Bugun dunyoda deyarli barcha sohalarni bilim va aql boshqarmoqda. Zamonaviy ta'lim jarayoni ezgulikka xizmat qilish bilan bir qatorda salbiy oqibatlariga olib keladigan jihatlarni ham shakllantirmoqda. Hozirgi vaqtda dunyoni egallash uchun, mamlakatlarni bo'yso'ndirish, ergashtirish, ta'sir doirasini kengaytirish yoki o'zligidan ayirish uchun hech bir harbiy vositalar shart emas. Ta'lim shunday

sinergetik tizimki, u ham konstruktiv, ham destruktiv oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ta'lim jarayoni orqaligina ilmiy tafakkur shakllanadi, fanda ijod qilinadi. Fandagi ijod mahsullari hamma vaqt ham yaxshilikka, bunyodkorlikka xizmat qilmasligi mumkin. Jumladan, insoniyatni qiruvchi qurollar ham, turli bombardimon vositalar yoki laboratoriyalarda kashf etilgan biologik qurollar (viruslar, bakteriyalar) ham ilmiy tadqiqotlar natijasi sanaladi. Bugun ta'lim jarayoni orqali berilayotgan bilim va aqlning kuchi hattoki yovuz amaliyotlarda ham qo'l kelmoqda. Bizningcha, mamlakatimizda "2021/2022-o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tizimining tegishli ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalariga bakalavriat bosqichida "Ma'naviyatshunoslik", magistratura bosqichida "Kasbiy ma'naviyat" fanlari kiritilishi[3], falsafiy fanlar negizida amalga oshirilishi nazarda tutilayotgan "Kasb etikasi" masalalari aynan bugungi ilmiy tadqiqotlarning natijasi ezgulikka, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozimligini ko'zlab amalga oshirilgan harakatlardan biridir.

Globalashuv davrida informasfera (axborot qobig'i), noosfera (aql va tafakkur qobig'i)ning kengayishi tufayli fan va ta'lim taraqqiyoti insoniyat jamiyatini postindustrial bosqichga o'tishini jadallashtirdi. Ya'ni fanning ishlab chiqarishga kirib borishiga, xizmat ko'rsatish sohaslarining yanada kengayishiga, yangi texnologiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish hisobidan iqtisodiy resurslarni tejash va oqilona foydalanishga urg'u berildi. Bu esa fan va ta'limda ham sezilarli o'zgarishlar olib kirdi. Ayniqsa, axborotlashgan asrda intellektual kasblar nufuzi tobora ortib bormoqda. Gen injeneriyasi, robototexnika, nanotexnologiyalar, kosmologiya, biotexnologiya, agrotexnologiya va boshqa ko'plab sohalarda shu qadar katta yutuqlar qo'lga kiritilyaptiki, insonning aqli va tafakkuri shu qadar keng imkoniyatga egaligi o'z isbotini topib boryapti. Insonni bu salohiyatga olib kelish, uning aql imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ta'lim tizimining eng muhim vazifasidir. Vaholanki, ta'limi taraqqiy etmagan mamlakatlar iqtisodiyoti ham taraqqiy etmaganligini butun dunyo mamlakatlari ko'rib turibdi. Bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimini joriy etmasdan turib, zamon talabiga mos kadrlarni etishtirib bo'lmaydi.

Zamonaviy ta'lim jarayoning tizimlilik xususiyatlarini ontologik va gnoseologik tahliliy zamonaviy ta'lim uchun asos bo'la oladigan, integrasion ta'limni targ'ib etayotgan muhim ta'limotdir. Bugun dunyoda ta'lim jarayoni shu qadar ilgarilab ketdiki, endi rivojlangan mamlakatlar hech bir qo'shimcha moddiy va tabiiy resurslarni sarflamasdan, hech bir energiyani ishlatmasdan faqat aql bilan yuksak iqtisodiy salohiyatga erisha olyapti. Yaponiya, Janubiy Koreya mamlakatlarining qo'shimcha tabiiy va moddiy boyliklarsiz aqliy mehnat, ilm va istiqbolli ta'lim tizimi orqaligina mo'jizaviy rivojlanish darajasiga ega bo'lganligidan xabardormiz.

Yana bir misol, quyida biz iqtisodiy o'sish darajasi eng rivojlangan mamlakatlardan biri sanaladigan AQSHning 1980-yildan 2010-yilga qadar iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari sxemasini keltirib o'tamiz. Mazkur sxemadagi iqtisodiyotning o'sishida energiya sarflanish holati e'tiborimizni tortdi. Bu sxemada qizil rangli chiziqda iqtisodiy o'sish, ya'ni boylik, ko'k rangli chiziqda energiya aks etadi[11].

Bilimni baholash xalqaro tadqiqot dasturi (PISA) testlari asosida Finlandiya o'quvchilarining ona tili, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha o'zlashtirish darajasi aniqlandi. Ushbu fanlar bo'yicha o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlari, balki ularni amaliyotda qo'llay olish ko'nikma va malakalari ham baholandi. Bunda Finlandiya 31ta mamlakatni orta qoldirib, yuqori natijalarni ko'rsatdi. Boshlang'ich ta'lim muammolariga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarni va internet

manbalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda Finlandiya davlatining mazkur sohada erishgan yutuqlari g'oyatda maqtovg'a sazovor.

Uning tajribasidan ko'pchilik chet el davatlari, jumladan, AQSH, Fransiya, Germaniya, Shvedsiya va boshqa rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimini isloh qilishda samarali foydalanib kelmoqdalar va kutilgan natijalarga erishmoqdalar. Finlandiya universitetlaridagi ta'lim fakultetlarining ustunvor vazifasi "o'zini-o'zi boshqaruvchi o'qituvchilar"ni tayyorlashdan iborat. Ta'lim fakultetiga talabalarning bilimiga qarab tanlanmaydi. Bizning ta'lim tizimizdan farqli o'laroq, bir necha bosqichli tanlovdan so'ng, kelishuvchanlik, bolalarni tushuna olish, mexnatsevarlik, intiluvchanlik kabi hislatlarga ega bo'lgan nomzodlar tanlab olinadi. Har yili o'qituvchi lavozimida ishlash uchun istak bildirgan 8500 nozomzoddan atigi 800 nafari tanlab olinadi.

Asosiy ta'limni Finlandiya o'quvchilar 9 yil davomida olishadi va ularning 60 foiz o'qishini oliy ta'lim muassasalarida davom ettiradi. Yuqoridagi tahlildan ko'rinib turibdiki, Finlandiya boshlang'ich ta'lim tizimi bolalarni erkin fikrlash, stres holatlarini yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish, o'quvchilarga individual yondashish, ma'suliyatlilik hissini singdirib borish, bolalar uchun qulay bo'lgan fiziologik sharoitlarni va psixologik muhitni yaratish, o'qituvchilarning yuqori darajadagi professional kompetensiyasini ta'minlashga qaratilgan. Shubhasiz, bular ta'lim samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va o'quvchilarni o'qishga bo'lgan intilishlarini kuchaytiradi, hamda mazkur ta'lim tizimining yuqori samaradorligini ko'rsatadi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, boshlang'ich sinflarda puxta olingan ta'lim o'rta va yuqori sinflarda hamda keyinchalik oliy ta'lim muassasalarida olinadigan bilimlar uchun mustahkam poydevor vazifasini o'taydi.

Finlandiyaning ta'lim to'g'risidagi qonunida (1998 yil) ta'limining uchta asosiy maqsadi belgilab berilgan:

O'quvchilarga hayotda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni berish.

Jamiyatda rivojlanish va tenglikni targ'ib qilish.

Butun mamlakat bo'ylab ta'lim sohasida tenglikni ta'minlash.

Finlandiyaning intellektual va ta'lim sohasidagi islohotlari Finlandiya ta'lim tizimini o'zgartirib yuborib, uni dunyodagi eng yaxshi tizimlardan biriga aylantira oldi.

Finlandiyada uch yillik o'quv dasturi bo'lgan yuqori o'rta maktab mavjud bo'lib, u o'quvchilarni universitetga kirishini belgilaydigan Matritasiya testiga tayyorlaydi. Odatda bu yerda o'qitiladigan narsalar o'quvchilarning "o'rta maktab"da o'qigan vaqtlarida olgan mutaxassisliklariga asoslanadi. Mamlakatda yana kasb-hunar ta'limi ham mavjud bo'lib, bu uch yillik dastur, talabalarni turli sohalar bo'yicha o'qitadi. Agar ular universitetga hujjat topshirishni istasalar, Matritasiya testidan o'tishlari ham mumkin. Finlandiyada darslar soat 9:00-9:45 dan boshlanadi. Tadqiqotlarimiz shuni korsatadiki, darslarning juda vaqtli qo'yilishi talabalarning farovonligi, salomatligi va yetukligiga zarar yetkazadi. Fin maktablari kun chiqqandan keyin boshlanadi va odatda soat kunduzgi 2:00 dan 2:45 gacha tugaydi. Finlandiya o'z maktablari bilan qanday ish olib borishi haqida umumiy tendensiya mavjud. Kamroq stress, kamroq keraksiz regimentasiya va ko'proq gamxo'rlik. Odatda talabalar kuniga atigi bir necha darsga qatnashishadi xolos. Ular bir necha marta ovqatlanishlari, dam olishlari mumkin. Kun davomida darslar oralig'ida 15-20 daqiqali intervallar bo'lib, bunda bolalar biroz dam olishlari, toza havoda sayr qilishlari mumkin. Bunday muhit

o'qituvchilarga ham kerak. Finlandiya maktablarida o'qituvchilar xonalari bo'lib, ularda dam olish, darsga tayyorgarlik ko'rish yoki shunchaki suhbatlashib o'tirish mumkin. Finlandiyada o'qituvchilar faoliyatini samarali tashkil qilish uchun ularning zimmasidagi keraksiz topshiriqlarni kamaytirishga urg'u beradilar.

OECD tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, Finlyandiyada talabalar dunyodagi boshqa talabalarga qaraganda eng kam uy vazifalarini bajaradi. Ular har kuni uyda atigi yarim soat davomida maktabdagi vazifalar ustida ishlashadi. Fanlardan talabalarga darsdan keyin qo'shimcha o'tadigan repititorlar ham yo'q.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Umuman olganda, fan o'quvchilari maktabda bajarilishi uchun zarur bo'lgan hamma narsani, biron bir mavzuning zavqini keltiradigan qo'shimcha bosim o'tkazmasdan olishadi. Baholar haqida tashvishlanmasdan ular eng muhim masalaga o'rganish va mutaxassislar malakasini oshirishga e'tibor qaratmoqdalar. Bu esa mazkur ta'lim tizimining butun dunyodagi eng yaxshi tizim deya tan olinishiga sababchi bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, Finlandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyati fin xalqining qadriyatlari va madaniyat bilan chambarchas bog'liq. Finlandiya muvaffaqiyatidan saboq olish, ta'lim tizimini chuqur o'rgangan holda undagi muhim jihatlarni o'zimizga moslashtirgan holda foydalanishimiz zarur.

Xullas, Prezidentimiz qaroriga asosan Finlandiyaning ta'lim sohasidagi ijobiy tajribasini, shu jumladan o'quv dasturlari, darsliklari, o'qitish metodikalari va pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi joyiga borgan holda o'rganish belgilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

1. Эргашева М.Х.Таълим тараққиёти: синергетик таҳлил. – Самарқанд: Самарқанд Давлат чет тиллар институти нашриёти, 2022. – Б. 27.
2. Бехбудий М. Эҳтиёжи миллат // Самарқанд газетаси, 1913 йил 31 июль сони.
3. “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги ПҚ-5040-сонли қарори. <https://lex.uz/docs/5344692>.
4. Grigoriy Petrov. “Oq nilufarlar yurtida”, “Faktorpress”, 2021y.
5. Timoti Uoker. “Finlandiya ta'lim mo'jizasi”, “Global books”, 2023y.
6. Салберг Паси. “Финские уроки. История успеха реформ школьного образования в Финляндии”, “Арт-транзит, классика-XXI”, 2015 г.

7. Nurmatova U.J. Mutolaa ta'lim jarayonining muhim atributi sifatida. O'zbekiston-Finlandiya ta'limi va barkamol avlod tarbiyasi muammolari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 24-25-may, 2024. 91-b
8. Nurmatova U.J. Mutolaa fenomenining sinergetik xususiyatlari. International journal of philosophical studies and social sciences. ISSN-E 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039 Vol 3, Issue 2 2023. 72-73 p.
9. NURMATOVA, UMIDA JALALLIDINOVA. PHILOSOPHICAL AND EPISTEMOLOGICAL ESSENCE OF READING A BOOK. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences 1.1 (2021): 145-152.
10. Jaloliddinova, Nurmatova Umida. Mutolaa-As an Important Attribute of Human Life. Kresna Social Science and Humanities Research 4 (2022): 34-35.
11. https://uza.uz/uz/posts/turkiston-marifatparvarlarining-yolboshchisi_19148
12. <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-dunyo-reytinglarida-qanday-orinlarda-b>
13. <https://energycentral.com/c/ec/decoupling-energy-carbon-and-gdp-united-states>.
14. <https://abt.uz/blog/prezident-xalq-ta-limi-tizimidagi-muammolar-va-kam>
15. https://www.instagram.com/p/CjdnC_uNHbb/?igshid=YmMyMTA2M2

Ganieva Charos

*The National institute of fine art and designed
named after Kamaliddin Bekhzad, Associate professor*

charosganieva0282@gmail.com

Published under peer review:

*Doctor of History, Senior Researcher at the
State Museum of History of Uzbekistan
Mukhamedova Munisa Sabirovna,
Uzbekistan*

Received 4th May 2024, Accepted 11th May 2024, Online 18th June 2024

ACTIVITY OF HOUSE-MUSEUMS IN UZBEKISTAN AND THEIR SIGNIFICANCE IN SOCIETY'S DEVELOPMENT

Annotation. The article examines the activities of the museum houses of Uzbekistan and their educational significance in society, the most important forms of work with the audience. Issues such as the inclusion of museum houses in the line of tourist routes are also being discussed, taking into account the fact that these museums exist in different areas and that this can serve as a cultural and educational leisure for the viewer.

Keywords: House museum, musical and artistic, literary, memorial museums, traveling exhibitions.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ДОМ-МУЗЕЕВ В УЗБЕКИСТАНЕ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

Аннотация. В статье рассматривается деятельность домов-музеев Узбекистана и их образовательное значение в обществе, важнейшие формы работы со зрителями. Также обсуждаются такие вопросы, как включение домов- музеев в линейку туристических маршрутов, с учетом того, что эти музеи существуют в разных областях и что для зрителя это может послужить культурно-просветительским досугом.

Ключевые слова: Дом-музей, музыкально-художественный, литературный, мемориальный музеи, передвижные выставки.

O‘ZBEKISTONDA UY-MUZEYLARI FAOLIYATI VA ULARNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI

Аннотация. Мақола Ўзбекистонда уй-музейлар фаолияти ва уларнинг жамиятдаги тарбиявий аҳамияти, томошабинлар билан ишлашнинг энг муҳим шакллари ҳақида баён этади. Шунингдек, уй-музейлар турли соҳалардан келиб чиққан ҳолда яратилганлиги ва томошабин учун у амалиёт вазифасини ўташи мумкинлигини кўзда тутган ҳолда, уй-музейларни туристик маршрутлар тизимига киритиш каби масалалар муҳокама қилинади.

Калит сўзлар: уй-музей, мусиқа-санъат, адабий, мемориал музейлар, кўчма кўرғазмалар.

Кириш (Introduction)

Музейлар тарихий, моддий ва маънавий маданият ёдгорликларини асровчи, сақловчи, ўрганувчи ва халққа намойиш этувчи илмий ва маърифий муассасалардир. Музейга ташриф буюрган томошабин у ердан бир олам таассурот билан чиқиши керак. Музейларни бир неча турларга, тармоқларга ажратиш мумкин. Ҳар бир музейнинг ўз вазифаси, жамият маданияти, тарихи, маърифати, ёш авлод тарбиясида ўз ўрни бор.

Таҳлил ва натижалар (Analysis and results)

Бу борада уй - музейларининг ўз салмоғи бўлиб, у ерда бирор шахс ижоди, ҳаётий фаолиятдан ҳикоя қилиши билан аҳамиятлидир. Яна бир жиҳати бундай музейлар айнан ўша шахснинг яшаб ижод қилган уйида ташкил этилишидир. Бу ҳам музейга бўлган қизиқишни орттиради. Ҳар бир уй - музейи ўзининг бошқарув тизими, коллекцияси ва тартиб - қоидаларига эга. Масалан адабий уй - музейларида кўпроқ адабиёт соҳасида ижод қилган шахслар ҳаёти акс этирилса, ундаги экспонатлар ҳам жойлашуви, намойишга қўйилишга кўра адабий муҳитни ўзида мужассам этади. Бу турдаги уй - музейларида нафақат ижодкор ҳаёти ва фаолияти билан танишиш имкони бўлади, шу билан бир қаторда адабий жанрлар, ўша давр адабиёти тарихи, ижодкорлари фаолиятдан ҳам боҳабар бўлиш имкони туғилади [8, С-29]. Бу эса адабиёт ихлосмандлари учун жуда маъқул келади. Аммо мусиқа-санъат йўналишидаги уй-музейларида эса биров бошқача муҳитни сезиш мумкин. Унда ижодкор фаолияти фото ва архив материаллари билан бир қаторда у яратган асар намуналари билан ҳам намойиш этилади. Бунда ижодкор фаолияти кенгрок таништирилади. Мусиқий асарлар, композицион кўринишлар эса ҳар бир томошабинда алоҳида қизиқиш уйғотади. Шунинг учун бу каби музейлар экспозициясига алоҳида эътибор қаратилади. Бу ерга ташриф буюрганлар, мусиқий чиқишларни тинглашлари, мутахассис фикрларини билишлари мумкин бўлади. Шунингдек, тасвирий санъат турларида ижод қилган шахсларни уй - музейи бўлиб, бу каби музейларда нафақат экспонатлар, шу билан махсус галерея ҳам бўлиши мумкин [7, С-55]. Масалан, Ўрал Тансиқбоев уй - музейида, музей билан бирга асарлар намойиш этишга мўлжалланган икки қаватли галерея ҳам мавжуд. Бундай уй-музейларга ташриф буюрган киши нафақат ижодкор ҳаёти ва фаолияти билан танишадилар, балки рассомнинг замондош ижодкорлари фаолияти билан ҳам яқиндан танишиш имкони юзага келади. Умуман барча уй - музейларда ўзигагина хос жиҳатлар бўлади. Ҳамма уй – музейларида ўша соҳанинг мукамал вакиллари иш олиб борсалар бу каби музейлар ривожланади. Уй-музейларни туристларга кенг очиб қуйиш учун бир қанча қулайликлар яратиш керак бўлади. Уй-музейи ҳақида ҳикоя қилувчи бир неча тилдаги буклет, интернет тизимида мукамал сайт яратиш, ҳамда туризм билан иш юритувчи ташкилотлар билан узвий ҳамкорлик боғлаш керак. Музейшунос мутахассислар малакасини ошириш орқали уй-музейларни ривожлантиришга эришиш мумкин бўлади.

Уй-музейларининг фаолиятини ривожлантириш бир эмас, бир қанча омилларга боғлиқ. Энг аввало уй-музейлари инвентарлари ҳамда экспонатлар ноёб, оригинал бўлиши керак. Шу билан бир қаторда музей биноси ҳамда у жойлашган ҳудуд шаҳар марказида бўлиши ҳам

унинг ривожига ижобий таъсир ўтказди [4, С-29]. Яна уй-музейининг экспозициясининг янгиланиши ҳам унга бўлган қизиқишни орттиради. Сабаби узоқ вақт давомида бир хил экспозицияни намоёиш этиш ҳам томошабинни зериктиради [8, С-34]. Агар экспонатлар янгиланиб турилса, янгиликлар киритилса, бундан ташқари уй-музейлар залларида турли тадбир ва семинарлар ташкиллаштирилса унга қизиқиш ортишига сабаб бўлади. Музейга келувчилар орасида ўқувчилар, талабалар ҳамда турли касб вакиллари бўлиши мумкин. Музей тарихий, моддий ва маънавий ёдгорликларини тўплаш, сақлаш, ўрганиш ва тарғиб қилиш ишларини амалга оширувчи илмий маърифий муассаса. Музей хазинасида, асосан, моддий буюмлар, шунингдек, санъат асарлари жамланади, шу билан бирга ёзма манбалар (қадимдан ҳозирги давргача бўлган тарихий қийматга эга қўлёзмалар, босма ҳужжатлар, китоблар) сақланади.

Бизга маълумки, музейлар бир қанча турларга бўлинади. Масалан, соҳалар бўйича тарих, бадиий, ўлкашунослик, мемориал, адабиёт, техникага оид ва бошқа музейларга бўлинади [6, С-46]. Музей катта илмий тадқиқий ва тарбиявий ишларни амалга ошириб боради: тўпламларни бутлайди ва ўрганади; илмий ҳужжатларни тайёрлайди, музей ашёларини сақлаш ва таъмирлаш тартибини яратади, монография, каталог, йулқўрсаткичлар нашр этади, замонавий музейшунослик ишлаб чиққан илмий усул ва методология асосида экспозицияларда илмий ташвиқотлар олиб боради.

Томошабинлар билан ишлашнинг энг муҳим шакли экскурсиядир [3, С-18]. Бугунги музейшунослик тез ривожланиб бораётган соҳа ҳисобланади. Замонавий музейлар бугунги жамиятнинг ажралмас қисмига айланган. Музей нафақат нодир, қадимий буюмларни сақлабгина қолмай, балки замон билан ҳамнафас равишда ривожланиб бораётган турли замонавий жараён, тенденцияларни ўзида акс эттираётган жамиятнинг асосий структурасига айланишда [9, С-57]. Замонавий музейлар нафақат тарих кўзгуси, шу билан бир қаторда билим, тарбия маскани ҳисобланади. Бир қатор ривожланган мамлакатларда ушбу соҳа тажрибасини кузатадиган бўлсак, туристлар оқимининг асосий қисми музейларга келаётганини гувоҳи бўламиз. Бу борада мемориал музейлар асосий ўринга эга. Мемориал музейларнинг фаолияти ва улар олдида қўйилган мақсад-вазифалар у ёки бу шахснинг ҳаёти, ижодий ёки илмий фаолиятини ёритиш, тарғиб этиш, қолаверса келажак авлодга етказиш ва тинимсиз илмий изланишдан иборат. Сабаби, мемориал музейларнинг мавжудлиги ҳар бир халқнинг ўз аجدодларига, тарихи, маданияти ва маънавиятига бўлган эътиборидан далолатдир. Нафақат санъат ва адабиёт намоёндалари, балки ҳар бир соҳада жонбозлик кўрсатиб, давлатини юксалишида ўз ҳиссасини қўшган, тарихда из қолдирган ҳар қандай олим-уламолар, фидойи инсонларнинг уй-музейлари бўлиши мақсадга мувофиқдир. Келажак авлод ўз ватани тарихига оид тўлиқ маълумотга эга бўлишга ҳақлидир. Бундай имкониятни яратиш эса аجدодларнинг авлодлари олдидаги бурчидир. Оммавий ахборот воситалари, тарихий манбалар, илмий қўлланмалар каби кўплаб манбалардан маълумот олиш ўз йўлига, лекин ашёвий далилларнинг ўрни бекиёс. Мемориал музейларнинг бошқа турдаги музейлардан фарқи ҳам шунда. Кенг доирадаги соҳа ва мавзуларни ўзида мужассам этган музей ҳамда мемориал музейларнинг ўртасидаги фарқни назария ва амалиёт ўртасидаги тафовутларга тенглаштириш мумкин [5, С-78].

Уй-музейларда асосий эътибор албатта бирор ижодкор ёки таниқли шахснинг фаолиятини акс эттиришга қаратилади. Шунинг учун ҳам у ердаги экспонатлар индивидуал кўринишга эга.

Мемориал уй-музейлар фаолиятини такомиллаштиришда Маданият ишлари вазирлиги Музейлар бошқармаси ҳамда Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги биргаликда маъсул бўлишлари лозим. Чунки, музейларда фаолият юритувчи мутахассис кадрларни айнан Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги қошидаги олийгоҳларда тайёрлайди. Институт ўқув дастур ва режалари бевосита олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги назоратида тасдиқланади. Шу жиҳатдан ҳам ҳар иккала вазирлик маъсулияти бирдек муҳимдир. Агар талаб жоиз бўлса, институт фаолиятида янги бўлимлар ташкил этиш мақсадга мувофиқдир.

Уй-музейларининг яна бир ўзига хос жиҳати шундаки, бу каби музейларда ҳеч бир музейда учрамайдиган ноёб, индивидуал экспонатлар бўлади. Баъзи уй-музейлари шу қадар машҳур бўладикки, айнан шу музейга ташриф буюриш учун туристлар хориждан келишади. Таниқли одамлар яшаган уйларда ташкил этилган уй-музейлари ўзига хослиги билан ажралиб туради. Айнан ўша шахсга тегишли буюмлар экспонат сифатида кўйилишини инobatга олсак, бу турдаги музейлар аудиториясига эга ҳисобланади. Бунга мисол қилиб бутун дунёга таниқли бўлган шахсларга бағишлаб бунёд этилган музейларни келтириб ўтишимиз мумкин. Асосий эътиборни уй-музейининг асоси, яъни таниқли шахсга қаратиш лозим. Музейда замонавийлик билан бирга ўзига хосликни ҳам йўқотмаслик керак. Масалан, Ўрол Тансиқбоев уй-музейини олсак, музей бевосита ижодкор яшаган ерда ташкил этилган. Айнан шу музейга тўхталишимизнинг сабаби, ушбу музей ўзига кенг томошабинлар аудиториясини йиғишга муваффақ бўлган. Ташриф буюрган томошабин эса ижодкор фойдаланган буюмлар билан яқиндан танишиш, ҳамда рассомнинг ижодий устахонасини кўздан кечириши мумкин бўлади. Бундан ташқари мазкур музейда бошқа ҳеч қаерда учрамайдиган оригинал экспонатлар жой олган. Шу билан бирга уй-музейга замонавий рух бериш, ҳамда ташриф буюрувчиларга кенг қулайликлар яратиш мақсадида унинг ҳовлисига янги бино қурилган. Бино икки қаватдан иборат бўлиб, музейнинг барча талабларига жавоб бера олади. Сақлаш ва намойиш этишга барча қулайликлар яратилган.

Ўзбекистонда бир қанча уй-музейлари фаолият юритади. Бу каби музейлар ўз навбатида бир неча йўналишларга бўлинади. Мисол учун, адабиёт йўналишидаги уй-музейлари, йирик фан олимларига бағишланган уй-музейлар ва мусиқа йўналишидаги уй-музейлар шулар жумласидан.

Улар орасидан айнан мусиқа йўналишидаги уй-музейларга бугунги кунда эътибор кучаймоқда. Зеро, мусиқа ҳар бир соҳа билан боғланади. Илк мусиқа йўналишидаги уй-музейларининг тарихи Европада ўрта асрларга бориб тақалади. Мусиқа ихлосмандларининг шахсий музейлари бунга яққол мисол. Бу каби музейларда турли мусиқа асбоблари сақланган. Кейинчалик эса мусиқа йўналишидаги музейлар ичидан алоҳида яна бир музей, мемориал мусиқа музейлари ажралиб чиққан [1, С-98].

Мусиқий йўналишидаги уй-музейлар юртимизда бир нечта бўлиб, қуйида шу каби музейлар билан танишамиз.

Юнус Ражабий уй - музейи. Академик Юнус Ражабийнинг яшаб ўтган хонадони ҳукумат қарори билан 1989 йилда Давлат уй - музейига айлантирилди. Ушбу хонадонда Ражабий 1957 йилдан то умрининг охиригача, яъни 1976 йилнинг баҳоригача яшаб ижод эгган. Бу унинг ҳаётидаги энг сермахсул ижод йиллари эди. Уй-музейнинг 6 та хонаси ҳам кўргазма залларига айлантирилган. Уларнинг ҳар бири маълум мавзуга бағишланган: “Ёшлик ва ўсмирлик даври”, “Мемориал хона”, “Ўзбек халқ мусикаси”, “Шашмақом”, “Абадият”, “Мусиқа тинглаш ва фильмлар кўриш хонаси” ва ҳоказо. Музей фондида 6000 мингга яқин кўргазма ашёлари, осори-атиқалар сақланади; шулардан 847 таси музей экспозицияларига қўйилган. Уй-музейда “Ўзбек халқ мусикаси”нинг II-III-IV-V- жилдлари, 6 жилддаги “Шашмақом” ва “Мусиқа меросимизга бир назар” номли китобларининг қўлёзмаси сақланади. Экспозициядан жой олган Юнус Ражабийнинг 12 жилдли китоби, қўлёзмалари, чолғу созлари, кийим-бошлари, концерт кийимлари, ўзбек халқ чолғу созлари коллекцияси, оиласи, устозлари, шогирдлари ва сафдошларининг мойбўёқда ишланган портретлари, юзлаб фотосуратлари ижодкор олимнинг ҳаётий йўлини акс эттиради. XIX асрнинг иккинчи ярмида танбурда ижро этиш учун мўлжалланган ва нота ёзиладиган чизикларга ўхшаш қилиб жойлаштирилган нота (нуқта) ёзувларининг қўлёзма китоби (Комил Хоразмий), Ғулом Зафарийнинг XIX аср ва XX аср бошларида яшаб ижод этган буюк мусикачилар “Шажараси” ва у тузган “Олти мақом” (Шашмақом) жадвалининг қўлёзмаси, дераза ойнасига витраж услубида Ўзбекистон халқ рассоми Алишер Мирзо ишлаган расмлар, Уста Усмон совға қилган дутор ва сато (1937), шогирдлари Исҳоқ Ражабийнинг танбури, Фахриддин Содиков чалган чанги ва бошқа ёдгорликлар ҳам диққатга сазовор. Музей хоналарининг ҳар бирида доимо кўргазмаларга ҳамоҳанг, майин янграб турадиган миллий мумтоз куйлар зиёратчиларга завқ бахш этади. Айнан шу жиҳати билан ҳам Тошкентдаги бошқа уй - музейлардан алоҳида ажралиб туради. Ҳар йили пойтахтимизнинг аҳолиси ва меҳмонлари, мактаб ўқувчилари, институт ва коллеж талабалари, ҳорижий мамлакатлардан келган сайёҳлар, мусиқа шайдоларидан иборат 5000 га яқин зиёратчилар ташриф буюради. Юнус Ражабий уй-музейи ҳақиқий мусиқа қасрига, ўзбек ва шарқ халқларининг мумтоз мусиқа асарлари, мақомлари марказига, қадамжо жойга айланди. Музей мусиқа ихлосмандларига маъкул жой бўлиб, унда деярли барча миллий мусиқа асбоблари жой олган. Музейга ташриф буюрган томошабин нафақат Юнус Ражабийни ижоди билан танишиш имконига эга бўладилар, шу билан бирга ўзбек миллий мусиқа тарихи билан танишиш имконига ҳам эга бўладилар. Музей келажакда замонавий техника жиҳозлари билан таъминланса, (яъни экспозицияга қўйилган 20 дан ортиқ чолғу- асбобларининг ҳар бири қандай овозга эга эканлигини зиёратчилар билишлари учун маълум бир куйни чалаётган созандани телеэкранда кўриш имкониятлари ва ҳоказо), интернет хизматларидан фойдаланилса, чет эл музейлари билан тажриба алмашилса, яна ҳам юқори натижаларга эришиш мумкин.

Мухтор Ашрафий уй музейи 1976 йил 22 июлда ташкил топган. Мустақил ташкилот сифатида 1980 йилнинг 1 январидан фаолият юрита бошлаган. Музейнинг расмий очилиши 1982 йил 18 июньда бўлиб ўтган. Музей фонди асосини бастакорнинг бой архиви ташкил этади. Архив материаллари ўзбек мусиқий маданиятининг 40 йиллик ривожланиш жарёни, бастакорнинг ҳаётий ва ижодий фаолиятини акс эттирувчи ҳужжатларни қамраб олган.

Экспозиция 5 та зал бўйлаб намоёниш этилган. Иккинчи қаватда музейнинг мемориал қисми жойлашган. Бу ерда Ашрафий асарларининг қўлёзмалари сақланади. Бинонинг ер тўла қисмида мусикий салон жиҳозланган ва 40 ўринли концерт залига мослаштирилган. Мазкур залда М.Ашрафий хотирасига бағишланган адабий ва хотира кечалари, конференция, Миллий консерватория ва мусикий коллеж ижодий тўғараклари йиғилишлари, тематик кечалар, концерт ва кўргазмалар ўтказилади. Мақсад эса, республикада профессионал композиторлик санъати асосчиларидан бири, биринчи ўзбек дирижери, йирик жамоат арбоби, педагог, публицист Мухтор Ашрафий ижодини тарғиб этиш, шунингдек, Ўзбекистоннинг мусиқа ва театр санъати пайдо бўлиши ва ривожига ҳақида сўзлашдир. Мухтор Ашрафий уй - музейида илмий тадқиқот ишлари музейнинг йиллик режасига кўра олиб борилади. Шаҳар кутубхоналарининг материаллари ҳамда Мухтор Ашрафий ва унинг замондошлари Э.Томатов, И.Галушенколарнинг шахсий архивлари асосида “Мухтор Ашрафийнинг симфоник ижоди”, “Ўзбек композиторларининг профессионал мусиқаси ва ўзбек мақомлари”, “Мухтор Ашрафий ва А. Хачатурян” каби лекция мавзуларини қайта ишлаш устида иш олиб борилган [2, С-21]. Музей коллекциялари компьютер инвентаризациядан ўтказилган. Доимий сақланишга мўлжалланган асосий фонд предметларига далолатнома ёзилиб, янги келиб тушувчи экспонатлар кириш китобига киритилади. Музейда илмий-ўқитув ишлари фаол олиб борилади. Мактаб, гимназия, миллий консерватория, мусиқа коллежи, Успенский ва Глиэр номидаги мусиқа лицейлари билан болаларни музейга келиб танишиши бўйича шартномалар тузилиб доимий ҳамкорликда бўлинади. Бундан ташқари Ашрафий музейининг концерт залида концерт, бадиий учрашув ва кечалар мунтазам ўтказиб келинади. Инновацион методларни қўллаб, тадбирларга миллий-маданий марказ ҳамда элчихоналар вакиллари жалб қилинади. Бугунги кунда музейда тинимсиз тадбирлар натижасида доимий тингловчилар аудиторияси шаклланган. Музейда ташкиллаштирилладиган барча тадбирлар оммавий ахборот воситаларни орқали кенг ёритиб борилади. Илмий - экспозиция ва кўргазмавий фаолият ҳам фаол йўлга қўйилган. Музейда ташкил этиладиган саналарга бағишланган кўргазмалар қаторида музейдан ташқарида ҳам кўчма кўргазмалар ташкил этилиб турилади. Бу эса музейнинг тарғибот-ташвиқот борасида амалга оширган ишларидан далолатдир. Шундай бўлсада, музей коллекциялари асосида кўргазмалар ташкил қилинмаганлигини таъкидлаб ўтиш жоиз. Музейнинг доимий кўргазма экспозициясига ўзгартиришлар киритилмаган.

Бундан ташқари юртимизда яна Соломон Юдаков уй-музеи, Тамарахоним уй-музеи ва бошқа мусиқа йўналишидаги уй-музейлари фаолият юритади.

Хулоса ва таклифлар (Conclusion/Recommendations)

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, музейлар бу жамиятнинг асосий бўғини. Музей соҳасига, айниқса уй-музейларга эътиборни кучайтириш лозим. Сабаби уй-музейлар турли соҳалардан келиб чиққан ҳолда яратилган ва томошабин учун у амалиёт вазифасини ўтайди. Уй-музейларни туристик маршрутлар чизиб бериш киритиш ҳам муҳим ҳисобланади. Сабаби айнан бу каби музейлар Ўзбекистон ҳақида тўла таассурот олишга йўл очиб беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати (References)

1. Большая советская энциклопедия. — М.: Советская энциклопедия. 1969—1978.
2. Джаббаров А, Саламонова Г., "Композиторы и музыковеды Узбекистана".-Т.: 1975, С.21.
3. Потапов, А. Музейный предмет и его эмоциональное восприятие // Мир музея. - 2004. - №10. - С. 18-20.
4. Самарина Н. Г. Формы представления результатов научно-исследовательской деятельности музеев // Научно-исследовательская работа в музее: материалы XI Всероссийской научно-практической конференции / Под науч. ред. И. Б. Хмельницкой. М., 2011.
5. Сафразьян Л. Т. Мемориальность предмета и её использование в научной обработке коллекций мемориальных музеев // Музейное дело в СССР. Пути повышения эффективности музейной деятельности: сб. науч. трудов / ЦМР СССР. М., 1990.
6. Странский З. Понимание музееведения // Музееведение. Музеи мира: сб. науч. трудов / НИИ культуры. М., 1991.
7. Тверская Д. И. Основные направления, виды и особенности научной работы в музеях // Музейное дело в СССР: сб. науч. трудов / ЦМР СССР. М., 1977.
8. Шмидт Е.О. Мемориальные музеи в системе развития науки и общественного сознания // Музееведение. Музеи мира. -М.: 1991. -С. 98-110. - (Сб. науч. тр. / НИИ культуры). С-29.
9. Ўзбекистон музейлари истикболи / тузувчи Д. Курбонова; - Тошкент.: Akademnashr, 2013. -144 б.

Интернет ресурслари:

1. <https://meros.uz/ru/wonder>
2. <http://www.rutraveller.ru/place39982>
3. <http://mytashkent.uz/>

Qo‘chqarov Sobir Abdiraurovich

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Published under peer review:

Doctor of Science in History, Associate Professor

Makhmudkhon Yunusov,

Uzbekistan

Received 4th May 2024, Accepted 11th May 2024, Online 18th June 2024

SAMARQAND DAVLAT MUZEY-QO‘RIQXONASI ETNOGRAFIYA FONDINING SHAKLLANISHI TARIXIDAN

Annotatsiya. Maqolada Samarqandda muzey ishi taraqqiyoti, Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasidagi etnografik kolleksiyalarning shakllanishi, ularning tarkibi, turli davrlarda etnografik kolleksiyalarning sonining o‘sib borishi, mavjud etnografik kolleksiyalar vositasida amalga oshiriladigan tadbirlar istiqbollari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: ilmiy jamiyatlar, etnografiya, maishiy turmush, ekspeditsiyalar, madaniyat, san‘at, etnografik muzey, ilmiy katalog.

Kirish (Introduction)

Turkiston o‘lkasi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, dastlabki yillarda imperiyaning ilmiy doiralari oldiga o‘lkani o‘rganish vazifasi qo‘yildi. Turkistonning tabiiy boyliklari, tarixi va aholisining turmush tarzini o‘rganish ushbu vazifaning asosiy qismini tashkil etgan. Shu maqsadda O‘rta Osiyo olimlar jamiyati (1869-y.), O‘rta Osiyo jamiyati (1871-y.), Turkiston arxeologiya havaskorlari to‘garagi (1895-y.), Rus geografiya jamiyati Turkiston bo‘limi (1897-y.) bilan birga Tabiatshunoslik, antropologiya va etnografiya havaskorlari Moskva jamiyatining Turkiston bo‘limi (1870-y.) ham tashkil etilgan edi.

Natijada, Turkiston o‘lkasini o‘rganish bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshiriladi. Zoologiya, botanika, geografiya, geologiya, tarix, arxeologiya sohalar bilan birga etnografiya yo‘nalishida ham ma‘lumotlar to‘planadi. Tabiiyki, mazkur jarayonlar doimiy ravishda ilmiy doiralar e‘tiborida bo‘lib kelgan Samarqandni ham chetlab o‘tgani yo‘q. Hududni o‘rganishning eng maqbul yo‘li o‘sha vaqtda muzey tashkil etish edi. Samarqand muzeyi ham ayni maqsadda tashkil etilgan edi.

Samarqand muzeyi O‘zbekistonda tashkil etilgan ilk muzeylardan bo‘lib, uning 1874-yilda tashkil etilganligi haqida bir qancha tadqiqotchilar o‘z maqola va risolalarida aytib o‘tgan (Masson M.E., Upfal G.Ya., Zabrodin Ye.B., Yunusov M.A.).

Tadqiqot davomida Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi etnografiya kolleksiyasiga oid kirim va inventar kitoblar ko‘zdan kechirilganda Turkiston o‘lkasi xalqlari maishiy turmushi bilan bog‘liq bo‘lgan katta miqdorda osori-atiqalar jamlanganini gubohi bo‘ldik. Samarqandda muzey tashkil etilganidan boshlab o‘tgan vaqt davomida Samarqand muzeyida asosan Markaziy Osiyo xalqining urf-odatlarini, udumlari, kiyinishi bilan bog‘liq ashyolarni jamlagan 30 dan ortiq kolleksiyani tashkil etuvchi 30 mingga yaqin etnografik ashyolar saqlanadi.

Dekorativ kashtachilik, mayda kashtachilik, ayollar kiyimi, erkaklar kiyimi, bosh kiyimlar, gazlamalar va gulbosma, zardo‘zlik, ayollar ro‘mollari, belbog‘ va dastro‘mollar, kelinlik ziynatlari,

tilloqosh, bilaguzuk, zirak, uzuk, daspona, haykal, zebigardon, murg'ak, tanga qatori, tavq, tumor, bozband, qo'ltiq tumorlar Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasining noyob durdonalaridandir. Xorazm, Qoraqalpog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Qozoqiston ayollari taqinchoqlaridan iborat 1500 ashyoni jamlagan kolleksiyalar ayniqsa diqqatga sazovordir.

Gilam mahsulotlaridan iborat kolleksiyada XVIII asr oxiri – XX asr boshlariga oid Turkmaniston, Qashqadaryo viloyati, Farg'ona, Samarqand, Nurotada tayyorlangan 500 dan ortiq gilam va gilam mahsulotlari mavjud.

Badiiy metal kolleksiyasi Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Xorazm, Farg'onada ishlab chiqarilgan mis idish-tovoqlar, choyjush, obdasta, oftoba, qumg'on, miskosa, la'li, chilimlardan iborat bo'lib, ularning soni 3 mingga yaqindir.

Shular qatorida terida ishlangan juzgir, g'iloqlar, me'morchilikda ishlatilgan yog'och buyumlar, yog'och o'ymakorligi, chinni mahsulotlari, fayansdan ishlangan uy-ro'zg'or idishlari, musiqa cholg'u asboblari, qashqar ruboblari, chang, tanbur, nog'ora, doira kabi ashyolar ham muzey-qo'riqxonaning etnografiya kolleksiyasidan o'rin olgan. Ushbu tadqiqotimizda muzey-qo'riqxonaning etnografik kolleksiyasining shakllanishi va komplekslashtirilishiga to'xtalamiz.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi hamda mustabid sovet tuzumi davriga oid Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi arxivida saqlanayotgan hujjatlar va Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi tarixi bilan bog'liq tadqiqotlarda mavzuga oid ba'zi ma'lumotlarni uchratish mumkin. Mazkur ma'lumotlarda Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi etnografik kolleksiyasining shakllanishi, olib borilgan ilmiy-etnografik ekspeditsiyalar, etnografik kolleksiyalarning to'planishi, tadqiq etilishi va muzeylashtirilishi bilan bog'liq masalalar o'rin olgan bo'lib, ularning aksariyati ilmiy muomalaga kiritilmagan. Bevosita muzey-qo'riqxonada faoliyat ko'rsatgan olimlardan M.Yunusovning tadqiqotida [18;] Samarqandda muzey ishining shakllanishi va rivojlanishi ko'rib chiqilgan. Muallif muzey-qo'riqxonaning etnografiya kolleksiyasiga murojaat qilar ekan, asosan, viloyatda muzey ishining shakllanishi bosqichida yig'ilgan to'plamlarni ko'rsatib o'tadi. M.Yusupovning tadqiqotida [19;] Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi tarixining 50 yilligi ma'lumotnoma tarzida sarhisob qilingan. Unda Samarqand muzeyining kolleksiyalariga ta'rif berilar ekan, etnografiyaga oid kolleksiyalarning adadi eslatib o'tiladi.

O.Suxarevaning tadqiqotlarida [11;12;13;14;15;16;] Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi etnografik kolleksiyalari asosida O'zbekiston xalqlarining maishiy turmush tarzi, shaharlar hayoti, kiyinish madaniyati tahlil etilgan. G.Orifjonovning tadqiqot ishida XIX–XX asr boshlariga oid O'zbekiston etnomadaniy merosini saqlash, tadqiq etish va namoyish etish masalalari O'zbekiston muzeylari misolida tahlil qilishga harakat qilingan, ammo tadqiqotda Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi kolleksiyalariga juda kam murojaat qilingan [10;].

Tahlil etilgan adabiyotlarda Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi etnografiya kolleksiyasi bazasida Samarqandda etnomuzey va etnografik mahallalar tashkil etish istiqbollari tahlil etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, tahlilning mantiqiy usullari hamda natijani ilmiy o'rganish uslublaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Muzeyning dastlabki kolleksiyalari haqida sharqshunos M.Rostislavovning “Zarafshon okrugida arxeologik izlanishlar haqida” nomli maqolasida ma’lumotlar keltiriladi. Maqolada keltirilishicha, Samarqand muzeyi dastlab tashkil etilganda, arxeologiya ashyolari va boshqa topilmalarni soni ko‘paygan sari Zarafshon vohasi kanselyariya bo‘limi xalqdan ajratilgan maxsus mablag‘larga qadimiy qo‘lyozma kitob va hujjatlar, tangalar bilan birga etnografik ashyolarni sotib olgan. Bu Samarqand muzeyining etnografik kolleksiyasi haqidagi dastlabki, manba hisoblanadi. Ammo o‘sha “etnografik ashyolar” hozir qayerda ekanligi va qaysi ashyolar ekanligi haqida tasavvur qilish qiyin. Chunki, Samarqand muzeyida ashyolarni ilmiy hisobga olish va tizimlashtirish ishlari XX asrning 20-yillaridan boshlangan.

1883-yilda Turkiston general-gubernatori M.Chernyaev buyrug‘i bilan muzeyning arxeologik, numizmatik, qo‘lyozma, kolleksiyalari bilan birga etnografik kolleksiyasining ham asosiy qismi Toshkent muzeyiga va uning qoshidagi kitob omboriga yuboriladi. Muzeyning qolgan kolleksiyasi o‘sha vaqtdagi statistika komiteti binosida qoldiriladi. Shunday bo‘lsa-da, Samarqandda muzey faoliyati to‘xtab qolgan emas. Aksincha, shu vaqtgacha norasmiy tarzda faoliyat yuritgan Samarqand muzeyi 1896-yilda rasman tashkil etiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, muzey dastlab tashkil etilganidayoq salmoqli hajmda etnografik ashyolarga ega edi.

XX asr boshlariga kelib, muzeydagi xalq maishiy turmushiga oid ashyolar ko‘payib borgan. 1911-yilda muzey uchun maxsus bino qurib bitkaziladi va muzey Samarqand shahar kutubxona va muzeyi nomini oladi. Samarqand muzeyi qoshidagi maxsus kuzatuv qo‘mitasi raisi Brjeziskiy 1911-yil 10-dekabrda muzeyning yangi binosi ochilishi munosabati bilan so‘zga chiqib, Samarqand muzeyini Samarqand viloyatining, imkon qadar boshqa viloyatlarning ham qadimiy ashyolarini, sanoat, fan, she’riyat, san’atga oid kamyob ashyolarini saqlash joyi sifatida ko‘rish istagini, buning uchun uning tarkibida kichik hajmda bo‘lsa-da, mablag‘ga qarab tarix-arxeologiya, tarix-tabiat, badiiy, qishloq xo‘jaligi bo‘limlari bilan birga etnografiya bo‘limini ham ochish zarurligini ta’kidlaydi.

Yig‘ilishda muzeyning bir necha bo‘limdan iborat bo‘lg‘usi katalogini tuzish dasturi ishlab chiqiladi. Unda quyidagi bo‘limlar nazarda tutildi:

1. Bosma kitoblar bo‘limi (kutubxona);
2. Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilishi, shuningdek, Samarqand ruslar tomonidan bosib olinishiga qadar bo‘lgan davrga tegishli bo‘lgan qo‘lyozmalar bo‘limi;
3. Sharq qadimiyati va etnografiya bo‘limi;
4. Turkiston o‘lkasi, shuningdek, boshqa o‘lkalar xalqlari tanga va medallari bo‘limi;
5. Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilishiga qadar bo‘lgan davrda xonliklar va viloyatlar chegaralariga taalluqli topografik xaritalar, rasmlar, gravyuralar, fotografiyalar, portretlar, badiiy kartinalar bo‘limi;
6. Botanika bo‘limi;
7. Zoologiya bo‘limi;
8. Paleontologiya bo‘limi;
9. Mineralogiya bo‘limi;
10. Qishloq xo‘jaligi bo‘limi;

Turkistonda sovet hokimiyati o'rnatilishi arafasida 1917-yilda gubernator N.S. Likoshin tomonidan Samarqand muzeyiga Xo'jand sopol buyumlari (24 dona), Rishton sopol buyumlari (4 dona) va turli maktablarga xos (3 dona) boshqa sopol buyumlar to'plami sovg'a qilingan [3; 1-116]. Muzeyshunos olim M.Yunusov o'z tadqiqotida Samarqand muzeyiga 1917-yilga qadar qabul qilingan jami 78 dona etnografik ashyo qabul qilinish tarixini yoritgan [18;].

1917-yilgi o'zgarishlar muzeylar tizimida ham namoyon bo'ldi. Muzey ish sohasini tartibga solish borasida ishlar boshlandi. Dastlab, 1918–1920-yillarda muzey ishi va yodgorliklarni muhofaza qilish davlat boshqaruvi tizimi yaratildi [9; 130]. Shu tariqa muzeylarga va muzey ishiga bo'lgan munosabat ham o'zgardi. Sovet hokimiyati o'rnatilganining dastlabki yillarida O'zbekiston maorifi xalq komissarligi (Narkompros) Xo'jand va Andijon sopoli jamlanmasi va bir nechta Buxoro amirligi xazinasiga tegishli zardo'zlik ashyolari bilan muzey fondini yanada boyishiga hissa qo'shdi.

1920-yilda viloyat muzeyi nomini olgan. 1922-yil muzeyda etnografiya bo'limini ham tashkil etish rejalashtiriladi. Ammo joy yetishmovchiligi bois 1925-yilga kelib tashkil etiladi. 1922-yil holatiga 31 dona etnografiyaga taalluqli ashyolar qabul qilinadi [1; 118]. Undan tashqari 72 dona maishiy turmushga oid eksponatlar ham qabul qilingan.

1922-yilda Samarqand muzeyi ashyolarining soni quyidagicha edi:

- ✓ zoologiyaga oid ashyolar – 6 384 dona;
- ✓ botanikaga oid ashyolar – 250 dona;
- ✓ mineralshunoslikka oid ashyolar – 203 dona;
- ✓ harbiy bo'lim ashyolari – 105 dona;
- ✓ arxeologiya oid ashyolar – 794 dona;
- ✓ tangashunoslikka oid ashyolar – 821 dona;
- ✓ etnografiyaga oid ashyolar – 199 dona;
- ✓ boshqalar – 411 dona;
- ✓ jami muzey fondi 9 169 dona [2; 36].

1929-yilda Etnografiya bo'limiga Buxoro, Kattaqo'rg'on, Xo'jand, Toshkent va Samarqandlik ustalar tomonidan ishlangan zamonaviy sopol buyumlar to'plami kelib tushadi [2; 36].

Samarqand muzeyining kolleksiyalari boyib borishi, ularning to'planishi geografiyasi ham kengayib borib, viloyat miqyosidan respublika miqyosiga o'tganligi natijasida 1930-yilda O'zbekiston markaziy davlat muzeyi, ya'ni Respublika muzeyi sifatida qayta tashkil etiladi.

1930-yil 5-mayda O'zbekiston Xalq komissarlari kengashining muzeyni "O'zbekiston markaziy davlat muzeyi" deb nomlash va qayta tashkil etish haqida qarori qabul qilinadi. Shuningdek, muzeyning yangi nizomi tasdiqlanib, xodimlar soni va byudjeti kengayadi. Shu paytgacha muzeyda direktor, 1 shtat birligidan ilmiy xodim va 2 ta shtat birligida qorovul bo'lgan bo'lsa, muzeyga Respublika muzeyi maqomi berilishi bilan quyidagi shtatlar ajratiladi:

1. Direktor – 1 shtat birligida;
2. Direktor o'rinbosari – ilmiy bo'lim rahbari – 1 shtat birligida;
3. Badiiy galereya mudiri – 1 shtat birligida;

4. Ilmiy kotib, bir vaqtning o'zida ilmiy xodim – 1 shtat birligida;
5. Tarix va arxeologiya bo'limi mudiri – 1 shtat birligida;
6. Tabiiy ishlab chiqaruvchi kuchlar bo'limi mudiri – 1 shtat birligida;
7. Inqilobiy harakatlar tarixi bo'limi ilmiy muhofizi – 1 shtat birligida;
8. Xalq xo'jaligi bo'limi ilmiy muhofizi – 1 shtat birligida;
9. Etnografiya bo'limi ilmiy muhofizi – 1 shtat birligida;
10. Tozalovchi-qorovul – 2 shtat birligida;
11. Qarovul-bog'bon – 1 shtat birligida.

Shu tariqa etnografiya bo'limida alohida ilmiy xodim faoliyat boshlaydi. Samarqand muzeyiga Respublika muzeyi maqomi berilgach, muzey ashyolarini to'plash ishlari Respublika bo'ylab amalga oshirilishi huquqiy jihatdan ham mustahkamlandi va yanada jonlandi.

1932 yil 15 iyundan - 15 sentyabrgacha Samarqand muzeyi xodimlaridan Sneryov, Jdanko, Kotovskiy, Saidjonov boshchiligidagi muzey ashyolarini to'plash maqsadida Buxoro – Xorazm – Samarqand – Chorjuy – To'rtko'l – Yangi Urganch – Xiva – Gurlan – Xonqa – Hazorasp – Buxoro – Samarqand marshrutlari bo'yicha muzey xazinasiga etnografiya, numizmatika, hujjatlar fondiga tegishli ashyolar olib kelish maqsadida rejali ekspeditsiya tashkil qilinadi. Natijada, arxeologik ashyolar va tarixiy hujjatlar bilan birga maishiy turmushga oid 200 dan ortiq eksponatlar jamlanadi.

1933-yilda joy torligidan muzey kolleksiyasining bir qismi Registon ansamblidagi Ulug'bek madrasasi ichiga ko'chirildi. 1939-yilda savdogar Avraam Kalontarovning uyi (hozirgi viloyat o'lkashunoslik muzeyi binosi) muzey uchun foydalanishga topshiriladi va muzey shu joyda faoliyat boshladi. 1945-yilda Respublika rahbariyatining qarori bilan O'zbek xalqi madaniyati Respublika muzeyi, deb qayta nomlangan.

1945-yil holatiga Samarqand muzeyida tabiatga oid kolleksiyalar 11 ming 126 dona, arxeologiya 26 ming 871 dona, numizmatika 9 ming 988 dona, qo'lyozmalar fondi 1 ming 140 dona, ijtimoiy madaniyat ashyolari 6 ming 666 dona, fototeka bo'limi ashyolari 18 ming 930 donani tashkil etgan bo'lsa, etnografiya kolleksiyasi 5 ming 620 dona ashyolardan iborat edi.

Madaniyat va san'at, xalq maishiy turmushiga oid salmoqli kolleksiyalarning to'planishi natijasida muzey 1955-yil oktyabrdan O'zbekiston madaniyati va san'ati tarixi Respublika muzeyi nomini oladi.

Samarqand muzeyi "madaniyat va san'at tarixi" yo'nalishini olgan davrdan boshlab ayni yo'nalishda muzey fondining boyitilishi ishlari ham olib borila boshlandi. Ayni paytda muzeyning o'sha vaqtda Respublika muzeyi sifatida nomlanishi muzey xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan ekspeditsiyalarning geografik ramkasini ham belgilab bergan edi. Ya'ni, o'tkaziladigan turli ekspeditsiyalar, ilmiy safarlar O'zbekistonning barcha viloyat va tumanlarini qamrab olishi, asosan madaniyat va san'at yo'nalishida bo'lishi lozim edi.

Shu nuqtai-nazardan ekspeditsiyalarning yo'nalishini tuzish ishida tabiiyki muzey fondi va ko'rgazmalaridagi talabdan kelib chiqilgan. Ya'ni fondni madaniyat va san'at yo'nalishida boyitishda O'zbekistonning ma'lum hududiga oid to'liq bo'lmagan jamlanmalarni to'ldirish yo'lidan borilgan.

Respublika hukumatining 21-iyul 1969-yildagi № 343-sonli qarori bilan Samarqand muzeyi Respublikaning bosh muzeylaridan biri sifatida O'zbekiston davlat madaniyat va san'at tarixi muzeyi

nomini oladi. Shu bilan birga Samarqand muzeyiga viloyat muzeylariga ilmiy-uslubiy rahbarlik qilish yuklatiladi. Muzey shu nom bilan 2005-yilgacha atalib kelindi. 2005-yildan e'tiboran O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi deb nomlanadi (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining 2005-yil 7-apreldagi 249-sonli buyrug'iga asosan yangi Nizom ishlab chiqilgan).

O'zbekiston hukumatining 26-may 1982-yildagi №397 sonli qaroriga binoan A.Ikromov nomli O'zbekiston davlat madaniyat va san'at tarixi muzeyi bazasida Samarqand davlat muzey qo'riqxonasi tashkil etiladi.

1982-yilda "Yodgorliklarni muzeylashtirishning 1990-yilgacha bo'lgan istiqbolli rejasi" tuziladi. Rejaga muvofiq, uning tarkibida juda ko'plab muzeylar tashkil etilishi belgilangan edi. Ushbu rejaga muvofiq Samarqand shahrida tashkil etilishi rejalashtirilgan 10 dan ortiq muzey va ko'rgazmalar bilan birga Qo'shhovuz majmuasida "Etnografiya va maishiy turmush muzeyi" tashkil etish bo'yicha ilmiy ishlanmalar tayyorlangan. Shuningdek, Sherdor madrasasida O'zbekiston xalqlari musiqa asboblari muzeyi, Shohizinda ansamblida XIX asr oxiri – XX asr boshlari yog'och o'ymakorligi muzeyi tashkil etish ko'zda tutilgan edi. Afsuski, muzey-qo'riqxonaga moddiy-texnik jihatdan yetarli darajada ta'minlanmaganligi tufayli yuqorida keltirilgan ba'zi muzey va ko'rgazmalarning tashkil etilishi amalga oshmadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, XX asrning 20-yillarida O'zbekiston muzeylarida, shu jumladan, Samarqand muzeyida dastlabki ilmiy hisobga olish, ilmiy-tadqiqot, muzey jamlanmalarini tizimlashtirish va boyitish kabi muzeylarning asosiy funksiyalarini bajarishga kirishildi. Natijada kolleksiyalarda yetishmayotgan eksponatlardan kelib chiqib, muzey fondlari komplektlashtirildi. Ana shu maishiy turmush, xalq amaliy san'atiga doir salmoqli ashyolar jamlandi. Samarqand muzeyida etnografik bo'lim ochildi. 30-yillarda esa ushbu jarayon faol davom ettirilib, Samarqand viloyati hududidagi madaniy meros ob'ektlarini ro'yxatga olish ishlari, arxeologik ob'ektlarni tadqiq etish ishlari, etnografik ekspeditsiyalar tashkil etildi. Muzeylarni boshqarish, muzey ashyolarini komplektlashtirish, ro'yxatga olish sohasida amalga oshirilgan ishlar, Respublikadagi madaniy meros ob'ektlarining ro'yxatga olinishi, ilmiy tavsifining yaratilishi; 30-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab arxeologik va etnografik ekspeditsiyalar natijasida qo'lgan kiritilgan salmoqli ashyolar hisobiga 1955-yilga kelib, Samarqand muzeyi madaniyat va san'at yo'nalishiga ega bo'ldi. Shu munoasabat bilan XX asrning 60-80 yillarida etnografiya sohasiga oid bo'lgan katta miqdordagi eksponatlar butun Respublika, qolaversa qo'shni davlatlar hududlaridan to'plandi. Mazkur ashyolar bugungi kunda Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi etnografiya fondida saqlanmoqda.

Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasining noyob etnografiya kolleksiyasi vositasida Samarqand shahrida "O'zbekiston etnografiya muzeyi" tashkil etish taklif etiladi. Chunki, mavjud kolleksiyalar butun O'zbekiston, qolaversa, O'rta Osiyo hududiga daxldordir. Shu bilan birga, katta va rang-barang etnografik kolleksiyalar vositasida bir necha ilmiy kataloglar nashr etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (Reference)

1. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi ilmiy arxivi, 1-jamga'arma, 1-ro'yxat, 68-jild, 118 b.
2. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi ilmiy arxivi, 1-jamga'arma, 1-ro'yxat, 69-jild, 36 b.
3. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi, Э-87, 88, Э-51 жамланмалари крим китоблари: КСФ. с 208-258, КСФ 199, КСФ с 1-116

4. Splendor's des oasis Uzbekistan. Sur les routes caravanieres d'Asie Centrale. Sous la direction de Rocco Rante et Yannick Lintz. Musee du Louvre, Paris – 2022. Editions el Viso, Madrid et Paris, 2022. P. 356.
5. Sur les routes de Samarkand. Merveilles de soie et d'or. 23 novembre 2022 au 4 juin 2023. Institut du monde arabe, 2023. P. 86.
6. Yunusov M.A. “Samarqand muzeyi kolleksiyasining shakllanish tarixidan”. “O‘zbekiston arxeologiyasi” ilmiy jurnali. 2017. №-14, 61-65 betlar.
7. Yunusov M.A. “Samarqandda muzey ishi: shakllanishi, rivojlanishi va muzeylashtirish tamoyillari”. Tarix fan. bo‘y. fal. dok. disser. avtoreferati. Toshkent, 2024. 51-b.
8. Массон М.Е. Краткий очерк изучения Средней Азии в археологическом отношении. Труды САГУ, вып.81, Исторические науки, Книга 12, Ташкент 1956, – С.10-11;
9. Музейное дело России / Под общей редакцией Каулен М.Е., Коссовой И.М., Сундиевой А.А.– Москва: Издательство «ВК», 2003. - С. 130.
10. Орифжонова Г.Р. «XIX–XX аср бошларида оид Ўзбекистон этномаданий меросини сақлаш, тадқиқ этиш ва намойиш этишининг тарихий-маданий жиҳатлари». Фалсафа фан. док. диссер. автореферати. Тошкент, 2021. 54-бет.
11. Сухарева О.А. «Вопросы изучения костюма Средней Азии». Историко-этнографические очерки. Москва, 1979. Ст. 3-13.
12. Сухарева О.А. «Древние черты в формах головных уборов народов Средней Азии». Среднеазиатский этнографический сборник. Москва, 1954. Ст. 299-353.
13. Сухарева О.А. «К истории городов Бухарского ханства». Историко-этнографические очерки. Ташкент, 1958. Ст. 145.
14. Сухарева О.А. «К истории художественного ремесла в Узбекистане» (производство табакерок). Сборник музея антропологии и этнографии. Т-14. Ст. 119-139.
15. Сухарева О.А. «Позднефеодальный город Бухара конца XIX – начала XX вв. Ремесленная промышленность. Ташкент, 1962. Ст. 194.
16. Сухарева О.А. «Прошлое и настоящее селения Айкыран». Опыт этнографического изучения колхоза им. Сталина Чартакского района Наманганской области (совместно с М.Бикжановой). Ташкент, 1955. Ст. 238.
17. Упфал Г.Я., Забродин Е.Б. К вопросу о дате возникновения Самаркандского музея. Очерки истории музейного дела в СССР. вып-7, М.,1971, - С.400-413.
18. Юнусов М.А. Самарканд музейи коллекциясининг шаклланиш тарихидан. Ўзбекистон археологияси. Илмий журнал. 2017 йил №1 (14) сон.
19. Юсупов М.С. «50-лет Самаркандского музея (1896–1946 гг.)». Самарканд, 1948. Ст. 58.

Davron Islamov

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti assistenti

Published under peer review:

Doctor of Science in History, Associate Professor

Durdona Rasulova,

Uzbekistan

Received 4th May 2024, Accepted 11th May 2024, Online 18th June 2024

SAMARQAND DAVLAT MUZEY-QO'RIQXONASI "NUMIZMATIKA VA MAXSUS SAQLOV" BO'LIMINING TEMURIYLAR DAVRIGA OID KOLLEKSIYALARI SHARHI

Annotatsiya. Maqolada Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi numizmatika va maxsus saqlov fondiga ta'rif berilgan. Ushbu fondagi temuriylar davriga oid kolleksiyalarning soni, tarkibi, tavsifi va shakllanishi haqidagi tahlillar amalga oshirilgan. Shu bilan birga Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi tarkibiga kiruvchi muzeylar va tarixiy obidalaridagi ekspozitsiya va ko'rgazmalarda ushbu fond ashyolarining ishtiroki tahlil etilib, shu yo'nalishdagi muhim tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Kolleksiyalar, muhrlar, tangalar, xazinalar, ilmiy tavsif, hisobga olish, katalog, ko'rgazma, ekspozitsiya, muzey.

Kirish (Introduction).

Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi O'zbekiston hududidagi yirik va dastlabki muzeylardan hisoblanadi. Muzeyda 240 mingga yaqin arxeologiya, numizmatika, etnografiya, qo'lyozmalar, hujjatlar, foto va fotonegativlar, shaxsiy hujjatlar, rang-tasvir va amaliy san'at asarlari yig'ilgan. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston madaniyati tarixini aks etturuvchi xilma-xil va keng miqyosdagi kolleksiya to'plamiga ega muzey hisoblanadi. Muzeyning numizmatika va maxsus saqlov fondi 40 mingdan ortiq saqlash birliklariga egadir.

Ushbu fondga 250 saqlash birligiga ega gemma (o'ymakori qimmatbaho tosh) va muhrlar, 1200 saqlov birligiga ega bo'lgan orden va medallar, 230 dan ortiq qog'oz pullar, 360 ga yaqin nishonlar, 450 dona ivrit tilidagi turli yillarda nashr etilgan qadimiy kitoblar, 50 dan ortiq shaxsiy guvohnomalar, 250 ga yaqin noyob etnografik ashyolar va 32 mingga yaqin numizmatik ashyolar ro'yxatga olingan. Shuning uchun ham ushbu fond "numizmatika va saqlov fondi" deb nomlanadi.

Ushbu maqolani tayyorlash vaqtida numizmatika va saqlov fondida xatlov ketayotganligiga duch keldik. Ya'ni Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi kolleksiyalarini komplektlashtirish maqsadida 360 ga yaqin nishonlar etnografiya fondiga, 450 dona ivrit tilidagi turli yillarda nashr etilgan qadimiy kitoblar, kitoblar fondiga, 50 dan ortiq shaxsiy guvohnomalar shaxsiy hujjatlar fondiga o'tazilayotgan edi. Xatlov yakunlangan taqdirda numizmatika va maxsus saqlov fondida gemma va muhrlar, orden va medallar, noyob etnografik ashyolar va numizmatik ashyolar qoladi.

Hozirda numizmatika va maxsus saqlov fondida 40 mingdan ortiq ashyolar mavjud. Samarqand muzeyi tarixida ilk marta kolleksiyalarni ilmiy ro'yxatga olish ishlari ham aynan numizmatika fondidan boshlangan. M.Masson tomonidan Samarqand muzeyiga mudirlik qilgan davrda numizmatika to'plamining yalpi ro'yxati tuzib chiqiladi. Unga ko'ra ushbu to'plam qadimgi davrdan

xonliklar davrigacha bo'lgan deyarli barcha sulolalar tangalari va oz miqdorda G'arb davlatlari tangalaridan iborat bo'lgan [26; 12-25]

1920-yilda numizmatika to'plami 85 dona eksponatdan iborat asosan O'rta Osiyo hukmdorlari tangalari hisobiga boyitilgan [26; 40-49]. Keyingi yillarda ham ushbu fond kolleksiyonerlar (B. Kastalskiy, S. Nijanskiy, S. I. Novitskiy, I. A. Shakaryants) tomonidan topshirilgan kolleksiyalar hisobiga, arxeologik qazish ishlari natijasida aniqlangan ashyolar hisobiga, aholi tomonidan topshirilgan ashyolar hisobiga boyitilgan. XX asrning 60-80-yillarida M. Urmanova va Ya.Krikislar numizmatika kolleksiyasini ilmiy tavsiflash va saqlashda o'z hissalarini qo'shganlar. Hozirgi vaqtda mazkur kolleksiya Olga Pogorelova tomonidan saqlanadi va ilmiy tavsifi yoziladi.

Yuqoridagilardan tashqari muzey-qo'riqxonalar tarkibiga kiruvchi Kattaqo'rg'on shahar tarixi muzeyida, Ishtixon tumani tarixi muzeyida, Paxtachi tumani tarixi muzeyida ham numizmatik ashyolar saqlanadi. Muzey-qo'riqxonalar hisobotlarida tuman muzeylari kolleksiyalari sohalarga ajratilmagan va "... tumani muzeyi kolleksiyasi" tarzida keltirilgan. Shuning uchun kelgusida ushbu muzeylar kolleksiyalaridagi numizmatik ashyolarning miqdori va tarkibi bo'yicha alohida tadqiqot o'tkazish maqsad qilindi. Muzey-qo'riqxonalar markaziy fondidagi numizmatik kolleksiyalar Amir Temur va temuriylar davri bilan bog'liq qismiga bag'ishlangan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Tadqiqot mavzusi kam o'rganilgan unga oid adabiyotlar ham juda kam. Umuman Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi numizmatika va maxsus saqlov fondidagi hech bo'lmasa bitta kolleksiyaning katalogi nashr etilmagan. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi bosh muhofizi Maxmudxon Yunusovning fikricha, muzey-qo'riqxonada 2021-yildan buyon seriyali tarzda kataloglar nashr etilib kelingan. Ularning ayrimlarida numizmatika va maxsus saqlov fondidagi ba'zi ashyolar kiritilgan. Biroq ushbu fondning alohida katalogi nashr etilmagan. Shu jumladan, temuriylar davriga oid kolleksiyalarning ham katalogi mavjud emas. Biroq, O'zbekistonda va xorijda temuriylar davriga oid kataloglar yoki temuriylar davriga oid ashyolar kiritilgan kataloglar nash etilgan. Jumladan, tadqiqotchi S.M.Eshpulotovning tadqiqot ishida [4; 33-44] Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasidagi temuriylar davriga oid arxeologik kolleksiyalar tahlil etilgan. Muallifning ta'kidlashicha, Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasining 700 dan ortiq temuriylar davri turli tangalari Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 26-maydagi 259-sonli qaroriga asosan Temuriylar tarixi davlat muzeyiga berilgan [4; 35]. Biroq ushbu tadqiqot numizmatik ashyolarni qamrab olmaydi.

A. M. Kamyshevning "Temuriylar va shayboniylar mis tangalari xazinalari" [33;] nomli katalogida Qozog'istonning Chimkent va Taroz viloyatlari muzeylari, Davlat Ermitaji (Sankt-Peterburg), Davlat tarix muzeyi (Moskva) kolleksiyalari, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi kolleksiyalariga murojaat qilingan. Muallif E.A.Davidovich tomonidan taklif qilingan raqamlash tizimidan foydalangan holda XV–XVI asrning birinchi choragidagi Temuriylar va Shayboniylar davriga tegishli bir nechta mis tangalarning katalogini tuzib chiqqan.

T.S.Nuriddinovaning "O'zbekiston davlat san'at muzeyi numizmatika kolleksiyasida saqlanadigan O'rta Osiyo tangalari" [34; 36] nomli maqolasida muzeyda saqlanayotgan boshqa numizmatik ashyolar qatorida Mirzo Ulug'bek davri tangalari xususida qisqa satrlarda to'xtalib o'tgan.

A.A. Bekenovanning "Temuriylar davrida din va xalqaro madaniy aloqalarning muzey ekspozitsiyasida yoritilishi" [3; 530-533] nomli maqolasida Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasining temuriylar bo'limda jami 308 ta eksponat saqlanishini, ular qo'lyozmalar, koshin parchalari, qush tasvirli va islmiy sopol idishlar, o'yma eshik, Amir Temur tobuti, shisha buyumlardan iborat ekanligini qayd etadi.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi tomonidan nashr etilgan “Temuriylar tarixi davlat muzeyi durdonalari” [30;] katalogida muzey fondining shakllanishi, muzeydagi me’moriy bezak namunalari, noyob kulolchilik namunalari, kandakorlik san’ati ashyolari, shishasozlik, qurol-aslahalar, numizmatika ashyolari, zargarlik namunalari, yog’och o’ymakorligi, qo’lyozma va toshbosma kitoblar, tasviriy san’at asarlari, liboslar va temuriylar davriga oid durdonalarning nusxalari xususidagi ma’lumotlar kiritilgan bo’lib, katalog faqat Temuriylar tarixi davlat muzeyi kolleksiyalarini qamrab oladi.

Samarqand davlat muzey-qo’riqxonasi noyob ashyolarini jamlagan “Samarqand muzeyi durdonalari” [27;] katalogida IX-XIX asrlarga oid ba’zi tangalar kiritilgan. Muzeyning yana bir nashri “Amir Temur maqbarasining o’rganilishi tarixidan” [2;] nomli katalogga asosan, O’zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyida tashkil etilgan “Amir Temur maqbarasini o’rganilishi tarixi” nomli ekspozitsiyada joy olgan kolleksiyalar xususida so’z boradi. Amir Temurning yog’ochdan yasalgan tobuti, Amir Temur maqbarasida olib borilgan ta’mirlash ishlari vaqtida aniqlangan shovullar, me’moriy bezak namunalari katalogdan joy olgan arxeologik ashyolar hisoblanadi. Biroq ushbu ekspozitsiyada numizmatik ashyolar namoyishga qo’yilmagan.

O’zbekiston madaniy merosi mualliflik turkumi doirasida nashr etilgan kitob-albomlarning XVIII tomi [1;] Samarqand davlat muzey-qo’riqxonasi kolleksiyalariga oid bo’lib, temuriylar davri san’atiga alohida sahifa ajratilgan. Biroq unda xitoy chinnisi asosida temuriylar davrida kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning yo’lga qo’yilishi, mahalliy kulolchilikning taraqqiy etishi, me’moriy bezak namunalari, tosh o’ymakorligi, yog’och o’ymakorligi namunalari, matolar va kiyinish madaniyati, tarixiy hujjatlar va kitobot san’atiga oid tahlillar keltirib o’tilgan. Muzey-qo’riqxonaning numizmatik kolleksiyalari keltirilmagan.

2022-2023 yillarda Fransiyaning Luvr muzeyida bo’lib o’tgan O’zbekiston muzeylari ashyolari ko’rgazmasi munosabati bilan chop etilgan kataloglarda [27;28;] esa Samarqand davlat muzey-qo’riqxonasida saqlanayotgan somoniylar davriga oid oltin tangalar kiritilgan.

Adabiyotlar tahlilidan ko’rinib turibdiki, Amir Temur va temuriylar davrida oid Samarqand davlat muzey-qo’riqxonasi numizmatik kolleksiyalari alohida tadqiqot ob’yekti sifatida nashr etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Bilishning aniq usullari yig’indisiga tayangan holda ilmiy tahlillar o’tkazilib, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, tahlilning mantiqiy usullari hamda natijani ilmiy o’rganish uslublaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Samarqand davlat muzey-qo’riqxonasi numizmatika va maxsus saqlov fondida saqlanayotgan temuriylar davriga oid kolleksiyalarning shakllanishi turli davrlarda turlicha kechgan. Tadqiqot ishida ushbu kolleksiyalar quyidagi bo’limlarga bo’lib o’rganildi:

- ✓ temuriylar davriga oid muhrlar;
- ✓ kolleksiyonerlar tomonidan topshirilgan temuriylar davriga oid tangalar;
- ✓ temuriylar davriga oid xazinalar;
- ✓ alohida shaxslardan sotib olingan va tuhfa qilingan temuriylar davri tangalari;

Temuriylar davriga oid muhrlar. Samarqand davlat muzey-qo’riqxonasi numizmatika va maxsus saqlov fondida temuriylar davriga oid muhrlar soni 10 donani tashkil etadi. Muhrlarning 1 donasi misdan, 1 donasi kumushdan, 5 donasi qimmatbaho nefrit toshidan, 2 donasi serdolik toshidan, 1 donasi xalseddon toshidan yasalgan. Bitta muhrning muzeyga kelishi tarixi noma’lum va u XX

asrning 30-yillarida o'z ilmiy pasportiga ega bo'lgan [15; 4]. Bu qozi muhri hisoblanib, temuriy hukmdor Sulton Abu Said davriga (1456-1457 yillar) to'g'ri keladi. Muhrda arab yozuvida suls xatida muhr egasining ismi va sanasi ko'rsatilgan.

Muhrlarning qolgan 9 donasi B.Kastalskiy kolleksiyasiga oiddir. Ushbu ashyolar B.Kastalskiy tomonidan 1894-1914 yillarda Samarqandda to'plangan va 1938-yilda muzeyga topshirilgan. Ushbu muhrlarning barchasi so'nggi temuriy hukmdorlar davriga oiddir [15; 14-39].

Kolleksiyonerlar tomonidan topshirilgan temuriylar davriga oid tangalar. Bunday ashyolarning umumiy soni 78 donani tashkil etadi. Ular V.Vyatkin, B. Kastalskiy, S. Nijanskiy, S. Novitskiylar tomonidan turli davrlarda muzeyga topshirilgan ashyolardan iborat. V.Vyatkin kolleksiyasi uning o'limidan 1 yil o'tib 1933-yilda Samarqand muzeyiga olinadi [31; 57]. Kolleksiya 1340 donani tashkil etuvchi turli buyumlar o'rin olgan [14; 157-159]. Ekspozitsiyalarning 33 donasi temuriylar davriga oid tangalardir. Tangalarning 15 donasi Amir Temurning Mahmud Sulton va Suyurg'otmish nomidan zarb ettirgan tangalari [23; 176-177, 188-196] bo'lib, ularning 3 donasi Qarshida, 3 dona Buxoroda qolgan 9 donasi Samarqandda zarb qilingan. Tangalarning 11 donasi kichik kumush tangamiriy, 4 tasi mis tangalar hisoblanadi. Kolleksiya 18 dona tangalar esa boshqa temuriylar tomonidan zarb qilingan mis tangalardir [23; 186-199; 24; 1]. Tangalar asosan XV asrning ikkinchi yarmida Samarqand, Buxoro, Qarshi, Shohruxiya va Andijon shaharlarida zarb etilgan.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan B. Kastalskiy kolleksiyasida temuriylar davriga oid bo'lgan 35 saqlash birligidan iborat tangalar ham ro'yxatga olingan [24; 25]. Ularning 18 donasi Amir Temur tomonidan zarb qilingan kichik kumush tangamiriy bo'lib, barchasi Samarqandda zarb qilingan [24; 161, 170-173, 176]. Tangalarning beshtasi Amir Temurning mis tangasi hisoblanib, kirim kitoblaridagi qaydlarga ko'ra 2 donasi zarb qilingan joyi aniqlanmagan, 3 donasi Samarqandda zarb qilingan [25; 6, 37, 53, 56, 58]. Ushbu kolleksiyadagi tangalarning 3 donasi Amir Temurning katta kumush tangasi bo'lib, ularning 1 donasi ilmiy qaydlarga ko'ra zarb qilingan joyi aniqlanmagan, 2 donasi esa Samarqandda zarb qilingan [24; 174-175]. Kolleksiya 8 dona tangalar boshqa temuriylar tomonidan zarb qilingan mis tangalardan tarkib topgan bo'lib, ularning 3 donasi Samarqandda, 3 donasi Buxoroda, 1 donasi Hirotda zarb qilingan. Kolleksiya 1 dona ashyo rasmiy qaydlarga ko'ra zarb qilingan joyi noma'lum [24; 183; 25; 28, 30, 32, 45, 49, 53].

S. Novitskiy kolleksiyasi 1938-yilda Samarqand muzeyiga olingan. Mazkur kolleksiyada ham Mirzo Ulug'bek va boshqa temuriylarning 4 dona mis tangalari ro'yxatga olingan. Tangalarning 3 donasi Mirzo Ulug'bek tomonidan Samarqand va Buxoroda zarb qilingan. 1 donasi XV asr oxirida zarb qilingan [23; 97-98, 151].

S. Nijanskiy kolleksiyasida temuriylar davriga oid jami 6 dona tangalar ro'yxatga olingan. Ularning barchasi temuriy hukmdorlar tomonidan zarb qilingan. Jumladan, kolleksiyadagi tangalarning 1 donasi Halil Sulton tomonidan Samarqandda zarb qilingan bo'lsa, qolgan 5 donasi boshqa temuriylar tomonidan Hisorda zarb qilingan [22; 90-92].

Temuriylar davriga oid xazinalar. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi numizmatika va maxsus saqlov fondida temuriylar davriga oid jami 15 ta xazinalar ro'yxatga olingan. Muzeylarda "xazina" deganda 2 va undan ortiq bir joydan topilgan yoki aholidan qabul qilingan tangalar tushuniladi. Xazinalardagi tangalar soni odatda 10 donadan 3-5 ming donagacha bo'ladi. Biz ko'rib chiqqan xazinalarda nafaqat temuriylar, balki boshqa sulolalar tangalari ham bor.

Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi numizmatika va maxsus saqlov fondida KP-3636 raqami bilan ro'yxatga olingan xazina 685 donani tashkil etadi [8; 97]. Xazina Samarqand viloyati Pstdarg'om tumani Juma shahridan 1976-yilda yer ishlari vaqtida aniqlangan va A.

Tursunov tomonidan muzeyga sovg'a qilingan. Biroq xazinadagi tangalarning qanchasi temuriylar davriga oid ekanligi aniq emas. Sababi ushbu xazina hali ilmiy tavsiflanmagan. Kirim kitoblaridagi rasmiy qaydlarga ko'ra, tangalar XV asr oxiri – XVI asr boshlariga, ya'ni so'nggi temuriylar va ilk shayboniylar davriga oid. Muzey-qo'riqxonadagi barcha numizmatik kolleksiyalar bitta xodim tomonidan ilmiy ishlanadi. Ashyolarni hisobga olish, dastlabki himoya hujjatlarini tuzish, ilmiy tavsifini yaratish, elektron bazaaga kiritish kabi ishlar ana shu xodim tomonidan bajariladi. Eslatib o'tilgan tuman muzeylarida ham alohida numizmat shtati mavjud emas. Ularning ham numizmatik kolleksiyalari muzey-qo'riqxona markaziy fondi ilmiy xodimi tomonidan ilmiy ishlanadi.

KP-4114 raqami bilan ro'yxatga olingan xazinada 24 dona temuriylar davriga oid mis tangalar ro'yxatga olingan. Xazina 1957-yilda Samarqand shahrida yashovchi I. Mo'minov tomonidan muzeyga sovg'a qilingan. Biroq 1982-yilga kelib, ilmiy ro'yxatga olingan. Tangalarning barchasi XV asrning ikkinchi yarmida Andijon, Samarqand, Qarshi, Balx va Buxoroda zarb qilingan. Xazinadagi tangalar soni aslida 26 dona bo'lgan, ulardan ikki donasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 26-maydagi 259-sonli qaroriga asosan Temuriylar tarixi davlat muzeyiga berilgan [9; 188].

KP-4353/1-550 raqami bilan ro'yxatga olingan xazinadagi ashyolar soni 550 donani tashkil etadi. Ushbu tangalar 1428-yildan boshlab XV asr oxiriga qadar zarb qilingan. Tangalar Buxoro, Samarqand, Hisor, Qarshi, Shohruxiya, Andijon shaharlarida zarb qilingan [10; 9]. Xazina Samarqand viloyati Ishtixon tumanidagi sobiq E.Telman nomli jamoa xo'jaligi, Yodgorxo'ja qishlog'ida yashovchi Ro'ziqul Babayev tomonidan o'z tomorqasidan topilgan va 1984-yilda muzeyga 60 rubl pul evaziga topshirilgan. Tangalarning katta qismi Mirzo Ulug'bekning pul islohoti davrida 1428–1429 yillarda Samarqand va Buxoroda zarb qilingan. Shu bilan birga qisman XV asrning ikkinchi yarmiga oid temuriy hukmdorlar tangalari ham mavjud [20; 136-200; 20; 1-124].

KP-5586/1-33 raqamli xazinada jami 33 dona tangalar ro'yxatga olingan bo'lib [11; 54], Amir Temur tomonidan Suyurg'otmish va Mahmud Sultonlar nomidan Samarqand, Yazd, Isfaxon va Xorazmda 1383-1405 yillar oralig'ida zarb qilingan. Kolleksiya Samarqand viloyat o'lkashunoslik muzeyi ilmiy xodimi Yu.Davidyan tomonidan Taxtiqoracha davonining eng yuqori qismidan 400 metr uzoqlikda joylashgan Qurlug yurt qishlog'ida 1983-1991 yillarda olib borilgan arxeologik qazish ishlari natijasida aniqlangan va muzeyga topshirilgan. Ushbu kolleksiya tarkibida metallardan ishlangan boshqa arxeologik topilmalar ham mavjud bo'lib, ular haqida S.Eshpulatovning yuqoridagi maqolasida aytib o'tilgan.

KP-6085 raqami bilan ro'yxatga olingan xazina 1250 dona XV asr oxiri –XVI asr boshlariga, ya'ni so'nggi temuriylar va ilk shayboniy hukmdorlarga oiddir. Xazina 2006-yilda Jizzax viloyati, Baxmal tumani Saroy qishlog'idan topilgan va 350 ming so'm mukofot evaziga muzeyga topshirilgan [12; 25]. Afsuski ushbu xazinadagi tangalarning qancha qismi temuriylar davriga oid ekanligi aniqlanmagan, ya'ni xazinaga ilmiy tavsif berilmagan. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan shunday xazinada bo'lgani kabi kirim kitobidagi rasmiy qaydlarga ko'ra, tangalarning tuzilishiga qarab XV asr oxiri – XVI asr boshlariga taalluqli ekanligi aniqlangan.

KP-2832/1 raqami bilan muzey-qo'riqxona fondiga kirim qilingan navbatdagi xazinada temuriy hukmdorlar tomonidan XV asrning ikkinchi yarmida Buxoroda zarb qilingan 20 dona mis tangalar jamlangan [5; 78]. Xazina 1957-yilda maktab o'quvchilari tomonidan Registon ansamblidagi Sherdor madrasasi atrofidan topilgan bo'lib, temuriylar davri tangalaridan tashqari bir necha metall va shisha buyumlar ham mavjud.

KP-2919 raqamli xazinada jami 119 dona mis va 2 dona kumush asosan Mirzo Ulug'bekning pul islohoti davrida va qisman undan keying yillarda, XV asr oxiriga qadar zarb qilingan tangalar

jamlangan. Tangalar Buxoro, Termiz, Shohruxiyada zarb qilingan [6; 59]. Xazina 1961-yilda Jizzax viloyati Forish tumanidagi Nurak qishlog'i'dagi tepalikdan xom g'isht quyish uchun tuproq olish vaqtida 1 metr chuqurlikdan topilgan.

KP-3419/2 raqamli xazinada jami 74 dona temuriylar davriga oid mis tangalar ro'yxatga olingan [7; 302]. Ushbu tangalar ham 1428-yildan boshlab XV asr oxiriga qadar bo'lgan vaqtda Samarqand, Buxoro, Qarshi, Xisor, Shohruxiya, Andijon shaharlarida zarb qilingan. Tangalar 1969-yilda Samarqand shahri Registon maydoni yaqinidan aholi tomonidan katlovan qazish vaqtida topilgan va muzeyga topshirilgan. Xazina tarix fanlari doktori Ye.Davidovich tomonidan o'rganilgan va ilmiy tasniflangan.

KP-3490 raqami ro'yxatga olingan xazinada jami 215 dona XV asr oxiri – XVI asr bopshlariga oid tangalar jamlangan [8; 10]. Xazina 1974-yilda Pastdarg'om tumanidagi sobiq Lenin jamoa xo'jaligi hududidan topilgan va 20 rubl mukofot evaziga muzeyga topshirilgan. Tangalar Buxoro, Qarshi, Hisor, Shohruxiyada zarb qilingan. Xazinadagi tangalarning katta qismi –165 donasi Mirzo Ulug'bek tomonidan 1428-yilda zarb qilingan. Juda kam qismi-13 donasi XVI asr boshida Shayboniyxon va Ko'chkinchixon tomonidan zarb qilingan. Xazinadagi qolgan tangalar XV asrning ikkinchi yarmiga oid [35; 180-202; 10; 1-47].

KP-5949/1-54 raqami bilan ro'yxatga olingan xazina jami 54 dona mis tangalar jamlangan [11; 19]. Tangalar 1428-yildan boshlab XV asr oxiriga qadar bo'lgan vaqtda Samarqand, Buxoro, Xisor, Shohruxiya, Andijon shaharlarida zarb qilingan. Xazina 1998-yilda Shoxizinda ansamblidagi yozgi masjidning orqa tomonidan topilgan. 1999-yilda restavratsiya instituti bosh me'mori I.Nurullayev tomonidan muzeyga topshirilgan.

KP-6268 raqami bilan qayd etilgan xazinada 2922 dona so'nggi temuriylar va ilk shayboniylar tomonidan Buxoro va Samarqandda zarb qilingan mis tangalar jamlangan [13; 63]. Ushbu xazina muzeyga kirim qilinishi tarixi noma'lum. 2016-yilga qadar faqat inventar raqamga ega bo'lgan va shu yili kirim raqami berilib, asosiy fond ashyosi sifatida ro'yxatga olingan. Xazinaning oz qismi-44 donasi temuriylar davriga oid tangalar hisoblanadi [19; 91-103].

Temuriylar davriga oid xazinalarning oxirgisi KP-6285 raqami bilan ro'yxatga olingan. Xazinada 1428-1429 yillarda Mirzo Ulug'bek tomonidan Buxoro va Qarshida zarb qilingan 19 dona mis tangalar jamlangan. Xazina 1917-yilda Xo'ja Ahror Valiy maqbarasi yaqinidan topilgan va yaqin yillargacha inventar raqamga ega bo'lgan. 2017-yilda ushbu xazina asosiy fond ashyosi sifatida rasmiylashtirilgan [13; 73].

KP-4700 raqamli xazinada temuriy hukmdorlarga oid bo'lgan jami 30 dona mis tangalar to'plangan. Ushbu tangalar 1986-yilda Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondini markazlashtirish vaqtida Samarqand viloyat o'lkashunoslik muzeyidan olingan [10; 195].

KP-6386 raqamli xazinada jami 41 dona temuriylar davriga oid tangalar to'plangan [13; 152]. Ularning 1 donasi Amir Temurning kichik kumush tangasi bo'lsa, 40 donasi boshqa temuriy hukmdorlar tomonidan turli shaharlarda zarb qilingan mis tangalar hisoblanadi. Ushbu xazina 2021-yilda Samarqand arxeologiya instituti tomonidan muzey-qo'riqxonaga topshirilgan.

KP-6486 raqami bilan ro'yxatga olingan xazinada temuriylar va shayboniylar davriga oid jami 88 dona mis tangalar jamlangan. Afsuski ushbu xazina ham to'liq ilmiy o'rganilmagan. Shuning uchun ham undagi tangalarning qanchasi temuriylar davriga oid ekanligini aniqlash imkoni bo'lmadi.

Alohida shaxslardan sotib olingan va tuhfa qilingan temuriylar davri tangalari. Bunday tangalar turli yillarda turli vaziyatlarda, turli shaxslar tomonidan muzeyga topshirilgan tangalar hisoblanadi.

Ularning aksariyati tasodifiy tarzda topilgan. Bunday ashyolarning umumiy soni 78 donani tashkil etadi. Ularning 44 donasi turli temuriy hukmdorlarning mis tangalari, 7 donasi Amir Temurning kichik kumush tangasi (miriy), 3 donasi Shohrux Mirzoning katta kumush tangasi (tanga), 2 donasi Amir Temurning katta kumush tangasi, 2 donasi Amir Temurning mis tangasi hisoblanadi. Bundan tashqari Amir Temur tomonidan bronzadan zarb qilingan 20 dona tanga ham muzeyga kirim qilingan. Bu noyob tanga faqatgina 1393-yilda (795 yil hijriy) kam miqdorda zarb qilingan [32;]. KP-96497/1-20 raqami bilan ro'yxatga olingan mazkur tangalar "O'zbekiston madaniy merosi dunyo to'plamlarida" loyihasining rahbari, F.Abduxoliqov tomonidan O'zbekiston madaniy merosiga bag'ishlangan VI Kongress tadbirlari vaqtida muzey-qo'riqxonaga topshirilgan.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan temuriylar davriga oid ashyolardan tashqari muzeyga kirim qilinish tarixi noma'lum bo'lgan 15 dona tanga ham mavjud. Ularning 8 donasi Mirzo Ulug'bekning mis tangalari bo'lsa, 1 donasi Shohrux Mirzoning katta kumush tangasi, 6 donasi boshqa temuriy hukmdorlarning katta kumush tangasi hisoblanadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

O'tkazilgan tahlillar natijasida shu narsa aniq bo'ldiki, Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi numizmatika va maxsus saqlov fondida 1300 dona Amir Temur va temuriylar davriga oid ashyolar saqlanadi. Aslida ularning soni bundan ko'p. Chunki ko'rib chiqilgan xazinalardagi 1957 dona tangalarga ilmiy tavsif berilmaganligi tufayli ularning qanchasi temuriylarga oid ekanligini aniqlash imkoni bo'lmadi. Shuni hisobga olib, mazkur xazinalarni ilmiy tadqiq etish va tizimlashtirish taklif etiladi. Buning uchun olimlar o'rtasida ilmiy muloqotni tashkil etish yaxshi samara beradi.

Numizmatik kolleksiyalar tahlil etilganda aksariyat hollarda temuriylar tangalari bilan shayboniylar tangalari ham bitta xazinada aniqlanganligini guvohi bo'lish mumkin. Bu esa shayboniylar sulolasining ilk davrlarida temuriylar tangalari ham amalda bo'lganligidan darak beradi.

Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi numizmatika va maxsus saqlov fondi bazasida Samarqandda pul munosabatlari tarixi muzeyi, Samarqand-Amir Temur davlati poytaxti nomli muzey va boshqa ekspozitsiyalar, ko'rgazmalar tashkil etish taklif etiladi. Shu bilan birga ushbu noyob kolleksiyalar ishtirokida bir qancha yo'nalishlarga ega bo'lgan ilmiy kataloglar nashr etish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (Reference)

1. "O'zbekiston madaniy merosi" mualliflik turkumi: "Samarqand davlat tarixiy-me'moriy va badiiy muzey-qo'riqxonaga to'plami" kitob-albomi. Toshkent-2020.
2. Amir Temur maqbarasining o'rganilishi tarixidan. Katalog. Mas'ul muharir M. Yunusov. Samarqand-2022 yil.
3. Bekenova A.A. Temuriylar davrida din va xalqaro madaniy aloqalarning muzey ekspozitsiyasida yoritilishi. "Mirzo Ulug'bek – buyuk mutafakkir olim va davlat arbobi" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 2024-yil 14-15 may.
4. Eshpulotov S.M. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasining temuriylar davriga oid arxeologik kolleksiyalari. International journal of philosophical studies and social sciences. Vol 4, Issue 4 (2024).
5. Muzey-qo'riqxonaga 10-sonli kirim kitobi. 2782-2888.
6. Muzey-qo'riqxonaga 11-sonli kirim kitobi. 2889-2972.
7. Muzey-qo'riqxonaga 13-sonli kirim kitobi. 3191-3464.

8. Muzey-qo'riqxonasi 14-sonli kirim kitobi. 3465-3741.
9. Muzey-qo'riqxonasi 16-sonli kirim kitobi. 3932-4126.
10. Muzey-qo'riqxonasi 18-sonli kirim kitobi. 4339-4719.
11. Muzey-qo'riqxonasi 21-sonli kirim kitobi. 5472-6065.
12. Muzey-qo'riqxonasi 23-sonli kirim kitobi. 6065-6212.
13. Muzey-qo'riqxonasi 24-sonli kirim kitobi. 6213-6434.
14. Muzey-qo'riqxonasi 3-sonli kirim kitobi. 71-145.
15. Muzey-qo'riqxonasi gemma va muhrlar inventar kitobi. 1-247.
16. Muzey-qo'riqxonasi numizmatik ashyolar inventar kitobi N-18, 16183-16700.
17. Muzey-qo'riqxonasi numizmatik ashyolar inventar kitobi N-9, 10459-11744
18. Muzey-qo'riqxonasi numizmatik ashyolar inventar kitobi. N-17, 15526-16182.
19. Muzey-qo'riqxonasi numizmatik ashyolar inventar kitobi. N-2, 801-3000.
20. Muzey-qo'riqxonasi numizmatik ashyolar inventar kitobi. N-28, 21956-22667.
21. Muzey-qo'riqxonasi numizmatik ashyolar inventar kitobi. N-29, 22668-23348.
22. Muzey-qo'riqxonasi numizmatik ashyolar inventar kitobi. N-4, 4140-6580.
23. Muzey-qo'riqxonasi numizmatik ashyolar inventar kitobi. N-7, 7153-7872.
24. Muzey-qo'riqxonasi numizmatik ashyolar inventar kitobi. N-8, 9145-10458.
25. Muzey-qo'riqxonasi numizmatik ashyolar inventar kitobi. N-9, 10459-11744.
26. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi ilmiy arxivi, 1-jamg'arma, 1-ro'yaxat, 1127-jild.
27. Samarqand muzeyi durdonalari. Katalog. Mas'ul muharir A. Hakimov. Toshkent-2004.
28. Splendeurs des oasis d'Ouzbekistan. Sur les routes caravanieres d'Asie centrale. Sous la direction de Rocco Rante et Yannick Lintz. Musee du Louvre, Paris, 2022. Editions el Viso, Madrid et Paris, 2022. P.356.;
29. Sur les routes de Samarcande. Merveilles de soie et d'or. 23 novembre 2022 au 4 juin 2023. Institut du monde arabe, 2023. P. 275-282.
30. Temuriylar tarixi davlat muzeyi durdonalari. Toshkent-2017.
31. Yunusov M.A. Samarqandda muzey ishi: shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va muzeylashtirish tamoyillari. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. Toshkent-2023.
32. Брагин А.О., Петров П.Н., Гозман А.А. "Медные монеты Амира Тимура с номиналом тассудж". "Нумизматика Золотой Орды" №4, 2014.
33. Камышев А. М. Клады медных монет Тимуридов и Шейбанидов. – Самарканд: МИЦАИ, 2013.
34. Нуридинова Т.С. О монетах Средней Азии, хранящихся в нумизматической коллекции Государственного музея искусств Узбекистана. Исторические исследования: материалы VI Междунар. науч. конф. (г. Москва, июнь 2018 г.). - Москва : Буки-Веди, 2018.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage

Volume: 4 Issue: 03 | 2024

ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314

<http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich>

35. Muzey-qo‘riqxonada 17-sonli kirim kitobi. 15526-16182